

1

938. пуновуу
2015

МАЗУСТ

MAGISTRIK DISSERTASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 8 F

SINDAROV QAHRAMON TOLLIBOYEVICH

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI
O'QITISH METODIKASI
(Xalq dostonlari misolida)**

5A111201-O'zbek tili va adabiyoti

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **A.Tangirov**

Jizzax-2015



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

Fakultet: O'zbek tili va adabiyoti

Magistratura talabasi: Sindarov Qahramon
Toliboyevich

Kafedra: O'zbek adabiyoti o'qitish
metodikasi

Ilmiy rahbar: dots. A. Tangirov

O'quv yili: 2014-2015

Mutaxassisligi: 5A111201-O'zbek tili va
adabiyoti

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi
(Xalq dostonlari misolida)

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalqi g'oyatda boy merosga vorislik qiladi. Vorislik – bu ulkan adabiy merosimizning katta asosiy qismi xalq og'zaki ijodiyoti asarlaridir. Og'zaki poetik ijodning badiiy jihatdan go'zali va hajman yirigi o'zbek xalq dostonlaridir.

O'zbek xalq dostonlari o'zbek folklorshunosligi fanida keng ilmiy ko'lamda fanning nazariy yo'nalishi bo'yicha tadqiq qilingan bo'lsa ham ularni ta'lim tizimida o'rganish, ayniqsa, o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga mo'ljallangan holatda o'qitish uslubiyati monografik yo'nalishda o'rganilmagan. Shu sababli xalqimiz ma'naviyati, qadriyati, urf-odatlar, yashash tarzi bilan bog'liq xalq dostonlarini o'rta ta'lim maktablarida o'rganish va bu sohada biror ilmiy yangilik joriy qilish bugungi kun adabiyot o'qitish metodikasining dolzarb masalalaridan sanaladi.

Og'zaki ijodiyotimizning gultojlari bo'lgan “Alpomish”, “Kuntug'mish”, “Ravshan” dostonlaridan ayrim parchalarning o'rta ta'lim maktab darsliklariga kiritilishi yosh avlodni ona Vatanga, ajdodlar qadriyatiga sadoqat, milliy urf-odatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xalq dostonlarining sara namunalari xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanib, yosh avlodni komil inson qilib shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ishning maqsadi. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi: umumiy o'rta ta'lim maktab o'quv dasturiga kiritilgan “Alpomish”, “Kuntug'mish”, “Ravshan” dostonlarini o'rganishda ta'lim tizimining noan'anaviy shakllaridan foydalangan holda yangi pedagogik texnologiyalarning turli vositalarini ijodkorlik bilan qo'llab, xalq dostonlarining ijtimoiy-tarbiyaviy vositaligini, muhimi, o'quvchilarda estetik didni shakllantirishda muhim badiiy ahamiyatga egaligini ochib berishdir.

Ishning vazifalari. Mavzuning dolzarbligi va maqsadlaridan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- xalq dostonlarini xalqimizning boy adabiy merosi va uning tarkibiy qismi sifatida o'rganish;
- dostonlarning janr xususiyatlarini va shu orqali o'quvchilarga og'zaki ijod an'analari haqida kengroq tushuncha berish;
- doston badiyatini, sujeti va kompozitsiyasini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan unumli foydalanish;
- darsning jonli va qiziqarli o'tishini ta'minlashda AKT vositalaridan unumli foydalanish;
- darsning mazmundorligini oshirish va samaradorligini aniqlash maqsadida jadval, tarqatma materiallar va test savollari tuzilmasini ta'minlash.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiyamiz mavzusi o'zbek folklorshunoslik fanida ilmiy-nazariy jihatdan ko'pchilik folklorshunos olimlar tomonidan o'rganilgan.

Jumladan, folklorshunos olim To'ra Mirzayev "Alpomish" dostoni variantlari", akademik Shonazar Shoabdurahmonov "Ravshan" dostonining til xususiyatlari", S. Yo'ldoshev "Alpomish" dostonining badiiy xususiyatlari" mavzularida fan nomzodligini, I. Yormatov "Alpomish" dostonining janr va badiiy xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlaganlar. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda, maktab va litseylar uchun chiqarilgan darslik, xrestomotiyalarda xalq og'zaki ijodi tadqiq qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi" (Xalq dostonlar misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyamizning ilmiy yangiligi xalq dostonlarini ta'lim tizimida o'tishda yangi pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlaridan qanday samarali foydalanish, birinchi marta ilmiy tavsiyalar berish bilan belgilanadi. Tadqiqot uchun tanlangan manbalarga, birinchi marta folklorshunoslikda erishilgan so'nggi yutuqlarga, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda baho beriladi.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqotimiz uchun asosiy obyekt sifatida "Alpomish", "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlarini hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi sinf adabiyot darsliklarida berilgan dostonlardan parchalarni oldik.

Tadqiqotning predmeti. Xalq dostonlarining mazmun-mohiyati, ularni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganishning usullari va o'ziga xos tomonlari.

Magistrlik dissertatsiya ishi tarkibi. Dissertatsiya tarkiban kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adaboyitlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashgan ifodasi. Dissertatsiya ishinin pirovardida shuni ta'kidlashimiz lozimki, yoshlarimizni xalq og'zaki ijodi zamiridagi nodir va takrorlanmas ijod namunalariga oshno qilish va undan kerakli xulosalar chiqarish, milliy qadriyatlarga asoslangan ongini, ma'naviy dunyosini shakllantirish bugungi kunda muhim rol o'ynaydi. Bu yo'lda adabiyot darslarining o'rni va ahamiyati beqiyos.

Ilmiy rahbar

Magistrant



A. Tangirov

Q. Sindarov

**THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN
JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE NAMED AFTER
A.QODIRIY**

Faculty: Uzbek language and literature

Department: The methodology of teaching Uzbek literature

Student of Masters Degree: Sindarov Qahramon Tolliboyevich

Scientific advisor: Associate professor A.Tangirov

Specialty: 5A111201-Uzbek language and literature

Academic year: 2014-2015

THE ANNOTATION OF MASTER PAPER

Theme: The methodology of teaching folklore at general secondary schools
(In instance of the national epics)

The importance of the theme: The Uzbek people inherits especially rich creative works in literature. Folklore is the big part of this inheritance. The beauty and hugeness of the oral poetic creation are epic poems of the Uzbek people.

Although Uzbek epic poems have been researched widely theoretically within the study of folklore, they have never been studied in a monographic way by focusing on teaching them at general secondary schools. For this reason, studying epic poems related to our people's morality, tradition, lifestyle and customs, at secondary schools, and conducting researches in this area are the important aspects of methodology of teaching literature.

Including some parts of the crowns of our epic poems "Alpomish", "Kuntugmish" and "Ravshan" into the school subjects would serve good role in bringing up the young generation in the spirit of patriotism, love and loyalty to the customs and traditions of the ancestors.

The aim of the paper: The main aim of this paper is teaching extracts of "Alpomish", "Kuntugmish" and "Ravshan" poems at secondary schools by using diverse mediums of new pedagogical technologies in non-traditional and creative ways, and showing the literal importance of them in educating young generation socially and esthetically.

The tasks of the paper: It include the following tasks:
studying epic poems as the main particles of our literature inheritance
giving wider notions about the traditions of oral folklore and the genres of epic poems
using wisely diverse methods of new pedagogic technologies in studying subject and composition of epic poems
using wisely the ICT in proving interesting and lively lessons
providing learned with handout materials, charts and tests by increasing the suitability and efficiency of a lesson

providing learned with handout materials, charts and tests by increasing the stability and efficiency of a lesson

The level of awareness of the subject: The subject of the paper has been researched theoretically by many specialists of folklore in the study of folklore.

For example, the scholar of folklore Tura Mirzaev have written "The versions of the poem of Alpomish", academic Shonazar Shoabdurahmonov "The linguistic features of Ravshan", S. Yuldoshev "The literal aspects of Alpomish", Yormatov "Literal and genre aspects of Alpomish". Moreover, folklore have been studied carefully in the textbooks and manuals created for university, college and gymnasium students.

The scientific novelty of the research: The novelty the paper, "The methodology of teaching folklore at general secondary schools", is determined by efficiently availing of diverse mediums of new pedagogic technologies, and by giving recommendation to it for the first time. The evaluation of the sources chosen for the research and firstly gained achievements is determined by leaning on scientific researches.

The objects of the paper: The main objects of the paper are Alpomish", "Kuntugmish" and "Ravshan" epic poems and extracts form 7th, 8th, 9th grade literature textbooks.

The topic of the paper: Morals and subjects of epic poems, and methodology of teaching them at general secondary schools.

The organizational work of the paper: The paper consists of introduction, three chapters, conclusion, bibliography and appendices.

The generalized short description of conclusion: At the beginning of the paper it should be pointed out that nowadays it is important to improve the knowledge of young generation in our epic poems, and making right conclusions from them.

Scientific supervisor

Magistrate



A. Tangirov

Q. Sindarov

**МИНИСТРЕСТВО ВЫСШЕГО СРЕДНЕ СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ДЖИЗАКСКИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ ИМЕНИ
АБДУЛЛЫ КАДЫРИ**

Факультет: Узбекский язык и
литература

Студент магистратуры: Синдаров
Кахрамон Толлибоевич

Кафедра: Методика преподавания
узбекской литературы

Научный руководитель: дотц. А.
Тангиров

Учебный год: 2014-2015

Специальности: 5A111201- Узбекский
язык и литература

АННОТАЦИЯ НА МАГИСТРИНУЮ ДИССЕРТАЦИЮ

Тема: Методика преподавания устного творчества в общеобразовательных
средних школах
(Напримере народных поэм)

Актуальность темы. Узбекскому народу принадлежит очень богатое наследие. Это наследие- произведения устного народного творчества, что составляет основную часть нашего огромного литературного наследия. С художественной точки зрения красивые и по объёму большие произведения, которые относятся к устному поэтическому творчеству- это узбекские народные поэмы.

Узбекские народные поэмы в узбекской фольклористике, хотя и были исследования в широком научном аспекте по теоретическому направлению, в образовании, особенно в среднеобразовательных школах, методика преподавания по монографическому в предназначенном виде для учащихся ещё не изучена. Поэтому изучение в среднеобразовательных школах народных поэм связано с духовностью, общечеловеческими ценностями, обычаями и традициями, самобытностью нашего народа и одна из актуальных проблем методики преподавания литературы на сегодняшний день считается, чтобы внедрить какое-нибудь научное новшество.

Включение в учебники среднеобразовательных школ некоторых отрывков из поэм «Алпомиш», «Кунтугмиш», «Равшан» которые являются шедеврами нашего устного творчества, служит воспитанию молодого поколения в духе патриотизма к Родине, верности ценностям поколений, любви к национальным обычаям и традициям.

Образцы народных поэм являясь бесценным духовным богатством нашего народа, служат основным воспитательным средством для развития личности при подрастающем поколении.

Цель работа. Основная цель диссертации: в изучении поэм «Алпомиш», «Кунтугмиш», «Равшан» включённых в программу

общеобразовательных средних школ, и творческое использование в нестандартных формах образования разные средства новой педагогической технологии, открыть то, что народные поэмы являются социально-воспитательным средством, главное, имеют важное художественное значение в формировании у учащихся эстетики.

Задача работа. Из-за актуальности темы и поставленных целей работа вбирает в себя следующие задачи:

- изучение народных поэм в качестве богатого литературного наследия нашего народа и его неотъемлемой части;
- дать миру понятие освоения жанра поэм и этим учащимся показать традиции устного творчества;
- использовать разные приёмы новой педагогической технологии в изучении художественности, сюжета и композиции поэм;
- обеспечение таблицами, раздаточными материалами и тестами в целях повышения содержательности уроков и уточнения их.

Степень изучения темы. Тема диссертации была изучена многими учеными фольклористики со стороны научно-теоретической в узбекской фольклористике.

Например, своими работами стали кандидатами наук, такие как фольклорист, ученый Тура Мирзаев («Варианты поэмы «Алпомиш»»), академик Шоназар Шоабдурахмонов («Особенности языка поэмы «Равшан»»), С. Юлдашев («Художественные особенности поэмы «Алпомиш»»), И. Ёрматов защитил докторскую диссертацию по теме: «Жанр и художественные особенности поэмы «Алпомиш»». Также, исследовано устное народное творчество в учебниках и учебном руководстве для высших учебных заведений, а также в учебниках и хрестоматиях, выпущенных для школ и лицеев.

Научное новшество исследования. Научное новшество магистерное диссертации по теме: «Методика преподавания устного народного творчества в общеобразовательных средних школах» «На примере народных поэм», как качественно преподнести народные поэмы в образовании с помощью направлений новой педагогической технологии в первый раз дать научные рекомендации. Дается оценка исследованиям основываясь на выбранных источниках, последних успехах, достигнутых впервые в фольклористике, научные исследования.

Объект исследования. Для исследования мы взяли в качестве объекта поэмы «Алпомиш», «Кунтугмиш», «Равшан» и отрывки из поэм, данных в учебниках седьмого, восьмого, девятого классов общеобразовательных средних школ.

Предмет исследования. Методы и особенности преподавания содержания народных поэм в общеобразовательных средних школах.

Порядок работы магистерной диссертации. Диссертация состоит из введения, трёх глав, вывода, списка использованной литературы и приложения.

Общее краткое содержание вывода и предложений. В основе диссертационной работы надо подчеркнуть, что нашу молодёжь надо познакомить с оригинальными и неповторимыми художественными образцами устного народного творчества и отсюда делать нужные выводы, сознание основанное на национальных ценностях, формирование духовного мира на сегодняшний день играет важную роль. Место и значение уроков литературы на этом пути неоценимы.

Научный руководитель:

Магистрант



А.Тангиров

К.Синдаров

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. BOB. Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Alpomish" dostonini o'qitish uslubi	12
1.1. Xalq dostonlarining umumiy o'rta ta'lim maktabi tizimida tutgan o'rni	12
1.2. "Alpomish" dostonida vatanga muhabbat va yurtga sadoqat g'oyasi, keksalarni e'zozlash va qadrlash tuyg'usining kuylanishi.....	18
1.3. "Alpomish" dostonining yaratilish tarixi	33
II. BOB. "Kuntug'mish" dostonini o'rganishda innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	37
2.1. "Kuntug'mish" dostonining didaktik ahamiyati.....	37
2.2. "Kuntug'mish" dostonida bola tarbiyasi va muhitning tutgan o'rni	45
2.3. "Kuntug'mish" dostonining mazmun-mohiyati, badiiy xususiyatlari.....	50
III. BOB. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ravshan" dostonini o'rganish uslubi	56
3.1. "Ravshan" dostonining "Go'ro'g'li" turkumida tutgan o'rni.....	56
3.2. O'quvchilarda doston matni ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish... ..	61
3.3. "Ravshan" dostonidagi badiiy obraz va mubolag'ali tasvir vositalarini o'rganish.....	69
Xulosa.....	79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	82

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbek xalqi g'oyatda boy merosga vorislik qiladi. Vorislik – bu ulkan adabiy merosimizning katta asosiy qismi xalq og'zaki ijodiyoti asarlaridir. Og'zaki poetik ijodning badiiy jihatdan go'zali va hajman yirigi o'zbek xalq dostonlaridir.

O'zbek xalq dostonlari o'zbek folklorshunosligi fanida keng ilmiy ko'lamda o'zining nazariy yo'nalishi bo'yicha tadqiq qilingan bo'lsa ham ularni ta'lim tizimida o'rganish, ayniqsa, o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga mo'ljallangan holatda o'qitish uslubiyati monografik yo'nalishda o'rganilmagan. Shu sababli biz qiziqimiz ma'naviyati, qadriyati, urf-odatlarini, yashash tarzi bilan bog'liq xalq dostonlarini o'rta ta'lim maktablarida o'rganish va bu sohada biror ilmiy yangilik yaratish qilish bugungi kun adabiyot o'qitish metodikasining dolzarb masalalaridan biridir.

Og'zaki ijodiyotimizning gultojlari bo'lgan “Alpomish”, “Kuntug'mish”, “Ravshan” dostonlaridan ayrim parchalarning o'rta ta'lim maktab darsliklariga kiritilishi yosh avlodni ona Vatanga, ajdodlar qadriyatiga sadoqat, milliy urf-odatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, prezidentimiz I.A.Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan bayram tantanalarida aytgan quyidagi fikrlari barchamiz uchun qadriyatli bo'lib xizmat qiladi: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik qadriyatlaridan saboq beradi. Odil va haqqo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi¹”.

Ma'lumki, 1993-yildan O'zbekistondagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fani bo'yicha yangi dastur asosida o'quv mashg'ulotlari uyushtirilmoqda. 1999-yildan Respublika Vazirlar Mahkamasi “Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi” asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini ochish haqida qaror qabul qildi. Mazkur qarorning hayotga tatbiq etilishi natijasida xalq og'zaki poetik

¹ Prezident Islom Karimovning «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda e'lon qilingan nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1999-yil, 9-noyabr.

ijodi kursini alohida nazariy kurs sifatida o'rganish masalasi amalga oshmoqda. Bu esa bo'lajak adabiyot o'qituvchisiga o'zbek xalq og'zaki poetik ijodini bo'lg'usi yosh mutaxassis sifatida mukammal o'rganish mas'uliyatini yuklaydi. Shunday qilib, o'zbek filologiyasi fakultetida ta'lim olayotgan talaba biz o'rganadigan nazariy kursni ikki maqsadda o'rganishga majbur bo'ladi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sifatida og'zaki ijod janrlari va asoslarini o'rganadi va shu asosda milliy mafkura tamoyillarini egallaydi. Ikkinchidan, bir necha yildan so'ng umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fani bo'yicha mashg'ulotlar uyushtiradigan mutaxassis sifatida og'zaki ijod namunalarini tahlil qilish, badiiy asarlar mohiyatini o'quvchilarga tushuntira olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturiga kiritilgan xalq dostonlarini o'qitish yuzasidan olib borilgan o'quv-uslubiy ishlar tahlili ularning umumiy yoki avtomatik yo'nalishda yoritilganligidan dalolat beradi. Bugungi kun ta'lim tizimida ro'y berayotgan global o'zgarishlar esa xalq dostonlarini maxsus va har tomonlama o'rganishni taqozo qiladi. Zero, xalq dostonlari xalqimiz tarixi, milliy ma'naviyatining o'zagini tashkil qilar ekan, yosh avlod ta'lim va tarbiyasida o'ziga xos o'ringa egadir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "... inson o'zini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, o'g'aya boradi. Bu ildiz qanchalik kerak bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi".

Xalq dostonlarining sara namunalari xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanib, yosh avlodni komil inson qilib shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli o'rta maktab o'quv dasturiga kiritilgan xalq dostonlarini chuqur va har tomonlama o'rganish bir tomondan, o'quvchilarga xalqimiz tarixi, ma'naviyati va og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishni uyg'otsa, ikkinchi tomondan ajdodlar kabi yurtga, Vatanga, xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatni yanada kuchaytiradi. Atoqli xalq shoirlari: Fozil Yo'ldosh o'g'lidan "Alpomish", Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlari xalqimizning ana shunday noyob adabiy meroslaridir.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi.

Mazkur tadqiqotda xalq ogʻzaki ijodini yangicha pedagogik tafakkur tamoyillariga tayanib oʻrgatish masalasi tadqiqot obyekti sifatida oʻrganildi.

Tadqiqotimiz uchun asosiy obyekti sifatida Fozil Yoʻldosh oʻgʻli kuylagan “Alpomish”, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli kuylagan “Kuntugʻmish”, “Ravshan” dostonlarini hamda umumiy oʻrta taʼlim maktablarining yettinchi, sakkizinchi, toʻqqizinchi sinf adabiyot darsliklarida berilgan dostonlardan parchalarni oldik. Fikrimizni rivojlantirish, taʼlim samaradorligini oshirish maqsadida oliy oʻquv yurtlari uchun K. Imomov va boshqalar muallifligida tayyorlangan “Xalq oʻgʻzaki poetik ijodi” darsligi va yangicha pedagogik texnologiyalar, taʼlimning zamonaviy ilmiy metodik usullaridan foydalandik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Dissertatsiyaning asosiy maqsadi: umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquv dasturiga kiritilgan “Alpomish”, “Kuntugʻmish”, “Ravshan” dostonlarini oʻrganishda taʼlim tizimining noanʼanaviy shakllaridan foydalangan holda yangi pedagogik texnologiyaning turli vositalarini ijodkorlik bilan qoʻllab, xalq dostonlarining ijtimoiy-tarbiyaviy vositaligini, muhimi, oʻquvchilarda estetik didni shakllantirishda muhim badiiy ahamiyatga egaligini ochib berishdir. Tadqiqotda maqsadning bunday qoʻllanishi uning vazifalarini ham aniq belgilab beradi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- a) xalq dostonlarini xalqimizning boy adabiy merosi va uning tarkibiy qismi sifatida oʻrganish;
- b) dostonlarning janr xususiyatlarini va shu orqali oʻquvchilarga ogʻzaki ijod anʼanalari haqida kengroq tushuncha berish;
- d) oʻquv dasturiga kiritilgan dostonlarni muayyan dostonchilik maktablari doirasida oʻrganish va shu orqali baxshi-shoirlar oʻrtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarini, barqaror ijro anʼanalarini va ijodiy novatorlikni oʻrganish;
- e) oʻrganilayotgan xalq dostonlarining oʻzbek folklorida tutgan oʻrnini aniqlash;

f) xalq baxshi-shoirlarining hayoti va ijodini hamda u mansub bo'lgan dostonchilik maktabining o'ziga xos yo'nalishlarini tahlil qilish;

g) doston badiiyatini, sujeti va kompozitsiyasini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan unumli foydalanish;

h) darsning jonli va qiziqarli o'tishini ta'minlashda AKT vositalaridan unumli foydalanish;

i) darsning mazmundorligini oshirish va samaradorligini aniqlash maqsadida adval, tarqatma materiallar va test savollari tuzilmasini ta'minlash.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq dostonlarini o'rganish xalqimizning tarixi, ajdodlarimizning merosi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, tadqiqotda asosiy masala sifatida xalq dostonlarida ko'tarilgan g'oyalar, tasvirlangan urf-odat va qadriyatlar, obraz va personajlarning milliy koloriti, sujetning xalq tarixi bilan bog'liqligi, kompozitsiyaning milliy va an'naviyligi ta'kid etadi. Tadqiqotdan chiqarilgan xulosalar va ilmiy farazlar o'rta maktab darsliklaridagi xalq dostonlarini chuqur va har tomonlama o'rganish uchun adabiyot o'qituvchilariga uslubiy qo'llanma sifatida yordam beradi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.

Mavzu uchun asosiy manbalar: "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi. Respublika ta'lim markazi. Uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9-sinflar). – T.: "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 196 b.", "Alpomish; Rustamxon / [So'zboshi muallifi M. Murodov]. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 448 b.", "Ergash Jumanbulbul o'g'li. Kantug'mish. (Doston) (Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li. Yozib oluvchi: Muhammad Iso Ernazar o'g'li, nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif) T., "G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1975. – 264 b.", "Ergash Jumanbulbul o'g'li. Ravshan. (Doston) (Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li. Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif) T., 1941. – 222 b.", "Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 3-nashri. / Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. – T.:

Yangiyo'l poligraf servis, 2014. – 200-b.”, “Adabiyot 8: darslik-majmua (I qism) S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 192 b.”, “Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablaring 7-sinf uchun darslik-majmua /Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. – T.: “Sharq”, 2013. – 368 b.”, “Adabiyot: 9-sinf: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma /Mualliflar: N.Karimov, B.Nazarov, U.Normatov va boshqalar. – T.: “Ma'naviyat”, 2002. – 160 b.”, “Adabiyot 8-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma /S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 160 b.”, “Yo'ldoshev Qozoqboy. Adabiy saboqlar: Umumta'lim maktablaring 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: “Bilim” nashriyoti, 2003. – 144 bet”. Bulardan tashqari dars samaradorligini oshirish maqsadida oliy o'quv yurtlari uchun tayyorlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, risolalar va umumaviy axborot vositalarida chop etilgan folklorshunoslikka oid adabiyotlardan foydalandik.

Tadqiqotimizga metodik asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy ma'naviyat va adabiyotimiz bilan bog'liq asarlari, 1999-yilda “Alpomish” dostonining 1000 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” olindi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.

Dissertatsiyamizda adabiyotshunoslik fanida bugungi kunda keng qo'llanilayotgan qiyosiy tipologik uslubni asos qilib oldik. Chunki xalq dostonlarini xalq tarixi, qadimgi turkiy xalqlar urf-odati bilan qiyosiy o'rganish muhim amaliy natijalar beradi. Folklorshunoslikdagi mifologik tadqiq usuli xalqimizning totemistik va animistik qarashlariga borib taqaladigan qadimiy miflarni dostonlar bilan bog'lab o'rganish, bu dostonlarimizning ildizi xalqimizning davlat sifatida shakllanishiga borib taqaladi. Dostonlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganish uchun innovatsion-pedagogik texnologiyalarning “Muloqot”, “Fikriy hujum”, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim”, “Qizil va yashil rangli kartochkalar

ishlash”, “Qarama-qarshi munosabat”, “Test”, “Insert” kabi turlarini qo‘llab qo‘yish qildik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xalq og‘zaki ijodini o‘qitish metodikasi” (xalq dostonlar misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyamizning ilmiy yangiligi xalq dostonlarini ta’lim tizimida o‘tishda yangi pedagogik metodologiyalarning turli yo‘nalishlaridan qanday samarali foydalanish, birinchi marta ilmiy tavsiyalar berish bilan belgilanadi. Tadqiqot uchun tanlangan masalalarga, birinchi marta folklorshunoslikda erishilgan so‘nggi yutuqlarga, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda baho beriladi.

Dars jarayonida o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning ijodkorligini, faolligini oshirish, mashg‘ulot samaradorligini kuchaytirish, o‘quvchilarda mavzu uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni internet tarmog‘idan izlash va topish borasida yordam berish va ko‘nikmalarni hosil qilishga erishiladi. Olingan ma’lumotlarni tizimli shakldagi ma’lumotlar bilan solishtirib, xulosa chiqarish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash voqea va hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirish olishni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiyadan chiqarilgan ilmiy xulosalar va natijalar uning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Dissertatsiyaning yakuniy xulosalari, bir tomondan xalq dostonlarini o‘qitish uslubiyati samaradorligini oshirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ta’lim uslubiyatini yaxshilashga xizmat qiluvchi uslubiy so‘zlanmalar, uslubiy tavsiyalar yaratish uchun manba vazifasini o‘taydi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.

Dissertatsiya kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan tashqari III bobdan iborat.

“Kirish” qismida dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili, tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, tadqiqot natijalarining

va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi, dissertatsiya tarkibining tavsifi bayon etildi.

Dissertatsiyaning asosiy qismi III bobdan iborat bo'lib, ular to'qqiz faslga bo'lingan. Boblarni joylashtirishda an'anaviy uslubdan, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktab o'quvchilari xalq dostonlarini o'rganishni sinflarga izchil tadqiq qilishdan voz kechilgan. Chunki 7-sinfda "Ravshan" dostoni o'qitiladigan bo'lsa, 9-sinfda "Alpomish" dostoni o'rganiladi. Birinchidan folklorshunoslik va sharq xalqlari dostoni tizimidan kelib chiqsak, "Alpomish" dostoni o'zbek xalqining faxri va shonidir, o'zligi demakdir. Ikkinchidan maktab o'quvchilari dastlab "Alpomish" dostonini o'rgansa o'zbek xalq og'zaki ijodining yirik epik janrini tushuna olmaydi va qahramonlik dostonining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xalqqa bo'lgan mehri yanada oshadi.

Shu sababli dissertatsiyamizda boblar dostonlarning xalq og'zaki poetik asarlari sifatida tutgan o'rni qarang. Bular quyidagilardir.

Dissertatsiyamizning I bobi "Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Alpomish" dostonini o'qitish uslubi" deb nomlanib, uch faslni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinci fasl "Xalq dostonlarining umumiy o'rta ta'lim maktabi tizimida o'rganilgan o'rni" deb nomlanib, o'quvchilarga xalq dostonlari ularning turlari, mavzulari, kechalari, xalq baxshilari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir Nazar o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li, Po'ltan shoirilar ijodiyoti va ijodi haqida tushuncha beriladi. Dars davomida xalq dostonlarini o'rganishda o'quvchilarning yoshi, dunyoqarashi hisobga olinib, ularda estetik shakllantirishga xizmat qiluvchi she'riy parchalar o'qib tahlil qilinadi. "Alpomish" dostonidagi vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat g'oyalari o'quvchilarga qaratiladi. Bunda innovatsion-pedagogik texnologiyalarning "Muloqot", "Fikriy hujum", "Klaster", "Aqliy hujum", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Test" kabi metodlar yaxshi samara berishi mumkin.

Ikkinchi fasl "Alpomish" dostonida vatanga muhabbat va yurtga sadoqat g'oyasi, keksalarni e'zozlash va qadrlash tuyg'usining kuylanishi" deb nomlanib, o'quvchilarga o'zlari tug'ilgan va yashayotgan yurtga muhabbat uyg'otish,

...aga, keksalarga hurmat, tengdoshlarga va yosh bolalarga g'amxo'rlik kabi insoniy fazilatlar dostonidan keltirilgan misollar asosida o'quvchilar qalbiga etiladi.

Uchinchi fasl "Alpomish" dostonining yaratilish tarixi" deb nomlanib, 9-... "Alpomish" dostonini o'rganishga ajratilgan besh soatlik darsning birinchi uchun mo'ljallangan dars ishlanmasi tashkil qiladi.

II bob "Kuntug'mish" dostonini o'rganishda innovatsion-pedagogik metodologiyalardan foydalanish" deb nomlanib, uch faslni o'z ichiga qamrab

Birinchi fasl doston nazariyasiga bog'liq bo'lib, "Kuntug'mish" dostonining ahamiyati" deb nomlanadi. Bu faslda dostonchilik maktablari va "Qo'rg'on" dostonchilik maktabida "Kuntug'mish" dostonining tutgan o'rni, dostonning sujet va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, til xususiyatlari, badiiy tasvir usullari 8-sinf o'quvchilari dunyoqarashiga va bilim malakasiga bog'liq holda qilinadi. Shuningdek, doston kuylovchi Ergash Jumanbulbul o'g'li hamda "Qo'rg'on" dostonchilik maktabining peshqadam vakillari haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tiladi.

Ikkinchi fasl "Kuntug'mish" dostonida bola tarbiyasi va muhitning tutgan o'rni" deb nomlanib, doston qahramonlari Gurkiboy va Mohiboynlarning tarbiya qilinishida oilaviy muhitning qanchalik ahamiyati kattaligi tahlil qilinadi. Aynan, ushbu dostonlariga xos didaktik vositalar shu faslda kengroq ko'lamda tadqiq etiladi.

Uchinchi fasl bir soatlik dars ishlanmasidan iborat bo'lib, "Kuntug'mish" dostonining mazmun-mohiyati, badiiy xususiyatlari" deb nomlanadi. Bu bobda DTSning o'quv dasturida ajratilgan to'rt soatlik darsning uchinchi soati asosiy manba sifatida olinib, 45 daqiqalik dars ishlanmasi to'liq bayon etiladi.

III bob "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ravshan" dostonini o'rganish uslubiyati" uch fasldan iborat.

Birinchi fasl "Ravshan" dostonining "Go'ro'g'li" turkumida tutgan o'rni" deb nomlanib, DTSning o'quv dasturida ajratilgan to'rt soatlik darsning asosiy

xulosalari haqida fikr yuritiladi. Bu faslda 40 dan ortiq dostonlarni o'zida jamlashtirgan "Go'ro'g'li" turkumining o'zbek xalq dostonchiligida tutgan o'rinda ilgari surilgan asosiy g'oyalar, bola tarbiyasi bilan bog'liq epik asarlar, sujeti va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari, til xususatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Ayniqsa, dostonda o'smir yoshdagi bolalar o'z qiziqarli bo'lgan Ravshanning sarguzashtlari tahliliga kengroq o'rin berilgan.

Ikkinchi fasl "O'quvchilarda doston matni ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish" deb nomlanib, dostonning umumiy mazmuni bayon qilingan holda bola tarbiyaga bog'liq matn ajratib olinadi va tahlil qilinadi. Shuningdek, bu faslda "Ravshan" dostonining "Go'ro'g'li" nasriy turkumidagi dostonlarning o'ziga xosligi ekanligiga ham e'tiborni qaratib, Go'ro'g'li haqidagi dostonlarning asoschi avlodi Go'ro'g'li – Hasanxon – Ravshan ekanligi alohida qayd qilinib, o'g'il – nevara munosabatlari o'zbekona urf-odatlarining mohiyati bilan bog'liq holda o'quvchilarga tushuntiriladi.

Uchinchi fasl "Ravshan" dostonidagi badiiy obraz va mubolag'ali tasvir vositalarini o'rganish" deb nomlanib, bir soatlik dars ishlanmasidan iborat. Bu faslda DTSning o'quv dasturida ajratilgan to'rt soatlik darsning to'rtinchi soati o'qib, unga badiiy obrazlar tizimining o'ziga xosligi, dostonlarda mubolag'ali tasvirning tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

Dissertatsiyamizning "Xulosa" qismida asosiy III bobdan chiqarilgan asosiy xulosalar umimlashtiriladi.

I. BOB. Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Alpomish" dostonini o'qitish uslubiyati

1.1. Xalq dostonlarining umumiy o'rta ta'lim tizimida tutgan o'rni

9-sinf adabiyot darsligida "Alpomish" dostonini o'rganish uchun DTS va dastur talabiga ko'ra besh soat vaqt ajratilgan va mazkur mavzuni o'rganishning samaradorligini oshirish maqsadida mavzular har soatga rejalashtirilgan. Xalq dostonlarining sara namunalari xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanib, besh avlodni komil inson qilib shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli o'rta maktab o'quv dasturiga kiritilgan xalq dostonlarini o'rganish va har tomonlama o'rganish bir tomondan o'quvchilarga xalqimiz tarixi, ma'naviyati va og'zaki ijodga bo'lgan qiziqishini uyg'otsa, ikkinchi tomondan yurtga, vatanga, xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada kuchaytiradi. Bu mas'uliyatli vazifa zimmasida bo'lgan o'qituvchilardan jiddiy e'tiborga e'tibor ko'rish talab qilinadi. Shu boisdan ta'lim-tarbiya jarayonida "Alpomish" dostonini o'rgatishda e'tibor berishi lozim bo'lgan jihatlar haqqida fikr yuritmoqchimiz.

O'zbek xalq dostonlari milliy ma'naviyatimizning gultojlari hisoblanadi. Ularning ijodkorlari bo'lgan baxshi-shoirlar ma'lum bir dostonchilik maktablariga mansub bo'lganlar. O'zbek folklorshunosligi fanida mashhur bo'lgan dostonchilik maktablari faqat geografik jihatdangina farqlanib qolmay, qahramonlar xatti-harakati, ruhiy kechinmalari yo'nalishi bo'yicha ham bir-biridan farqli tarzda tushayotgan. Shu sababli xalqimizning har bir dostoni mazmun-mohiyati hamda shakli bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. "Bulung'ur", "Qo'rg'on", "Sherobod", "Farg'ona", "Xorazm" dostonchilik maktablari XX asrning 20-yillaridayoq fanga ma'lum edi. "Bulung'ur" dostonchilik maktabi va uning peshqadam baxshi-shoirlari qahramonlik dostonlarini kuylash bilan dong taratgan bo'lsa, "Qo'rg'on" dostonchilik maktabi baxshi-shoirlari romantik dostonlarning bilimdonlari hisoblangan.

"Alpomish" dostoni "Bulung'ur" dostonchilik maktabida asrlar davomida kuylanib, badiiy jihatdan jahon adabiyotining nodir durdonalari bilan bemalol

biladigan san'at asariga aylangan. Shu sababli dostonning eng mukammal baxshi-shoir vakili hisoblangan baxshi-shoir Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib bergan Sugungacha dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'lidan, Po'ltan shoirdan, Saidmurod Panoh o'g'lidan va boshqa shoirlardan yozib olingan baxshi varianti mavjud. O'qituvchi shu o'rinda o'quvchilarga dostonchilikning o'ziga xos xususiyatlari va doston kuylash yo'nalishi haqida ham tushuntirish bermog'i lozim.

Dostonchilik maktabining har birida o'zlari mukammal bilgan va shu maktabning faxri hisoblangan dostonlari bo'lgan. "Alpomish" "Bulung'ur" dostonchilik maktabi uchun qanchalik qadrli bo'lsa, "Ravshan" dostoni "Alpomish" dostonchilik maktabi uchun shunchalik aziz hisoblangan. Odatda baxshi-shoirlar shogird yetishtirish uchun dastlab so'zga chechan, do'mbira chertgan, kuy dostonlarni farqlay biladigan yoshlardan eng iqtidorlilarini tanlab olinganlar. Ularga dastlab dostonning mazmunini keyin esa uning she'riy qismlarini o'qitirganlar. O'zlari bilan doimiy ravishda dostonchilik kechalariga olib boradilar. Shu asnoda shogird ustozdan dostonning qaysi kuyga mos holda kuylashini, she'riy tizimlarini o'z o'rniga qo'ya olishni o'rgangan va o'zi ham 5-6 yoshdagi dostonni davralarda bemalol kuylagandan so'nggina ustozidan oq fotiha olgan baxshi sifatida tanilgan.

O'qituvchi ayni shu o'rinlarda o'quvchilarga ta'lim tizimidagi farqlarni tushuntirib, dostonchilikni o'rganish yozuv bilan emas, balki og'zaki muloqat orqali o'rganilganiga oshganligini tushuntirib o'tmog'i lozim.

Shu o'rinda oddiy baxshilar 5-10 ta, iqtidorli deb tan olingan baxshilar 15-20 ta iste'dodi yuksak darajadagi, quvvayi hofizasi cheksiz bo'lgan baxshi-shoirlar 35-40 ta dostonni yoddan aytganlar. O'qituvchi dastlab dostonning, ya'ni "Alpomish"ning hajm jihatdan g'oyat ulkanligini, she'riy tizimining o'zi minglab misralardan iborat ekanligini o'quvchilarning ko'z o'ngigiga keltirib, shunday dostonlardan 40 dan ortig'ini kuylagan Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan shoir, Islom shoirlarning iste'dodi tengsiz ekanligini ta'kidlashi lozim.

kuylash tartibi ham o'ziga xos an'ana tusiga kirgan. Bu haqida o'quvchilarni xabardor qilar ekan, bugungi kun bilan o'tmishning farqini ko'rsatmog'i lozim. Dostonchilik kechalari elektr nuri bo'lmagan, radio, gazeta haqida tushuncha ham mavjud bo'lmagan bir davrda xalqning o'ziga xos beruvchi vositasi bo'lgan. Yosh avlod ham bunday kechalarda dostonidan yaratilgan badiiyatdan saboq olishgan. O'qituvchi darsda o'z o'g'il va o'g'ilning o'g'il kidekan ekan, bugungi kunda ularning badiiy, estetik ahamiyati o'zgacha bo'lgan dostonidan olingan parchalar vositasida dalillaydi.

Doston ko'pchilik holatda bir kechaga mo'ljallab aytiladi. Uning sujet va kompozitsiyasi, voqealar tizimi, obrazlar silsilasi shu bir kecha uchun mo'ljallanadi. Lekin "Alpomish" kabi ulkan hajmdagi dostonlarning voqealar tizimi ko'p qismli, lirik parchalarga boyligi, obrazlarning rang-barang va shaklligini uni ikki kechaga mo'ljallaydi, shuning uchun ham doston ikki qismga bo'linadi. 1-qismi Alpomishning yoshligi va uning Barchinni izlab Qalmoq yurtiga borishi, u qo'ygan shartlarni do'sti Qorajon yordamida ado etishi, Barchinni o'z yurtiga qaytarib olib kelish uchun Qalmoq yurtiga borishi, Surxayl kampir qo'lga asir olinishi, yetti yil zindonda yotishi, oti Boychiborning ko'magi bilan Toychixonni o'z yurtiga qaytib kelib, yurtda beboshlik qilayotgan qullarni yengib, ularni o'z yurtiga qaytarib olib kelishi kabi voqealar hikoya qilinadi.

"Alpomish" dostoniga o'quvchilarda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish uchun dostonning badiiy-estetik xususiyati haqida ham alohida to'xtalmoq lozim. Bu o'rinda adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning "Alpomish" haqida yozgan quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Alpomish" dostonidagi biror so'z qizga ishlatilmagan. Zimmasiga badiiy yuk olgan har bir so'z jiddiy bir zalvorga, imoqqa ega. Alpomishning ko'nglidan kechgan o'ylarning quyidagi jo'nginadagi o'ringan tasvir zamiridagi ma'no teranligi shundan dalolat:

Ketgan elga keldim, deydi,

Chilbir cho'lin bildim, deydi.

“Ketgan elga kelish” ifodasi zamiridagi ma’no yuki haqida o’ylash lozim. ~~Jon~~ ham, baxshi ham “ketgan yurtga” demaydi. Chunki yurt joyida, el esa ~~Jon~~ va xudbin yo’lboshchilar sabab chindan-da yurtdan “ketgan”. Alpomish ~~Jon~~ aytilgan birgina: “Shul oraga bir eliboy keldimi?” so’rog’ida sahifa-sahifa ~~Jon~~ ifodalanadigan mazmun aks etgan. Faqat chorva bilan shug’ullanadigan va ~~Jon~~ tuyoqqa ega to’q kishilar “eliboy” ataladi. Bugungi kunda ham bu ~~Jon~~ “o’ziga to’q chorvachi” ma’nosi bor²”.

Oybarchin tush tasviri doston badiiy imkoniyati avj nuqtada namoyon bo’lgan o’rinlardan:

“Xazon bo’lib bog’da gullar so’lganda,
Jon jasaddan bir beqaror bo’lganda,
Ziyon yotib, rahmat toshar bo’lganda,
Rahmat daryo ayni toshib kelganda,
Tush ko’ribman fayzi sahar bo’lganda³”.

Bu tasvirdagi biror so’z shunchaki ishlatilmagan. Unda xalq donoligi, ~~Jon~~ona so’zning estetik imkoniyatlari to’la namoyon bo’lgan. Saharga yaqin “Jon ~~Jon~~adan bir beqaror” bo’lishi shunchaki tashbeh, ifoda emas, haq gap. Sahar ~~Jon~~alik. Jon toza. U Alloh nafasidan yaralgan. Shu bois mabdaga qo’shilgisi, ~~Jon~~ansa nafs manbasi bo’lmish jasaddan yiroq ketgisi keladi. Og’ir kasallarning ~~Jon~~proq tongda uzilishida ham o’ziga xos chuqur mantiq bor. Shayton tongda ~~Jon~~adi. U kun bo’yi uyg’oq odamni chalg’itish, yo’ldan urish bilan halak. Tunda ~~Jon~~sa tinimsiz ishlaydi. Tong uning uchun eng og’ir payt. Chunki tongda iymon bosh ~~Jon~~taradi. Bomdod nomozi tongda quyosh chiqishidan oldin, tun bilan kun orasida ~~Jon~~qilishi bejiz emas. Allohga salavotlar bois “ziyon yotib, rahmat toshar bo’ladi”. Eng ashaddiy odam ham tong oldi yomon niyat qilmasa kerak. Go’zal yuzli, go’zal ~~Jon~~o’zli, go’zal o’zli o’zbek qizi Barchinning ruhi shu bois ayni saharda bezovta bo’ldi.

² Йулдошев, Козокбой. “Алпомиш” талкинлари ёки дoston бадийяти ҳамда миллат маънавияти ҳақида дйрим фикрлар. – Т.: “Маънавият, 2002. – Б. 138.

³ Алпомиш; Рустамхон / [Сўзбоши муаллифи М. Муродов]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 88.

...enda xalq odatlari juda go'zal va o'rinli tasvirlangan. Chunonchi, ...g o'rnidan kalima aytib turganini ko'rib, qalmoqlar: "Oshpichoq, ... Qorajon tentak bo'p qopti", - deyishadi. Doston, ertaklarda odamni ins- ...sridan himoya qiladigan vositalar orasida oshpichoq, qalampir hamisha ...ek uylarining biror joyiga, qalampir ilinishi, norasida go'daklar boshi ...choq qo'yilishi bejiz emas.

O'zbek xalqi o'z yurtini, tug'ilib o'sgan elini hamma narsadan ortiq Shu bois Boysun Qo'ng'iro't elidan jo'nab ketayotgan Boysari Higidagi o'n ming uyli Qo'ng'iro't elining dard-u hasratini kuylar ekan Fozil sh o'g'li shunday alamli misralarni yaratadi:

“Chechanlar eplaydi gapning epini ,
Shul zamonda oltmish norni cho‘ktirib,
Orta berdi Barchin suluv sepini.
Qaba falak boshga soldi zulm deb,
Eliboylar bundan ko‘chib boradi,
Qoldi endi o‘ynab o‘sgan eli deb.
Ayriliq o‘tiga bag‘rini dog‘lab,
Borayotir qalmoq elni so‘roqlab...⁴”

“Alpomish” dostonida real hayot g‘oyatda jozibali berilgan. Undagi obrazlar
ning har biriga alohida badiiy salmoq yuklanadi. Dostonda xalqimiz orasida
vaqt uchrab turadigan, lekin biron-bir hurmat e‘tiborga sazovar bo‘lmagan,
bo‘lsa-bo‘lmasa gapga qo‘shilib ketaveradigan Yortiboy oqsoqol obraziga
alib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Baxshining o‘zi ham uni to‘rdan joy tegmay
kalishlar bilan aralashib yuruvchi tayini yo‘q kishi sifatida tasvirlaydi.
uvchi Barchinning Qalmoq alp-lari qo‘lida talash bo‘lib qolayotganligini
qilib, Boysarining qarindosh urug‘lardan maslahat so‘rashi va ularning
asi ham jo‘yali javob bera olamaganligini, shunda o‘rtaga tushgan Yortiboy

qolning javobini eshitib Boysarining ko'ngli yuz marta pora bo'lganligi
 asini darslikdan ajratib, o'quvchilarga o'qib bermog'i kerak. Bu lavha
 onda real hayotni teran tasvirlaganiga misol bo'la oladi. Aynan shu lavha
 qvchilarning musofirlikda yurgan kishilarning vatanni qanchalik qadrlashini,
 masashini tushuntirishiga badiiy vosita bo'ladi. Dostondan olingan quyidagi
 ahaga e'tibor bering:

"Erta choshgachayin muhlat berib, alplar qaytdi... Endi Boysari semiz
 zni so'yib, o'n ming uyli Qo'ng'iro't elining odamman deganini jiyib,
 asiga to'yib, go'shtini korsonga sop, oldiga opkep qo'yib: "Burungi kunimiz
 razuk ekan, ishimiz sop zo'rg'a tushdi. Ertan kunimiz ham kelsa, nima javob
 iz", - deb, qarindoshlariga qarab, Boysari maslahat so'rab turgan ekan:

Oh tortganda ko'zdan oqar selob yosh,
 Barchinoyim bo'y etgandir qalamqosh.
 Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh,
 Alplar kelsa nima javob beraman,
 Tong otgancha muhlat olib turaman,
 Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!

Bu so'zni eshitib, turgan xaloyiqlardan hech sado chiqmadi. Bir Yortiboy
 qsoqol degani bor edi. Boysariga qarab, Yortiboy bir so'z deb turgan ekan:

Xon Boysari, eshit aytgan so'zimdi,
 Bu ellarga boshlab kelgan o'zingdi.
 Tortinmay beraber endi qizingdi,
 Hazil bilma, mening aytgan so'zimdi.
 Maslahatni senga shunday beramiz...

Bu so'zni Yortiboydan eshitib, Boysarining ko'ngli buzilib, bu ham bir so'z
 deb turgan ekan:

Yuragimda ko'pdir alamli dardlar,
 Mening qizim - sening singling, nomardlar.
 Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan,
 Suyagimni yongan o'tga solasan...

o'z'risidagi dostonidir. Shuning uchun xalq botir Alpomishni o'z xayolida "o'tga
 asasa kuymas, qilich solsa o'tmas, miltiq otgan bilan o'qi botmas" qilib yaratgan.

Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,
 Bor kuchimni bilaginga yig'aman.
 Olmas-olmas qirmizi qon quyaman,
 G'animlarning tanasini uyaman,
 Qarchig'ayman, dushman boshin qiyaman.
 Esim olsa, bo'tadayin bo'zlayman,
 Dushman ko'rsam, kesib bag'rin tuzlayman,
 Aslim Sherman, o'zim yo'lbars izlayman.

Alpomishdagi qahramonlik, mardlik tuyg'usi, o'z ishini, o'z vatanini sevish
 tasi bilan, dushmanlarga g'azab va nafrat tushunchasi bilan to'lgan. Shuning
 uchun Alpomish "Dushman ko'rsam, kesib bag'rin tizlayman" shiorini qayta-qayta
 takror qiladi. Dushmanga qarshi kurash va nafrat "Alpomish" dostonida targ'ib
 qilgan mardlikning asosiy mazmunini tashkil etadi⁷.

Dostonda ona vatanga sadoqat tuyg'usi milliy ruhiyatdan kelib chiqqan
 atarda aks etadi. "Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim.
 "Alpomish" dostoni o'zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy
 asadir⁸. Chunki asarda o'zbekka xos o'ylash tarzi, ta'sirlanish yo'sini, qarorga
 olish tutumi g'oyat nozik ilg'ab olingan. Juda ko'pchilik folklorshunoslar, odatda,
 markazlashgan davlat tuzish, bo'lingan yurtni birlashtirish, sevgi-muhabbat
 mavzulari "Alpomish" dostonining sujet rivojini ta'minlaydi deb tushuntirishadi.
 Shuning nazarimizda esa doston markazida ma'rifatsizlik, johillik va uning inson
 madriga ta'siri turadi. Asarda qissadan hissa chiqarish usuli emas, balki
 qissa"ning o'zi ko'lamli, miqyosli, yirik, ta'sirli bo'lgani uchun aytilgan.
 Qandanda "Alpomish" yaratilmagan, balki aytilgan va kuylangan. Chunki
 qahramonlariga xos tuyg'ular, sezimlar, kechinmalar buyuk turkiylarning

⁷ Хамидjon Ҳамид. Уч томлик танланган асарлар. (Учинчи том. Ҳикоя, очерк, танқид, публицистика). – Т.:

Ўзбекистон давлат бadiiy адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 336.

⁸ Ҳамидов, Қозокбой. "Алпомиш" талқинлари ёки дoston бadiияти ҳамда миллат маънавияти ҳақида фикрлар. – Т.: "Маънавият, 2002. – Б. 28.

amirida, qonida azaldan mavjud edi. Turkiy xalqlar tomonidan kechirilgan, aytilgan, hozirda ham qonda kezib yurgan ma'naviy amallar, hodisalar uning asarlarida, "tili uchida" turgandi. O'sha kuylab yuborildi. Alpomish taqdirini o'zgarish zarur edi. Kuylamaslik ilojisiz edi.

Alpomishning yurtga elga bo'lgan sadoqati va muhabbati, eng avvalo, o'ziga xos bo'lgan yaqin kishilar – ota-ona, qarindosh-urug', tanish-bilishlariga bo'lgan munosabatda ko'zga tashlanadi. Dostonda Alpomish, hattoki, o'zi uchun o'ziga bo'lgan, oilasida qul maqomidagi Qultoyga bo'lgan munosabatga e'tibor beraylik. Alpomish Qultoyni qul o'rnida ko'rmaydi, balki bobo deb biladi. Dostonda bunga ishora ham bor. Qultoy aytar edi: "Bilmaganlar Alpomish Qultoyning uli der edi, bilganlar Qultoy Alpomishning quli", - der edi⁹. Alpomishning munosabati ham Qultoyga ana shunday oqil farzandning mehribon munosabati bo'lgan munosabati sifatida shakllanadi.

Qalmoq elida yetti yil zindonda azob chekib qaytgan Alpomish, o'zini hech kimga, hattoki, yaqin kishilariga ham tanitmaydi. Birgina Qultoyga tanitishni zarur deb biladi va undan maslahat so'raydi. Dostonda Alpomish bilan Qultoy munosabati munosabatlar ta'sirli lavhalarda berilgan.

Qultoyning Alpomishga mehribon va ularning oilasiga sadoqatli, lekin qattiq tabiat, quvnoq, dali-g'uli va biroz hovliqmaroq kishi ekanligi asarda o'ziga xos tasvirlangan. Boybo'rining gapi bilan yosh Alpomishga ot bermay, uni kaltaklab, kerilganda qanchalar samimiy bo'lsa, yetti yillik ayriqliq vaqtida, Sakimbek yo'qligida azoblar ko'rib: "Armon bilan farzandimdan ayrildim", - deb aytilgan yurganda ham shunchalar astoydil. Alpomish unga o'g'il ekanligiga o'zi ham ishonib qolgan deyish mumkin. Qultoy na ishda va na so'zda me'yoriyatini biladi. Alpomishni dastlabki safardan qaytarib, ayamay kaltaklaganda qanchalar me'yorni bilmagan bo'lsa, uzoq ayriliqdan so'ng tutingan o'g'li bilan uchrashganda ham shunchalar me'yorga amal qilmaydi:

"Alpomish aytdi: - Men kimga o'xshayman,

– Sen bir go‘rga o‘xshaysan, sening o‘xshaganing bilan qachon ishim bor
 mening, senday necha odamlar Alpomish kelayotir, suyunchi ber, deb necha
 sarkalarimni aldab yeb ketgan. Alpomish deb borsak, Qultoy ahmoq bo‘p bizga bir
 nima beradi, aldab bir sarkasini olamiz, deb kepsan, – dedi¹⁰”.

Uning Alpomish tomonidan berilgan: “Hayr, bobo, meni tanimadingiz.
 Alpomishning nima belgisi bor edi?” – degan so‘rog‘iga qilgan javobida me‘yor
 talvulgilaridan-da battarroq buziladi:

Qultoy aytdi: – “Alpomishning belgisi shul edi, o‘ng egnida Shohimardon
 panining besh panjasining dog‘i bor edi, chap egnida o‘zimning besh panjamning
 belgisi bor edi¹¹”.

Alpomish bilan Qultoy o‘rtasidagi bu samimiylik sof o‘zbekona turmush
 tarzining mahsulidir. Chunki qadimdan o‘zbeklarda eng avvalo, yosh e‘tiborga
 ega bo‘lgan va hamma vaqt keksalarga hurmat va muruvvat yetakchilik qilgan.
 O‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarga bu samimiy munosabatning ildizi sof
 o‘zbekona ekanligini tushuntirib, kim va qanday mansab-mavqega egaligidan
 qat’iy nazar kattalarga hurmatda bo‘lish o‘zbekona odatlardan ekanligini
 ta’kidlaydi. Va shu o‘rinda bunday munosabat boshqa asarlarda ham uchrab
 qolganini alohida qayd etib, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabek
 va Hasanali o‘rtasidagi munosabatga ishora qilmog‘i lozim.

“Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanalidan
 so‘radi:

- Tuzukmisiz, ota?
- Xudoyga shukur, – dedi Hasanali, boyag‘idan biroz yenggilladim.

Mazmuni is tekkan ekan.

- Ba’zi yumushlar buyursam...
- Buyuringiz, o‘g‘lim.
- Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.
- Xo‘b, begim.

¹⁰ Alpomish; Rустамхон / [Сўзбоши муаллифи М. Муродов]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 292.
¹¹ Китеб. Б. 292.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otobek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashgandan keyin so'radi:

- Bu kishi kimingiz bo'ladi, bek aka?

Otobek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini yurtdan uzoqlatib so'ngra javob berdi:

- Qulimiz.

Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

- Qulingiz?

- Shundog'¹².

Otobekdagi bu istihola ham, o'z qulini qul emas, ota deb bilishi ham sof bekorona tuyg'uga yo'g'rilgan. Alpomish ham Otobek ham ana shunday yuksak insoniy fazilatlar egasi bo'lganligi bilan qadrlidir.

Dostonda darhaqiqat, Qultoy uzoq bandilikdan yurtiga kelib, adolat o'rnatish maqsadida bo'lgan Alpomishga eng yaqin ko'makchi bo'ladi. Bu yo'lda jonini qat'iy garovga qo'yadi: "Bobo, siz men bo'lib boring, men siz bo'lib borayin, kim bo'lsa kim dushman o'z ko'zim bilan ko'rayin birovning chorig'iga birov to'yib, birov ketmasin, - dedi. Qultoy aytdi: - Shuytsang, shuyt, o'g'lim, sening kelgan xushligingga qullarning to'yiga borib, bir ko'pkari chopib qolayin¹³". Bu orqida dali-g'uli Qultoyning sadoqat va vafoda naqadar jiddiy ekanligi namoyon bo'ladi.

Dostonda uzoq yurtdan Boysin-Qo'ng'iro't elini sog'inib kelayotgan Alpomishning o'z yaqinlari bilan ko'rishuvi g'oyatda jozibali tasvirlangan. Birinchi sog'ingan, uzoq yillar tortgan azoblari bir zumda unut bo'lgan kishilarning xotirasi o'ziga xos go'zal ifodaga ega. Otaning ko'rishish yo'sini onanikidan, qizining singilnikidan, ularniki yornikidan boshqacharoq ekanligi juda nazokat bilan tasvir etilgan:

Vo bolam, quloch yozib keladi

Shu zamonda Boybo'riday otasi.

¹² Qodiriy A. O'tkan kunlar / Roman. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2012. - B. 7-8.

¹³ Alpomish; Rustamxon / [Suzbohi muallifi M. Murodov]. - T.: Adabiyot va san'at nashriyati, 1985. - B. 293.

Bolam, deydi quloch yozib keladi
 Shu vaqtida oq sut bergan enasi.
 To'ram, deydi quloch yozib keladi
 Bunda qolgan bekning Barchinday yori.
 Aka, deydi quloch yozib keladi
 Tuya boqqan Qaldirg'och emikdoshi¹⁴.

Qorajon bilan Alpomish ko'rishishlari o'ta nozik diplomatik uchrashuvlarni
 di. Do'stlik – o'zbek uchun juda nozik, ehtiyotlik hamda e'tibor talab
 tushuncha. Shuning uchun ham Alpomish o'zini juda ko'p narsalardan
 Qorajonga alohida mehr bilan avaylab yondashadi:

O'zin yurtindan ayrilgan,
 Islomning diniga kirgan,
 O'z-o'zidan yuz o'g'irgan,
 Alpomishman Qo'ng'iro't kelgan,
 Oxir kuni shunday bo'lgan,
 Keldi, deydi Alpomishxon,
 Borayotgan Qorajon polvon¹⁵.

Alpomishning tog'dan chaqirib kelgan Qorajonga munosabati, uning har bir
 ga e'tibor bilan qarashi e'zozning, iltifotning timsoli deyish mumkin:

...Peshvoz chiqib shunday shunqor qaradi,
 Kelayotgan Qorajonni ko'radi,
 Qorajon otidan yerga qo'nadi.
 Ikki alp bir-birin shunday ko'radi,
 Bir-biriga quloch yoyib jo'nadi¹⁶.

Alpomishning o'z yaqinlari bilan ko'rishishlari jarayonidagi holati batafsil
 amagan, bunday o'rinlarda e'tibor ko'proq ko'rishayotgan ikkinchi
 tasvirlashga qaratilayotgan edi. Qorajon bilan ko'rishish jarayonida esa

Рустамхон / [Сўзбоши муаллифи М. Муродов]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 338.

Б. 342.

Б. 342.

har ikki qahramon tasvir fokusiga birday olingan. Dostondagi bu misralar Alpomishning yaqinlariga bo'lgan mehr-muhabbatidan dalolat beradi.

Alpomish chorvador elatda yashab ulg'ayganligi uchun tabiatan bosiq, og'ir harvon, lekin kuch-qudratda tengsiz. Shu sababli ham shoir bu obrazni yaratar ekan, ota-onasiga, yaqinlariga, ona yurtiga bo'lgan mehr-muhabbati ham shunchalik yuksak ekanligini ko'rsatadi. Alpomish Barchinning to'rt shartini bajarishda, avvalo, yaqinlarining qolaversa, pirlari va chiltonlarning yordamiga, amoyasiga tayanadi. Poygada Qorajon do'stining ko'magi bilan g'olib bo'lgan bo'lsa, yoy tortishda va ming qadamdan tanga pulini urishda mutloq g'olib chiqadi, lekin Ko'kaldosh bilan kurashda kuchlar teng keladi. Shunda Barchinning Alpomishni qo'llab-quvvatlashi, ruhiy dalda berib aytgan achchiq so'zlari ham badiiy go'zalligi bilan o'quvchini o'ziga maftun etadi:

“O'n ming uyli qo'ng'irotning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Hakimbekka qarab bir so'z deb turgan ekan:

Qizlar sizni narmoda deb aytadi,

Qizlarning aytgani menga botadi.

Mardlar olishmaydi siltab otadi,

Yor so'ziman sherdil bo'lib ketadi,

Chirpab Ko'kaldoshni ko'kka otadi,

Ancha yer havoga chiqib ketadi.

Alp Ko'kaldosh bul osmondan keladi,

Kallasiman kelib yerga uradi,

Shunday qilib Ko'kaldosh ham o'ladi¹⁷”.

Yozuvchimiz Qozoqboy Yo'ldoshev dostonning yana bir fazilati haqida qisqinli fikrlar bildirgan. “Dostonning yana bir fazilati inson ruhiyatining go'zal badiiy lavhalarda aks etganligidir. Oybachinning poygadan qaytayotgan Boychiborga qilgan nolasi va Boychiborning shundan keyin poygada g'olib chiqishi dostonida shunday aks ettirilgan.

¹⁷ Yo'ldoshev Qozoqboy, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshibekov. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 3-nashri. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2014. – B. 42.

“Qurru-yo qur, hayt-a, to‘ramning oti,
 Oq to‘shim – yayloving, sochim – shibirtki.
 ...Egam rahm aylasin qonli yoshima,
 Sabab bo‘lib qo‘shgin dengi-do‘shima,
 Olmosday tuyog‘ing qorday tushima.
 Qurru-yo qur, hayt-a, to‘ramning oti!
 ...Qur – hayt degan Barchinoyning dovushi
 Boychiborning qulog‘iga boradi.
 Suvliq tishlab o‘zin otdi Boychibor,
 Kalta qantarib tashlagandi qalmoqlar,
 Tizgini uzilib ketdi muqarrar.”

Qalmoqning ne bir bahodirlarini yaqiniga ham yo‘latmagan, nafaqat qo‘li, tili bilan ham daxl qilishiga yo‘l qo‘ymagan go‘zalning: “Oq to‘shim – yayloving, sochim – shibirtki” tarzidagi iltijosi nazarkarda otni jondan kechib o‘tgan-da, g‘alabaga chorlaydi. Qalmoqlar uchun bu poygada yutib chiqish hayot-ot masalasi emas. Alpomish hamda Barchin uchun esa ozodlik, nomus va abbat muammosidir¹⁸”.

Dostonda insonning insoniyligi uning kelib chiqishiga, olgan tarbiyasiga, xarakteriga bog‘liqligi juda qiziqarli lavhalarda aks etadi. Dostonga kiritilgan Ultontoz obrazi timsolida Qultoy bilan uning orasidagi farq kuchli dramatizimda namoyon beriladi. Qultoy ham Ultontoz ham qul, biroq Alpomish Qultoyga “hokim qullardan, ya‘ni qullardan chiqibdi”, deb kinoya qilganda Ultontozning unga nisbatan vaqt el bo‘lmasligini ta‘kidlab o‘tadi. Alpomish ham Ultontozning vaqt o‘tishini qiyofasini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi.

Asarda xo‘jaga aylangan qullar tabiati juda nozik qochirim vositasida tasvirlangan. Ayni vaqtda, ularning o‘z ishlarining omilkorlari ekanligi ham tasvirlanib singdirib yuboriladi:

Bizlar ko‘rdik, osha yurtda kelasan,

18. Додонов, Қозоқбой. “Алпомыш” талқинлари ёки дoston бадийяти ҳамда миллат маънавияти ҳақида фикрлар. – Т.: “Маънавият, 2002. – Б. 61-62.

Bir ishning boshida sen ham yurasan,
 Oting terli, uzoq yo'ldan kelasan.
 So'z aytasan bunda yotgan botirga,
 Qimiz ichsang, tushgin ana chotirga.
 Yo'lovchi bilmaysan xo'p so'ylar so'zni,
 Uncha-muncha deb aytmagin sen bizni,
 Kerak bo'lsa, tushib ichgin qimizni.
 Seni bildik, bundan charchab kelasn,
 Qorningning o'lchovin o'zing bilasan.
 Bilmaymiz biz kelayotgan yurtिंगni,
 So'rab halak bo'p yurmaymiz otingni.
 Bu so'zlarni aytdi shunqorga qullar,
 Alpomish moliga bari xizmatkor¹⁹.

Bir umr ot bilan ish ko'rgan odamlar sifatida ular botirning uzoq yo'ldan kelayotganligini bir ko'rishdanoq payqashadi. Buni ularning: "Oting terli, uzoq yo'ldan kelasan", - degan ta'kidlari aytib turibdi. Ular o'zlarini "uncha-muncha" hisoblashmaydi, balki "botir" sanashadi. Ular birovga xizmat qilmoqchi emas: "Kerak bo'lsa, tushib ichgin qimizni". Bunga "mantiqiy asos"lari ham bor: "Qorningning o'lchovin o'zing bilasan". Yuqoridagi she'riy parchada qulning etimologiyasiga xos chiranchoqlik, befarqlik, loqaydlik juda chuqur ifodasini topgan. Qul o'zining kimligini bilmagani kabi o'zganing asli tagi bilan ham tan olmaydi: "Bilmaymiz biz kelayotgan yurtिंगni, So'rab halak bo'p yurmaymiz otingni". Shaxssizlik, qiyofasizlik qullarning qiyofasini belgilaydigan jihat.

Xullas, "Alpomish" dostoni yurt sog'inchini o'zida mujassamlashtirgan, ona yurtga muhabbat, do'stga va yorga sadoqat kabi tuyg'ularni go'zal badiiy shakllarda ifodalay olgan xalqimizning sevimli dostonidir. Dostonni sinchiklab o'qigan o'quvchi unda ona Vatan, do'st-u yorga bo'lgan mehr va sadoqat naqadar chuqur aks etganligini his etadi.

¹⁹ Alpomish; Rустамхон / [Сузбоши муаллифи М. Муродов]. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. - Б. 20-21.

1.3. "Alpomish" dostonining yaratilish tarixi

"Alpomish" dostonini sinfda o'rganish o'qituvchidan katta bilim, amiz, uning tarixi, ayniqsa, bu adabiyotning sarchashmasi bo'lmish xalq iodi haqida to'liq nazariy ma'lumot va tasavvurga ega bo'lishni talab "Alpomish" ming yillik tarixga ega asar. Dastur talabiga ko'ra dostonni 5 soat ajratilgan. Dostonning yaratilish tarixiga bag'ishlangan birinchi qadagcha uyushtirish mumkin.

Mavzu: "Alpomish" dostonining yaratilish tarixi

Darsning maqsadi:

- a) *ta'limiy maqsad* – dostonning yaratilish tarixi va uning boshqa janrlardan beigilari haqida bilim berish;
- b) *tarbiyaviy maqsad* – insoniy fazilatlar va ajdodlar ruhiga hurmat ularini singdirish;
- d) *rivojlantiruvchi maqsad* – o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, o'z erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

Asosiy tushuncha va atamalar: Xalq og'zaki ijodi, xalq dostonlari, doston, shi, "Manas", "Mahabharata", "Ramayana", "Alpomish", "Alpomis", "Alpamis", "Alip-Manash", "Alpashsha", "Alpamish va Barsin hiluu", Fozil Yo'ldosh li, Saidmurod Panoh o'g'li, Berdi baxshi va boshqalar.

O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi:

Metod: "Muloqat", "Fikriy hujum", BBB, Test.

Shakl: Guruhlarda ishlash.

Usul: Suhbat, savol-javob.

Vosita: Adabiyot darsligi, kitoblar, rasmlar, test savollar, tarqatma materiallar, elektron darslik (kompyuter videoproyektor, fleshka), jadval, xarita, bat kartochkalari.

Darsning rejas:

1. Tashkiliy qism (4 daqiqa)
2. Uy vazifasining nazorati (3 daqiqa)
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash (4 daqiqa)

4. Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa)
5. Mustahkamlash (9 daqiqa)
6. Darslik bilan ishlash (6 daqiqa)
7. O'quvchilar bilimini baholash (2 daqiqa)
8. Yakuniy fikrni aytib, uyga vazifa berish (2 daqiqa)

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan salomlashish, navbatchini tinglash, hafta davomida berayotgan respublikamiz va dunyo xabarlarini o'quvchilar bilan bahslashish. Bunda "Muloqot" texnologiyasiga²⁰ asoslanish mumkin. Buning uchun sinf o'quvchilarini uch guruhga ajratib, ularga quyidagicha savollarni berib baholat uyushtiriladi.

1. Respublikamiz va yer kurrasida bugun qanday voqealar yuz bermoqda?

2. Buyuk ajdodlarimizning hayotlariga oid qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilasiz?

3. Siz ularga munosib bo'lishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak?

2. Uy vazifasining nazorati.

Guruhlar o'tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan "*Ruhiy kamolot vositasi*" mavzusi haqida ma'lumot beradilar.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga avvaldan tayyorlab tayyorlangan test materiallarini beramiz. Bunda o'quvchilar yakka tartibda ishlaydilar. "Testlar" metodi yuqori samara beradigan metodlardan biridir. Bu usul bir xillikka ega bo'lgan shaxs intellektual salohiyatini yoki uning muayyan bir sohasi (yo'nalishi)ni tekzorlik bilan sinashga yordam beradi. Testlar metodining afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;

²⁰ Abduraimova M. va boshq. Ona tili. 6-sinf: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, O'zR xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi. – T.: "Sharq", 2012. – B. 63.

- nazariy va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

- ko'p sonli talabalar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borishi mumkin;
- bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;
- barcha o'quvchilarga bir xil qiyinlikdagi savollar berib, bir xil sinov o'tkaziladi²¹”.

Test.

1. “Tong o‘rniga qayg‘ular otar Kimni?” ushbu she‘riy qator muallifini aniqlating.

- a) Mirtemir
- b) Usmon Nosir
- c) Faxriyor
- d) To‘ra Sulaymon

2. Qadimgi rivoyatlarda birinchi she‘r kim tomonidan aytilgan deyiladi?

- a) Momo Havo tomonidan
- b) Odami Ota tomonidan
- c) Muso tomonidan
- d) Ibrohim tomonidan

3. Badiiy adabiyot san‘atning boshqa turlaridan nimasi bilan ajralib turadi?

- a) kengligi va aralash (sinkretik)ligi bilan
- b) ta’sirchanligi va go‘zalligi bilan
- c) uzoq o‘tmishga borib taqalishi va kengligi bilan
- d) moddiy emasligi va ta’sirchanligi bilan

4. Badiiy asarlar nimasiga ko‘ra lirik, epik, dramatik turlarga ajratiladi?

- a) janrlarning o‘zaro bo‘linishiga qarab
- b) qanday maqsadda yaratilishi va nimani ifodalashiga ko‘ra
- c) fikrni qanday bayon etishi va ifodalashiga ko‘ra
- d) sahnaga mo‘ljallanganligiga qarab

5. Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli?

a) epik asarlar

b) lirika

c) folklor

d) drama

Mazkur darsda e'tiborni ko'proq yangi mavzuni o'rganishga qaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Yangi mavzu bayoni:

Mavzuni "Fikriy hujum"²² metodini qo'llash bilan boshlaymiz.

"Fikriy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir.

Savol

Xalq og'zaki ijodi janrlari, xususan, xalq dostonlari haqida ma'lumotlar bazasini yarating.

O'quvchilar quyi sinflarda olgan bilim va malakalariga tayangan holda, xalq og'zaki ijodi va xalq dostonlari xususidagi fikrlarini bildiradilar. So'ng o'quvchilar "Alpomish" dostoni haqida nimalarni bilishini va yana nimalarni bilishni xohlashi haqidagi fikrlarini ushbu varaqlardagi 1-, 2-kataklarga yozadi. 3-bilib oldim ushuni yangi mavzuni tushunib olganidan so'ng to'ldiradi. "BBB" metodi²³.

²² Саидов У. Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари (Ўқув қўлланма). – "Фан" нашриёти, 2006. – Б. 150.
²³ Саидов У. Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари (Ўқув қўлланма). – "Фан" нашриёти, 2006. – Б. 170.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

O'quvchilar yozib tugatgunlariga qadar 2 daqiqali doston ijrosi yangrab beradi. (notebook orqali baxshilarimiz tomonidan kuylangan "Alpomish" dostoni kuylanadi)

Guruhlardan topshiriqning qanday bajarganligi og'zaki so'raladi. Bilaman bilishni xohlayman sahifasida yozganlarini o'qib beradilar. O'qituvchi shunga ko'ra tab slaydlar namoyishini o'tkazadi. Slaydlar o'quvchilarning bevosita ishtiroki bilan namoyish etiladi. Slaydlar namoyishi orqali o'qituvchi ma'ruzasi tinglanadi. Qo'shova.



O'qituvchi: Xalq og'zaki asarlari orasida shundaylari ham borki, ular ifodalanishi, tuzilishi jihatidan juda sodda, e'taklar kabi o'ziga tortadigan, sehrli, qisqaroq hajmi jihatidan katta, mazmun ko'lamiga ko'ra inson hayotining ko'plab tomonlarini qamrab olgan, ifodalanish usuli va ijrosi ham o'ziga xos bo'lib, u xalq dostoni deyiladi. Xalq dostonlari ma'lum xalq shoiri tomonidan yaratilib, boshqa ijodkorlar tomonidan sayqal berilib avloddan-avlodga, nasldan-nasl o'tib keladi. Natijada, uning yaratuvchisi unutilib, xalq mulkiga, xalq ijodiga aylanib ketadi.

uning uchun ham xalq ogʻzaki ijodidagi dostonlar jamoaning ijod mahsuli deb ataladi.

Har bir xalqning tarixiy oʻtmishini, milliy taraqqiyot yoʻlini, turmush tarzini aks ettiradigan dostonlar boʻladi. Oʻzbek xalqida “Alpomish”, “Qorogʻli”, “Rustamxon” va boshqalar. Qirgʻiz xalqining “Manas”, qoraqalpoq xalqining “Qirqqiz”, hind xalqining “Mahabharata”, “Ramayana” dostonlari ana shunday dunyoga mashhur dostonlardir. “Xalq dostonlarini doʻmbira yordamida kuylash, kuyllovchi sanʼatkor oʻzbeklarda “shoir” yoki “baxshi” deb atalgan. Mazmda dostonlar tor joʻrligida aytiladi va bu xil aytuvchilar “xalfa” deb ataladi²⁴”.

“Alpomish” dostoni xalqaro arenalarda jahonning koʻplab tillariga tarjima qilingan. Bundan tashqari deyarli barcha turkiy xalqlarda uning turli versiyalari mavjud (masalan, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston shaklida, tatar va boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida bizga yetib kelgan). *Quyidagi maʼlumotlar dunyo xaritasidan foydalangan holda aytiladi. 2-ilova.* “Bu dostonni oʻzbeklar “Alpomish”, qoraqalpoqlar “Alpomis”, qozoqlar “Alpamis batir”, tatarliklar “Alip-Manash”, qozon tatarlari “Alpashsha”, boshqirdlar “Alpamish va boshqir hiluu” deb nomlaganlar. Oʻzbek dostonchiligi taʼsirida uning tojikcha variantlari ham yuzaga kelgan²⁵”.

«Alpomish» xalqimiz ogʻzaki ijodidagi eng qadimiy, badiiy jihatdan mukammal, olimlar tomonidan koʻp oʻrganilgan dostonidir. Unda oʻzbekning uzoq oʻtmishi, rasm-rusumlari, hayot tajribasidan oʻtgan anʼanalari, kurashlari, qurushlari, quvonchlar oʻzining badiiy ifodasini topgan. Baxshilar mahorati bu dostonni ijro etish darajasi bilan oʻlchangan. Ustoz dostonchilar oʻz sanʼatlarini koʻpincha «Alpomish»ni kuylash bilan koʻrsatganlar, hurmat topganlar. Muhimi shundaki, oʻzbek millatining hayoti bir tekis ravnaq topgan paytda «Alpomish» dostonini kuylashga eʼtibor katta boʻlgan. Xalqimiz hayotidagi ogʻir zamonlar

²⁴ Yoʻldoshev Qozogʻboy, Qodirov Valijon, Yoʻldoshibekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinf uchun darslik-najmua. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 155.

²⁵ Karimov N., Nazarov B., Normatov U. va boshqalar. Adabiyot: 9-sinf: Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma. – T.: “Maʼnaviyat”, 2002. – B. 10.

ham surgan paytda bu dostonning ham boshida qora bulutlar quyuqlashgan. Shu bilan birga, mustabid sovet tuzumidagi qatag'on yillarida «Alpomish»ni kuylash ham taqiqlangan, «xalqqa zarar keltiruvchi asar» — deb qoralangan (1952)²⁶. Ma'lum bo'ladiki, «Alpomish» taqdiri asrlar davomida o'zbek xalqi tarixi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham dostonning ming yillik to'yida Prezidentimiz I. A. Karimov:



«Alpomish» dostoni
bizga insonparvarlik
fazilatlaridan saboq beradi.
Odil va haqqo'y bo'lishga, o'z
yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini
qo'riqlashga, do'st-u yorimizni,
or-nomusimizni, ota-
bobolarimizning
muqaddas mozorlarini har
qanday tajovuzdan himoya
qilishga o'rgatadi.

27

degan edi. Bu fikrda dostonning mohiyati, g'oyasi, badiiyati, millatimiz tarixida o'z o'rnini mujassam etilgan.

«XX asrning 70-yillarigacha «Alpomish» dostoni haqida bildirilgan mulohazalarning ko'pchiligi Mahmud Zarifov buyuk san'atkor Fozil Yo'ldosh o'g'lidan 1928-yilda yozib olgan nusxa asosida Hamid Olimjon qisqartirib nashrga tayyorlagan kitobga tegishli edi. Faqat 1969-yilda Berdi baxshidan Abdulla Alaviy va 1972-yilda Saidmurod Panoh o'g'lidan Shamsi Murodov yozib olgan nusxalar nashr etilgandi. O'zbekiston mustaqil bo'lganidan so'ng «Alpomish»ga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Avvalo, Berdi baxshi aytgan doston qayta nashr etildi. 1998-yilda Xushboq Mardonaqul o'g'li (yozib oluvchi Toshtemir Turdiyev), 1999-yilda Bekmurod Jo'raboy o'g'li (yozib oluvchi Mansur Afzalov) nusxalari alohida

²⁶ Madayev Omonilla, Sobitova Tojixon. Xalq og'zaki poetik ijodi: Akad.litseylar uchun darslik. — T.: «Sharq», 2010. — B. 118.

²⁷ Prezident Islom Karimovning «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1999-yil, 9-noyabr.


etildi. 1998-yilda esa Fozil Yoʻldosh varianti 70 yildan keyin toʻliq holda nashrdan chiqdi. 1999-yilda esa dostonning ming yillik toʻyi katta tantanalar bilan qayd etilganligi, bu tadbir oʻzbek xalqining ajdodlar yodini ham asta-sekin oʻmiga qaytib esga ola boshlaganidan nishona boʻldi²⁸”.

5. Mustahkamlash.

Oʻqituvchi mavzuga oid umumiy maʼlumotlar bilan oʻquvchilarni xabardor qilgandan soʻng, ular oʻzlashtirgan yangi tushunchalarni jadvalning 3-qismiga qaytib qoʻyadilar.

6. Darslik bilan ishlash.

Bunda oʻqituvchi savollar yozilgan tarqatma materiallarni sinfdagi oʻzlashtirishi past boʻlgan oʻquvchilarga beradi. Ular darslikdan javob izlaydilar. Oʻquvchilarning javoblari, avvalo, boshqa oʻquvchilar soʻng oʻqituvchi tomonidan qayd qilinadi.



²⁸ Madayev Omonilla, Sobitova Tojixon. Xalq egʻzaki poetik ijodi: Akad.litseylar uchun darslik. — T.: "Sharq", 2010. — B. 119.

5. "Alpomish" dostoni bizza insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqiqiy bo'lishga, o'z yurtimizni oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, o'zlar yonidagi insoniyatimizni, ota-bobalarimizning muqaddas moyollarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi. Bu fikrlar kimga tegishli?

J: O'z LA karmov. "Alpomish" dostonining 1000 yilligi munosabati bilan o'zlashtirilgan.

6. "Alpomish"da Hakimbekning yonida o'zining insofsiz yaqinlari hamda qarindoshlariga qarshi kurashgan persanaj? J: Qoraion

7. "Alpomish"da insoniy fazilatlarini bilan ko'pchilik erkaklardan baland tura oladigan timsollar?

J: Oybarchin va Qaldirg'och

7. O'quvchilar bilimini baholash.

O'quvchilarning faolligi, uy vazifalarini to'g'ri va aniq bajarishi dars davomida ishtiroki, berilgan savollarga javoblari inobatga olinib, baholanadi.

8. Yakuniy fikrni aytib, uyga vazifa berish.

Uyga vazifa 7-sahifani o'qib o'rganish va doston matni bilan tanishib kelish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishimizning I bobi yuzasidan quyidagicha masalalar chiqardik:

- xalq dostonchiligi o'zbek xalq og'zaki ijodida ahamiyatli, keng qamrovli, mazmunan va hajman yirikligi bilan o'ziga xoslikka egadir. "Alpomish" "Salung'ur" dostonchilik maktabining faxr-u iftixori bo'lgan doston hisoblanib, yodlash va dostonchilik yig'inlarida kuylash uchun baxshi-shoirdan dostondagi

qismlarni o'rganish va she'riy qismlarni yod olish bilan birgalikda maromiga erishib ijro etish talab qilingan;

- o'zbek xalq dostonlari orasida "Alpomish" xalqimizning ko'pgina xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu xususiyatlarni o'qituvchi yaxshi bilishi va mavzuni o'qitish jarayonida o'quvchilar e'tiboriga singdira olishi kerak.

- "Alpomish" dostonida o'zbek xalqining bir qator milliy xususiyatlari: yerga muhabbat, do'st va yorga sadoqat, jo'mardlik va halollik kabilar tarannum etiladi, dostonni o'quvchilarga o'rgatayotgan o'qituvchi mavzuning mana shu xususiyatlarigi alohida e'tibor berishi, jumladan, o'zbeklarda keksalar, hatto, ular bo'lsa ham, doimo ardoqlanganligini misollar orqali tushuntirib, bunga misol sifatida "O'tkan kunlar" romanidagi Hasanali va Otabek o'rtasidagi suhbatni misol qilib, doston bilan qiyoslashi mumkin.

- Dostonda inson ruhiyatining go'zal badiiy lavhalarda aks etishini Alpomish bilan Barchin orasidagi munosabatda, ularning so'zlashuvida, Alpomish va Qorajon o'rtasidagi qiyomatli do'stlikni tasvirida, Alpomishning qalmoq elidagi yillik asirlikdan qaytib, o'z yurtiga kelgandan so'ng o'zini aynan Qultoyga o'qitishi kabi lavhalarda ko'rish mumkin. Ushbu lavhalarda vatanparvarlik, yor va do'stga sadoqat, vafo kabi tuyg'ular tarannum etiladiki, bu mavzuni o'tishda o'qituvchi aynan shu lavhalarga alohida e'tibor berishi orqali yosh avlod qalbiga milliy tuyg'ularni joylashi mumkin bo'ladi.

II. BOB. “Kuntug‘mish” dostonini o‘rganishda innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalanish

“Kuntug‘mish” dostoni o‘zbek xalqining milliy ma‘naviyatini o‘zida mujassamlashtirgan epik durdonadir. Bu doston yosh avlodni ma‘naviy komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu sababli biz dissertatsiyamizga asosiy manba sifatida 8-sinfda “Kuntug‘mish” dostonini yanada sifatli va samarali o‘qitilishini ta‘minlash uchun, yangi innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, dars o‘tishga uslubiy tavsiyalar berishga harakat qildik. Davlat bilim standartlari va o‘quv dasturiga binoan 8-sinfda “Kuntug‘mish” dostonini o‘rganishga to‘rt soat vaqt ajratilgan. Albatta, bu qisqa muddat ichida dostonning butun ko‘rinishini to‘liq qamrab olishning imkoni yo‘q. Shuning uchun o‘quvchilarning ma‘naviyatini oshirishga, adabiyotning boshlanishi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi va dostonlari haqida imkon qadar to‘laroq bilim berishga xizmat qiladigan uslubiy tavsiyalarni umumlashtirib, bu bobni uch faslga ajratdik.

2.1. “Kuntug‘mish” dostonining didaktik ahamiyati

“Kuntug‘mish” dostoni o‘zbek xalq dostonlarining ishqiy-qahramonlik turiga mansub. Ishqiy-qahramonlik dostonlarida sevgi-muhabbat yetakchi o‘rin tutsa ham, lekin qahramonlarning ana shu sevgi yo‘lidagi sarguzashtlarda ko‘rsatgan botirliklari, qahramonliklari alohida ta’kidlanadi. Doston qahramoni Kuntug‘mish Azbarxo‘janing talabi va iltimosi bilan ajdarni o‘ldiradi. Bu o‘rinda o‘quvchilarga Kuntug‘mishning botirligi faqat bir kishining talabi va iltimosi bilan emas, balki ajdarning balosidan atrofdagi yashayotgan odamlarni muqarrar va dahshatli o‘limdan saqlab qolganligi, ya’ni xalqni himoya qilganligi va bu yo‘lda botirlik, jasorat ko‘rsatganligini alohida tushuntirish lozim. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar qalbida xalqqa mehr-muhabbatni quruq so‘zda emas, amalda namoyish qilish qahramonlik belgisi ekanligini aytib o‘tish kerak.

Ishqiy-qahramonlik dostonlarining yana bir belgisi doston qahramonining g‘alabsiz kuch-qudratga ega ekanligini ko‘rsatishdir. Xalq o‘zining idealidagi qahramonni mana shunday kuch-qudratda tengsiz ko‘rishni xohlaydi. Azbarxo‘ja

Kuntug'mishni mast qilib, o'nlab kigizlarga o'rab ustidan tosh bostirib ketganda u yorgan joyida toshlarni uloqtirib tashlashga, bandilikdan ozod bo'lishga erishadi. Es ham doston qahramonining jismoniy kuch-qudratda tengsizligidan dalolat beradi.

"Kuntug'mish" dostonining mukammal varianti Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan. Aslida dostonning yozib olingan va ijro etilgan variantlari juda ko'p. "Kuntug'mish" dostoni o'zbek xalq dostonlari orasida g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Uning xilma-xil ko'rinishdagi variantlari ko'pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste'dodiga ushbu dostonni qanday aytishlariga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilar "Kuntug'mish" dostonini to'la o'zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Egamberdi Ollamurod kabi baxshilardan yozib olingan variantlari mavjud. Maktab darsligiga esa Ergash shoir varianti olingan. Bu bejizga emas, chunki Ergash shoir varianti g'oyaviy va badiiy tarkamolligi, chuqur didaktik ahamiyatga molikligi bilan alohida diqqatga sazovar.

"Kuntug'mish" dostoni ishqiyl-qahramonlik dostonlari turiga kirsa ham unda xalqimizning tarbiya bilan bog'liq an'anaviy ko'rinishlari turli epik asarlarda yorqin aks etgan. O'qituvchi dostonning g'oyaviy xususiyati haqida tushuntirish berar ekan, undagi xalq pedagogikasining o'ziga xos milliy qiyofasi aks etganligiga to'xtalib o'tmog'i lozim. E'tibor bering, dostonda Kuntug'mish o'n to'rt yoshigacha xat savod o'rganish, odamlar bilan munosabatda hurmat va e'tibor o'rmonish yo'llari yuzasidan tarbiya oladi. O'n to'rt yoshdan keyin, sipohilik shlariga e'tibor qaratib, jang-jadal ilmidan saboq olishga kirishadi. Demak, xalqimiz o'n to'rt yoshni o'smirlik davri deb belgilagan va bola tarbiyasida ikkinchi bosqichga o'tishni zarur deb bilgan. Kuntug'mish ham ana shu yo'llarni bosib o'tgandan keyingina ilohiy qudrat bilan tushida Xolbekani topadi. Bu hol xalqning nazarida ayni o'smirlikdan keyin insonda sevgi-muhabbat his-tuyg'ulari paydo bo'lishini anglatanligidan dalolat beradi.

Dostonda bu hol shunday ko'rsatiladi: "No'g'ay podsholaridan Avliyoyi Qoraxon degan bor ekan, laqablari Qilichxon ekan, shu vaqtning odamlari Avliyo

... deydi. Shul azizning bir yolg'iz o'g'li bor edi, undan boshqa bolasi yo'q edi. O'ni Kuntug'mish to'ra der edi. O'n to'rtga kirguncha ilm-u hunar, kasb-kamolot o'sib qilib, o'n to'rtidan o'tgandan keyin, sipohilik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko'pkaritozlik, nayzadastalik, garovbastalik ishlariga ko'shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh toqqa, goh ovga shikor qilib yurardi²⁹.

"Kuntug'mish" dostonida sevgi-muhabbat mavzusiga keng o'rin berilgan. Bu hol real hayotdan uzilib qolmasdangina xalqimizning asrlar davomida sinovdan o'tib kelgan, shakllangan urf-odatlariga asoslanadi. Bu urf-odatlar esa tabiiy muhitda o'quvchi uchun didaktik ahamiyatga molikdir. O'quvchining diqqatini bu o'rinda dostonidagi Xolbeking tug'ilishi va Xolmo'minga unashtirilishi, bu taqdir taqozasi bilan ularning shirxo'ra, ya'ni xalq tili bilan aytganda, makdosh bo'lib qolishi sababli ular o'rtasida nikoh bo'lmasligi g'oyatda go'zal muhalalarda berilganligini ko'ramiz: "Kunlardan bir kun Shoir vazirning xotini qiz tug'di, Tohir vazirning xotini o'g'il tug'di. Qizning otini Xolbeka qo'ydi, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'ydi. Lekin Xolmo'minning enasi qora bosib o'ldi, o'g'li etak ostida qoldi. Xolbeking enasi emizib katta qildi. Bular shirxo'ra bo'lib, nikoh yurmaydigan bo'lib qoldi. Ikki vazirning avvalgi va'dalarini o'zining odamlari eshitgan edi. Mardumi shahar: "Xolbeka Xolmo'minning xushandasi", - der edi, sut emishganini bilmas edi. Ammo Xolbeka o'n to'rtga o'tgandan keyin... ovozasi olamga ketdi, dong'i Dog'istondan o'tdi. Xolbeking asif-vasiyatini, husn zeboligini eshitgan podsho va to'ralar, polvon botirlar har maklatdan, har yurtdan, har diyordan sovchi qo'ya berdi. Sovchilarga Xolbeka: "Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, utsa olaman, utdursa so'yaman", - deb elga shuhrat berdi³⁰. Dostonidan keltirilgan bu parchada Xolbeking o'n to'rt yoshdan keyin g'oyatda go'zal va oqila qiz bo'lib o'ziga yetganligi ko'rsatiladi. Lekin uning nard o'yinini o'z sevgan kishisi uchun o'rt qilib qo'yishi o'qituvchidan alohida izohni talab qiladi. Bu o'rinda o'qituvchi.

²⁹ Ergash Жуманбулбул ўғли. Кунтуғмиш. Т. – "Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти", 1975. - Б. 133.

³⁰ Уша китоб. Б. 133-134.

...dagi shartlilik deb atalgan badiiy uslub haqida tushuncha bermog'i lozim. Nard o'yini o'zbek xalqning milliy o'yinlari sirasiga kirmasa ham, lekin ramonning birgina millat yoki elat manfaatlarini cheklanib qolmaganligini bilish kerak. Nard o'yinini bilish uchun esa insonda omaddan tashqari aql-zakovat ham bo'lmog'i lozim. Buningsiz nard o'yinida g'olib chiqib bo'lmaydi³¹. Bu sababli qanchadan-qancha ellardan, yurtlardan kelgan yigitlar Xolbekaga qatnashmay olmay o'lib ketadilar. Kuntug'mish esa, avvalo, ilohiy qudratning namoyandasi bilan (Ularni chiltonlar tushlarida nikoh o'qib, uzuklarini almashtirgan) ikkinchidan o'zidagi aql-zakovat bilan g'olib chiqib sevgisiga erishadi. Bu insonda nard o'yini qadimda shatranj kabi aqlni charxlash vositasi bo'lganligini ko'rsatib berish kerak.

Dostonning didaktik ahamiyati shundaki, unda xalqimiz orasida paydo bo'lgan urf-odatlar, marosimlarga qat'iy rioya qilinadi. Shu sababli ota-onalar farzandlarining yoshidagi farzandlarining sevgisiga befarq qaramaydilar, ularni muqaddas o'g'il yoki yo'lida uchraydigan nopokliklardan, behuda urinishlardan saqlashga harakat qiladilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, Kuntug'mishning otasi ham uning ishq dardiga qatnashmay bo'lganligidan avvaliga havotirga tushadi, lekin dostonda o'g'lining muhabbatiga, muhabbatiga go'zal tarzda ishonitirish lavhasi beriladi. Bu lavha she'riy uslubda go'zal ifodalanganligi uchun o'quvchilarga ularni o'qib berish lozim. Bu inson nafaqat ishq savdosi haqida, balki ota-ona, farzand o'rtasidagi munosabatlar haqida bo'lishi lozimligi haqida o'quvchilarda taassurot hosil bo'ladi. "To'ra ishq dardida pinhon tutolmay, yigitlariga qarab bir so'z aytib turibdi.

So'z budir:

Bog' ichinda olma-anor istaydir,
Bo'y mahbub, mushki dildor istaydir.
Qadr donlar, birga yurgan beklarim,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Alqissa, Qoraxon podsho o'g'lining dardini ishqdan bilib, ko'ngli buzilib, k-
 k-bag'ri ezilib, qaddi bukilib, ko'zidan yoshi to'kilib, o'g'liga qarab bir so'z
 turibdi:

Ot chopmoqqa qoyim Xizming dashi,
 Xizr, Ilyos³² doim mardning yo'ldoshi,
 Och ko'zing, boshingni ko'tar, yolg'izim,
 Bir yor uchun yotarmikan mard kishi?

Ko'kraginga solma qayg'u-alamni,
 Ko'zlari qambarday qoshi qalamni,
 Bir yor uchun also, bolam, g'am yema,
 Obberay paridan ortiq sanamni.

Alqissa, Qoraxonning bu so'zini o'g'li eshitib, yigitlariga buyurdi: "Kechagi
 o'zidagi suratni otamga ko'rsatinglar". Yigitlari suratni ko'rsatdi. Qoraxon
 qog'ozda bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel
 shirin qilib kulib, taraqqos bo'ylab, suqsurday bo'ylab, tovusday taranib,
 burilib turibdi. Qoraxon insof qilib qarasa, No'g'ay yurtining qizi tugul, yer
 barnolari bir tola mo'yiga arzimaydi. Qoraxon bildiki, to'raning ilojini
 to Zangar bormasa, Xolbekadan boshqani xohlamas. Podsho noiloj,
 javob bermoqchi bo'lib, lashkarlarini yig'ib, har dastasidan bittadan, qirq
 ayirib berdi. Qirq xachirga zar ortib, aytdi:

-Ey farzand, burungilardan bir so'z bor: "Musofirchilikda yo zar yarar, yo
 yarar kuningga", - degan ekan. Zarga kelsa, xachirdagi pulni ayama, zo'rga
 qirq yigitga buyursang, Xudodan kelgan ajal bo'lmasa, bandadan kelgan
 bir-ikki-uchga dovur ayirib olar. Bor, bolam, Alloh yoring bo'lsin, pirlar
 bo'lsin, sog' borgaysan, salomat kelgaysan, omin Allohu akbar, - deb
 berdi³³.

³² Ilyos payg'ambarlar honiy pirlar bo'lib, xalq e'tiqodiga ko'ra xavfiga duchor bo'lgan kishini sahro va
 cho'llovchi sifatida obrazlar sanaladi.

³³ Ahmedov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot 8: darslik-majmua (I qism). - Toshkent: G'afur G'ulom
 nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2014. - B. 18-19-20.

Dostonning tarbiyaviy ahamiyatlaridan yana biri: inson o'smirlik yoshida do'st topishda g'oyatda ehtiyotkor bo'lishni o'rgatishidadir. Kuntug'mish beka va ikki farzandi bilan sarchashma bo'yida yashab turganda uning barxo'jaga duch kelishi hamda Qur'oni karimni o'rta qo'yib do'st tutinishi xalqimizni qiziqarliqdir. Bu do'stlik oq ko'ngil Kuntug'mish uchun muqaddas asar, ayyor va manfur Azbarxo'ja uchun manfaat vositasi edi. Shu sababli Azbarxo'ja do'stingman deb Kuntug'mishni aldab, mast qilib ikki farzandi bilan tashlab, Xolbekani olib ketadi. Lekin Buvraxonning g'azabiga uchrab zindonga tashlanadi. Asar oxirida esa haqiqiy jazosini oladi, ya'ni Gurkiboy va Mohiboy qat'idan o'ldiriladi. Bu o'rinda xalqimizning do'stlikni g'oyatda qadrlashi, do'stingman deya dushmanning ishini qiluvchilardan nafratlanishi, unday kishilardan yoshlarni ogoh qilishi badiiy lavhalarda yorqin aks ettirilgan.

Dostonning xalqimizga xos bo'lgan bag'rikenglik, bolajonlik, yetimlarga qavat kabi umuminsoniy fazilatlarini bevosita doston sujetiga shunday singdirib berganki, ularni o'qigan o'quvchi ajdodlari tomonidan yaratilgan badiiy asarning nechog'lik buyuk va zarurligini his qiladi. Shu o'rinda dostonida aks etgan Mohiboy va Gurkiboylarning taqdiri haqidagi badiiy lavhaning tushinishiga e'tibor beraylik: "Shahzodani keta bermoqda qo'ying, endi so'zni berib eshiting? To'raning qo'lidagi bolasini yutgan baliq mug'dor o'n gaz yer bergan yo'q edi. Olim sayyod degan qatag'anlik katta sayyod bir katta to'rni o'tirib edi. Shu baliq boruvi bilan to'riga tushdi. Ko'tarib olsalar, bir katta tushibdi. Ichini yordi, "Ota", - deb ichidan bir bola chiqq keldi. Olim sayyod qolib: "Ajab qudratlarning bor", - deb bolani uyiga olib borib, farzandi yo'q bo'lib qolib boqa berdi.

Endi bo'ri olib qochgan boladan so'zni eshiting.

Bo'ri to'raning bolasini olib qochdi, bir ikki qirdan oshdi. O'nta cho'ponni pishirib yotib edi, bo'rining guzari ustidan tushdi. Cho'ponlarning ko'zi ochilgan, ularni qo'shdi, bo'ri shoshdi, bachchani tashlab qochdi. Cho'ponlar bolani qo'lib, hayron qolib, birovi aytadi: "Qirga chiqqan xotinning bolasi.

Birovi aytadi: - Mo'ltoning bolasi.

Birovi aytadi: - Qozoqning bolasi.

Birovi aytadi: - Bir uyquchi befarq xotinning bolasi”.

Shu yerda o'n bir cho'ponning qo'shi doim bir edi. Kunda kechkisin bari
olib kelar edi. Erta turib, qo'ylarni har tarafga haydab ketar edi. Kechkisin
to'raga uchrashgan cho'pon haydab kelsa, jo'ralari: “E birodar, bizlar
bo'ridan bir bola tushirib olib qoldik”, - deb o'rtaga olib o'tiribdi. Cho'pon
aytdi: “Haligi sho'rlining bolasi”.

Oradan bir-ikki kun o'tmay ovoza bo'lib qoldi. “Olim sayyod qatag'an
ichidan bitta tirik bolani topgan emish”. Buni ham haligi cho'pon eshitdi.
sho'rlining bolasi”, - deb yurdi. Cho'ponlar bo'rini gurk der ekan, o'z oti
bilan, bolaning otini Gurkiboy qo'yidilar. Baliqni sayyodlar mohi der ekan,
otini Mohiboy qo'yidilar³⁴.

Dostonning tili ravon, xalqona. Unda og'zaki ijodiyotga xos xususiyatlar
ketgan. Buning sababi Ergash Jumanbulbul o'g'lining maktab, madrasa
ligi, g'oyatda alloma, bilindon kishi ekanligi bilan bog'liqdir. Dostonda
ayrim she'riy lavhalar mumtoz adabiyot tiliga yaqinligi, garchi aruzga
asa-da, qofiya va radif bilan g'azal shaklida yaratilganligi, boshdan
acha musajja' san'atidan foydalanilganligi, Zebo, Yozi kabi xalq kitoblari
monlaridan tashqari; Yusuf, Zulayho, Layli, Majnun kabi mumtoz adabiyot
monlariga murojaat etib, talmeh san'atini qo'llashi³⁵ fikrimizning dalili bo'la

Kim erding guli so'lgan, shum paymonasi to'lgan

Yoki bolasi o'lgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Sen muncha bo'lib shaydo, muncha qilib vovaylo,

Yusufmisan Zulayxo, qaydin kelasan, ayg'il.

Sen muncha bo'lib purxun, ko'z yoshing oqar Jayhun,

1. Jumanbulbul ўғли. Кунтуғмиш. Т. – “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1975. –

2. А. А. Мумтоз бадиият малоҳати. Шарқ, 1999. Б. 41-42.

Yo Laylimisan Majnun, qaydin kelasan, ayg'il.

Yig'laysan bozi-bozi, ko'kka chiqar ovozi,
Yo Zebomisan Yozi, qaydin kelasan, ayg'il.

Ayg'il menga otingni, bergil bayon zotingni,
Qo'y endi uyotingni, qaydin kelasan, ayg'il²⁶.

Xullas, "Kuntug'mish" dostoni xalqimizning asrlar davomida badiiy hatdan sayqal topgan bebaho adabiy merosi bo'lishi bilan bir qatorda xalqimizning muqaddas urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlarini mujassamlashtirgan ulkan epik obidadir.

Unda betakror an'analar, ota-bola munosabati, farzand tarbiyasi, yoshlarning ishq-muhabbatga qarashi, taqdir tadbiri, do'stlik va unga turfa xil munosabat kabi g'oyalar yuksak badiiy lavhalarda kuylangan. Dostonning didaktik ahamiyati esa mana shu voqealarga qahramonlarning munosabati, ishq-muhabbat va do'stlikni qadrlashi, farzand tarbiyalash va uni tushuna bilish, taqdirga bosh egish va ayni paytda hayot uchun kurash kabi umuminsoniy va ayni paytda sof milliy xususiyatlarda namoyon bo'ladi. O'qituvchi ushbu dostonni o'tish paytida mana shu xususiyatlarga alohida e'tibor berishi, uni hayotiy voqealar bilan qiyosiy tarzda tushuntirib bermog'i, shu yo'l bilan yosh avlodning ongi va qalbiga milliy an'ana va qadriyatlarimizga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'ota olishi kerak. Shundagina ushbu mavzuni o'tishda oldinga qo'yilgan maqsadga yetiladi.

2.2. "Kuntug'mish" dostonida bola tarbiyasi va muhitning tutgan o'rni

O'zbek xalqi bolajonligi bilan nom chiqargan. Shu sababli o'z ijodining gultojlari bo'lmish xalq dostonlarida bola tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi. Hakimbek (Alpomish)ni yetti yoshgacha mullada o'qitib, xat-savodini chiqargan va keyin sipohgarchilikni o'rgatgan bo'lsa, "Kuntug'mish" dostonida, bola

²⁶ Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot 8: darslik-majmua (I qism). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B. 25-26.

...iyasida muhitning qanchalik katta ahamiyat kasb etishi haqidagi tasvirlar va voqealar ta'sirchan bayon etiladi.

Kuntug'mish do'sti Azbarxo'janing xiyonati tufayli sevikli yori va ikki o'g'ildan ayriladi. Xolbekani Azbarxo'ja olib ketadi, o'g'illarini esa Tajang sayyosidan olib o'tayotganda birini baliq yutadi, birini bo'ri olib qochadi. Qasidan ayrilgan shahzoda "Bor dunyongdan kechdim", - deb, bir so'z dedi:

Mosuvoday ko'kka uchdim,
 Ajal sharobidan ichdim,
 Bu dunyo bahridan kechdim,
 Qalandar bo'lganim qalandar...³⁷

Doston voqealari shu o'rinda fantastik uslubda o'ta shiddat bilan rivojlanib boradi.

Kuntug'mishning bir o'g'lini yegan baliq tez orada baliqchilar qo'liga tushadi. Ular baliqning ichini yorib qarasalar, tirik o'g'il bola chiqadi. Baliqchilardan Olim sayyod deganining farzandi yo'q edi, bolani asrab oladi. Uning Mohiboy qo'yadilar. O'g'illarning ikkinchisi xuddi shunday yo'sinda cho'ponlarning qo'liga tushib qoladi. Uning otini Gurkiboy deb ataydilar.

Gurkiboy tabiat qo'ynida, tog' etaklarida, cho'ponlar orasida bosiq vazmin, aql bilan ish ko'radigan bola bo'lib o'sadi. Zero, cho'ponlarning turmush tarzi shunday edi. Chorvador o'zbek hech qachon shoshib qarorga kelmaydi, amalga oshiradigan ishini ham qilajak tabdirlarini ham o'tov yonida gulxan tevaragida o'shnalari bilan obdon muhokama qilib, yetti o'lchab, bir kesib, amalga oshiradi. Bu hol Gurkiboyning tabiatiga ta'sir etishi, uning hayotga munosabati shakllanishida muhim rol o'ynashi tabiiy ediki, biz buni dostonning kelgusi voqealari rivojida ko'ramiz.

Baliq qornidan chiqqan va Mohiboy deb atalgan shahzoda esa Olim sayyod qo'lida, bozorda kabob sotib, "Yog'li kabob, dog'li kabob, olib yesang topasan

³⁷ Эргаш Жуманбулдул ўғли, Кунтуғмиш. Т. – "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти", 1975. – 5. 210.

...³⁸ ” (“Ey, yaxshi manti, shirin manti yegan ham armonda, yemagan ham armonda, puli bor manti yeydi, puli yo‘qlar mantini “xom” deydi³⁹ ”), - deb kun kechiradi. U shahar odamlar orasida yashab, savdo-sotiq bilan shug‘ullanib, biroz maddod, biroz quv yigit bo‘lib o‘sadi, shahar nuqsi uradi. Ilgari ham, bugun ham shaharda, ayniqsa, bozor atrofida voyaga yetgan o‘smir bilan qishloqda o‘sgan o‘smir orasida farq bor. Shaharlik o‘smir tez fikrlab, tez xulosa chiqarishi, fikri va fikrasida ko‘proq o‘zining foydasini o‘ylashi kerak. Bu katta shaharning, shaharning qonuni. Bu holatni xalqning o‘zi kabi donishmand baxshilar juda yaxshi bilganlar va hech kinning ko‘ngliga, nafsoniyatiga tegmagan holda nafis badiiy asarlarda aniq, ravshan ifodalaganlar.

Gurkiboy cho‘ponlar orasida voyaga yetib, bir kuni o‘z taqdiridan voqif bo‘ladi qoladi va kechasi bilan yig‘lab chiqadi. Ertasiga qo‘ylarni haydab borib, bir yerdə yonboshlab uxlab qoladi. O‘nta bo‘ri qo‘ylarni bo‘g‘izlab tashlaydi. Gurkiboy cho‘ponlardan qo‘rqib qochib ketadi.

Mohiboyning taqdiri ham egizagidan ayro kechmaydi. U oshiq o‘ynab o‘yinlarning kabob pulini, ustidagi bir-ikki yupqa ozoda to‘nini yutqizib qo‘yadi. Natijasi, natijasi, u ham qo‘rqib qochadi. Taqdirning bu o‘yini orqali ularning ko‘rishish natijasi doston sujetidagi burilish lavhalari bilan ifodalanadi:

“Daryoning bu yog‘idan Gurkiboy, u yog‘idan Mohiboy kelib qoldi. Gurkiboy qarasa, daryoning uyog‘idan o‘ziga o‘xshagan bir yetim kelayotibdi. Qarab tursa, yetimlikdan kami yo‘q, chenomoqdan yangi yo‘q. Gurki qarab bir narsa dedi:

Baland bo‘lma, past bo‘laylik,
G‘anim bilan qasd bo‘laylik,
Daryodan o‘tgin beryoqqa,
Kel, ikkovimiz do‘st bo‘laylik...⁴⁰

Жуманбулбул ўғли. Кунтуғмиш. Т. – “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1975.

Гуркибой ўғли Бекмурод. Холбека. Т., “Фан”, 1967. – Б. 110.

Жуманбулбул ўғли. Кунтуғмиш. Т. – “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1975. –

Alqissa, Mohiboy qarasa, naq o'ziga o'xashgan bir yetim kelayotgan ekan, ayodan bu yoqqa o't, deb chaqirib turibdi. Do'st bo'lamiz, deydi. "Obbo, menga ambir ekan-a, do'st bo'laman, deb aldab-suldab, mening ustimdagi harna nagan yuqa choponni olaman deydigandirsan. Menga sen do'st bo'lib, shu menakingni berasanmi? Kebanaklaringga", - deb so'kib bir so'z dedi:

Yurgan yo'lim bo'ta ko'zli, jo'nag'ar,

Nayza tegsa, oqbadandan qon oqar,

Birov soyga, birov qirga yuradi,

Yurganimman, ishing nima, enag'ar...

Mohiboy aytdi: "E, enag'ar, men sen bilan do'st ham bo'lmayman, sen nagan sahroyi bilan yurmakka or qilaman. Menga nima ishing bor", - deb yanilab so'ka berdi⁴¹".

Qizig'i shundaki, doston qahramonlari bo'lgan shahzodalar axloqi ikki xil bo'lgan. Ikki xil tarbiyada yuzaga kelganligi baxshi tomonidan tavsiflab yoki izohlab berilmaydi, balki ikki xil xarakterning to'qnashuvidagi badiiy tasvirlarda ochib beriladi:

"Anda Gurkiboy mehri toblab, ukasiga qarab, yaxshi gapirib, Achchig'lanmay javob bergin, deb turibdi:

Yaxshilarning yuzin ko'rsang – jannatdir,

Yomon odam qilgan ishi – minnatdir,

Achchig'lanmay javob bergin, chirog'im,

Ot so'ramoq, zot so'ramoq sunnatdir⁴²".

Gurkiboyning bosiqligi, suhbatdoshiga ko'rsatayotgan mehr-oqibati shunchalik tabiiy tasvirlansa, Mohiboydagi yengiltakligi uning xatti-harakatlari, berayotgan so'zlarida shunchalik aniq aks etadi. Dostonda ularning g'oyatda berilgan suhbatiga e'tibor qarataylik:

41. Куманбулбул ўғли. Кунтуғмиш. Т. – "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти", 1975. – 219-б. 219.

"Aytgan so'zlar ta'sir qilib, Mohiboyning ko'ngli erib: "Men otimni
 qanday, tanib olib qo'yami shu bachchag'ar. Ot so'ramoq sunnat bo'ladigan
 aytgan ayt qolayin-chi", - deb bir so'z dedi:

Qovmim yo'q, og'ajon, qarindoshim yo'q,
 Sir aytayin desam, emakdoshim yo'q,
 Bir xudodan boshqa bepadarim yo'q,
 Quvondiqsiz bepardarin bo'laman...

...Oh ursam g'amxona ko'nglim jo'shadi,
 Alam torsam bandi-bo'g'nim bo'shadi,
 Chiqqan ekanman baliqning qornidan,
 Otimni Mohiboy yetim deyishadi⁴³."

Shu tariqa bolalar bir-birlarini topadilar va taqdir taqozosi bilan
 qal'aboshi bo'lgan Xolmo'minga ishlash uchun yollanadilar. Ularning onasi
 aka akasining uyida ishlab yurgan ikki yetimni chechasining yordamida
 edi. Ona va o'g'illar tanishib-topishadilar va farzandlar onasining gapiga kirib,
 qordan chiqib ketadilar. Ular Zangar shahridan chiqishda darvozabon qo'rboshi
 janjallashib, uni o'ldirib qo'yishadi. Yo'lda Mohiboy Gurkiboyning gapiga
 solmay, yilqilarni quvib soladi, cho'ponlar bilan jang bo'ladi, aka-uka g'olib
 shadi. Yilqilarni No'g'ay yurtiga haydab ketishadi. Besh kunlik yo'l
 gandan so'ng bir joyga borib, horib-charchab uxlab qolishadi. Lashkar kelib,
 bandi qilib, Zangar shahriga olib ketishadi va ular dorga osishga buyuriladi.

Bu o'rinlarda ham Mohiboyning yengiltakligi, hayotga yengil qarashi,
 tashlanadi. Biroq akasining mehribonligi uning xarakteriga o'zgarish
 ni. Endi u og'imi ustidan, yengilni ostidan o'tadigan olg'ir ham, har kim bilan
 janjallashadigan urushqoq ham emas, unda mardlik, jasurlik xislatlari
 ngan. Bu hol, ayniqsa, podsho (otasi)ning "Kel-e, bu bachchalarning

“...iga bir luqma solay, agar bizlar qilganimiz yo‘q desa, ozod qilay, bu bolalar
...radigan bola emas ekan-ku”, - deb ikki bolasiga qarab bir so‘z dedi:

Yosh bachchalar, ko‘nglingni shod aylayin,

Bu foniylar dunyodan faryod aylayin,

Munkir kelsang, bollar ozod aylayin,

Haydaganing yolg‘onmidi, rostmidi?⁴⁴

... savoliga javob berishida ko‘rinadi. Bu o‘rinda u podshohni aldab, qochishi
...kin edi, biroq Gurkiboydagi rostgo‘ylik, mardlik Mohiboyning tabiatiga
...gachon ta‘sir etib ulgurgandi. Dostonga murojaat qilamiz:

“Mohiboy: - E podshoyim, mardlar o‘laman deb so‘zidan qaytmabdi, deb
...ga qarab bir so‘z dedi:

O‘laman, deb mard qavlidan toyama,

Yo‘qchilik jo‘mardning ko‘zin o‘yama,

Oqsuvdan yilqiningni o‘zim haydadim,

Qo‘lingdan kelganing qilgin, ayama⁴⁵”.

Shunda o‘limga mahkum etilgan Mohiboyning gunohini akasi o‘z bo‘yniga
...qochi bo‘ladi. Mohiboy esa aybni yolg‘iz o‘zi qilganligini aytadi. Jallod tig‘iga
... boshlanadi. Bu so‘zlardan sevikli yori va farzandlaridan ayriliq alamidan
...darlikni bo‘yniga olgan va hozirda Zangar mamalakatining podshosi bo‘lgan
...g‘mish gunohkor mahkumlar o‘zining farzandlari ekanligini bilib oladi.

Xullas, “Kuntug‘mish” dostonida Gurkiboy va Mohiboylar, ya‘niki egizak
...podalar o‘zlari tarbiya topgan muhit tufayli ikki xil xarakterli o‘smirlar bo‘lib
...ganliklari juda hayotiy lavhalarda badiiyatning yuksak namunalari sifatida
...langan. Shu bilan birga dostonida bola tarbiyasida muhitning ta‘siri tabiiy va
...archan tasvirlanishi bilan birgalikda o‘smir dunyoqarashining, tabiatining
...arishi ham hayotiy dalillar bilan ishonarli va go‘zal chizgilarda ifodalangan.

...v S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot 8: darslik-majmua (I qism). – Toshkent: G‘afur G‘ulom
... nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B. 33.

... Жуманбулбул ўгли. Кунтуғмиш. Т. – “Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1975. –

2.3. “Kuntug‘mish” dostonining mazmun-mohiyati, badiiy xususiyatlari

Darsning maqsadi:

- a) *ta’limiy maqsad* – asarning badiiy jihatdan to‘laqonli mukammal voqealarga xizmat qilgan badiiy unsurlar haqida ma’lumot berish;
- b) *tarbiyaviy maqsad* – doston mohiyatini idrok qilish, qahramon ruhiyatini o‘rnatish, o‘zaro hurmat, do‘stona muhabbat ruhida tarbiyalash;
- d) *rivojlantiruvchi maqsad* – o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Asosiy tushuncha va atamalar: “Kuntug‘mish” dostoni, Ergash, Xolbulbul, Kuntug‘mish, Xolbeka, Zangar, Xolmo‘min, Azbarxo‘ja, Gurkiboy, Gurkiboy.

Darsni tashkil etish texnologiyasi:

Metod: “Asar qahramonlariga tavsif” metodi.

Shakl: Guruhlarda ishlash.

Usul: Savol-javob, og‘zaki bayon.

Vosita: Adabiyot darsligi, jadval, notebook, proyektor, kartatekalar.

Darsning borishi: Darsning rejasi:

- Tashkiliy qism (2 daqiqa)
- Uy vazifasining nazorati va o‘tilgan mavzuni takrorlash (10 daqiqa)
- Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa)
- Mustahkamlash (5 daqiqa)
- Darslik bilan ishlash (10 daqiqa)
- O‘quvchilar bilimini baholash (2 daqiqa)
- Yakuniy fikrni aytib uyga vazifa berish (1 daqiqa)

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashish, navbatchini tinglash, o‘quvchilar davomatini aniqlash.

O'quvchilarni uch guruhga bo'lib, uyga vazifa va o'tilgan mavzu yuzasidan va topshiriqlar beramiz.

1. Kuntug'mish o'n to'rt yoshgacha nimalar bilan shug'ullandi, o'n to'rt yoshdan so'ng qaysi amallarni egalladi?
2. Zangar shahri podshosi Xolbekaga oshiq bo'lib, o'z niyatiga erishish uchun qanday choralar ko'rdi?
3. Kuntug'mish asarda yana qanday nom bilan eslanadi?

1. Xolbeka kimning farzandi? Uning kamolga yetguncha bo'lgan hayotini tafsil gapirib bering.
2. Qosim Kuntug'mishni halokatdan saqlab qolish uchun qanday chora ko'rdi?
3. Xolbeka nima uchun bolalarini Zangar elidan chiqarib yuboradi?

1. Kuntug'mish va Xolbeka g'ayritabiiy sharoitda (Tushda) tanishadilar. Saunga o'xshash holatlarni (tush, ko'zgu, uzuk orqali tanishish) yana qaysiostonlarda uchratgansiz?
2. "Shirxo'ra" so'zi qanday ma'noni anglatadi, izohlang?
3. Azbarxo'ja Kuntug'mishni halok qilish uchun qanday hiyla ishlatdi?

O'tilgan mavzuni yangi mavzuga bog'lash uchun har bir o'quvchiga "Asar nomlariga tavsif" metodi⁴⁶ asosida chizilgan jadvallarni tarqatamiz.

Asar qahramonlari	Tavsif
Kuntug'mish	
Xolbeka	
Gurkiboy	
Mohiboy	
Azbarxo'ja	
Qosim	

(Bu jadval har bir o'quvchi tomonidan to'diriladi.) O'quvchilarning javoblari tekshirish uchun javoblar aks ettirilgan slayd namoyish etiladi.

3. Har bir o'quvchi o'z javoblarini tekshirib oladilar.

⁴⁶ Shukurova M. va boshq. Ona tili. 6-sinf: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – B. 94.

Yangi mavzu bayoni: Ergash Jumanbulbul ijrosidagi ushbu doston biz keng tanilgan dostonlardan badiiy jihatdan o'ziga xosligi bilan farq qilinishini ko'rsatib beradi. Dostonda mubolag'a, tashbeh, istiora kabi mumtoz adabiyotdagi san'atlar, kinoya, alqoshlar, yashirin mutoyiba, ichki kulgi kabi xalq og'zaki ijodi san'atlari muvaffaqiyat bilan noziklik bilan ishlatilgan. Doston barmoq vaznining (10-11 hijoli) usulida, nihoyatda ravon usulda bitilgan. Ayrim o'rinlarda sof aruz bo'lmasa-da, ushbu doston adabiyotga yaqin bitilgan she'rlarga duch kelamiz. Masalan:

Otimni Kuntug'mish deydi, men No'g'ayning xoniman,
Dilbarimdan ayrilib, men bir ajab sarsoniman,
Oldirib ikki qo'zimni diydayi gironiman,
Onadan baxti qaro tug'dim shuning hayroniman,
Dod dastingdan, falak, bedod, dastingdan falak!⁴⁷

Ushbu doston muallifi beshlik asosida (Muxammas arabcha "beshlik" ma'nosini bildiradi, har bir bandi besh misradan iborat she'r hisoblanadi va a-a-a-a-a, b-b-b-b-b, c-c-c-c-c, d-d-d-d-d-a tarzida qo'fiyalanadi⁴⁸) shaklida yozilgan. She'rda **metafora** asosida: "ko'chirish" predmet, belgi, harakatlar o'rtasidagi shakilliy yoki nisbiy o'xshashlik asosida nom ko'chishi. Bunda biror jihatdan o'xshash predmet, shaxsning nomi boshqasiga ko'chadi⁴⁹.) "qo'zimni" shaxs va predmet bir-biri bilan o'xshatilyapti.

Shonaman taralar qizlarning sochi,
Madad qiling Bobo Zangi podachi,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og'ochi!⁵⁰

Ushbu doston matnididan olingan parchada Bobo Zangi (Zangi Ota), Mansur Zangi nomi tilga olingan. Bunda **talmeh** (arabcha "chaqmoq chaqishi", "nazar chaqishi") shoir she'rda o'tmishdagi biror tarixiy shaxs yoxud voqeaga ishora qiladi.

⁴⁷ Ergash Jumanbulbul. 1-tom. Oйсулу, Якка Ахмад, Кунтуғминш. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1971. – Б. 267.

⁴⁸ Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 102.

⁴⁹ Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 102.

⁵⁰ Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 102.

uning yordamida fikr yo tasvir ta'sirchanligiga erishadi. Talmeh "lama'ot" (chaqmoq chaqnashi) so'zidan olingani bejiz bo'lmay, qorong'u kechada yashin chaqnaganda atrof yorishib, ilgari ko'rinmay turgan narsalar ko'rinib ketganiday, xor mashhur shaxs yoxud voqeaga ishora aytilmoqchi bo'lgan fikr yoki tasvirlanayotgan manzaraning aniqroq va jonliroq chiqishiga yordam beradi⁵¹) san'atini yuzaga chiqqanganini aytib o'tish lozim.

Mustahkamlash.

Guruhlardan bittadan ishtirokchi chiqib, o'zlari uchun kartateka tanlaydi. Uda keltirilgan parchada qanday badiiy san'at qo'llanganligi haqida guruh a'zolari birgalikda bosh qotiradi.

1-kartateka

Qonlar oqsin mening ikki ko'zimdan,
Yangilmadin aslo aytgan so'zimdan,
Bu ishda Gurkingni yo'qdir gunohi,
Qancha gunoh bo'lsa yolg'iz o'zimdan...⁵²

2-kartateka

Ot chopmoqqa qoyim Xizming dashi,
Xizr Ilyos doim mardning yo'ldoshi,
Och ko'zing, boshingni ko'tar, yolg'izim,
Bir yor uchun yotirmikan mard kishi?⁵³

3-kartateka

Mug'olning tog'iga yetdilar. Ikkovlari ham xursand bo'lib: "Shukur, alimiz yetgani yo'q yekan, o'lmay shu toqqa keldik, albatta, chashmazor suvlar, har alvon mevalar bo'lsa kerak", - deb chunon g'ayrat qilib yurdilar. Tog' darasining ichiga kelib ko'rsalar, yovvoyi yong'oqlar, pistalar, jiydalar va yovvoyi toklar – har alvon mevalar pishib turibdi⁵⁴.

⁵¹ Yusupova, Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 60.

⁵² Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot 8: darslik-majmua (I qism). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B. 36.

⁵³ Orsha kitob. B. 19.

⁵⁴ Orsha kitob. B. 23.

Javob: 1. **Mubolag'a** (Mubolag'a - (kattalashtirish, kuchaytrish) adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'atidir. U g'arb adabiyotida giperbola deb ham yuritiladi⁵⁵).

2. **Talmeh.** 3. **Peyzaj** (Peyzaj – (fr. “mamlakat, joy”) badiiy asarda aks ettirilgan joy va tabiat tasviri⁵⁶).

Darslik bilan ishlash:

Guruhlarda ishlash davom ettiriladi. Darslikdagi doston matnidan foydalanib, guruh a'zolari birgalikda badiiy san'at turlariga misollar topadilar.

Guruhlardagi ish natijalari himoyasi. Topshiriqni bajargan guruh sardori chiqib mustaqil ish natijasini himoya qiladi. Topshiriqni birinchi va to'g'ri bajargan guruh a'zolari rag'batlantiriladi.

O'quvchilar bilimini baholash.

Dars so'nggida baholar va g'olib guruh e'lon qilinadi, faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. 5 balli tizim asosida.

Yakuniy fikrni aytib uyga vazifa berish.

Doston matnidan (darslikdagi) badiiy san'at turlari qo'llangan o'rnlarning har nechtasini adabiyot daftarga ko'chirib yozish, asarning badiiy va janr xususiyatlari haqida ma'lumot to'plash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishimizning II bobi yuzasidan quyidagicha xulosalar chiqardik:

- Ko'pgina xalq dostonlari kabi “Kuntug'mish”da ham milliy va umuminsoniy qadriyatlar, jumladan, ota-bola munosabati, farzand tarbiyasi, yoshlarning ishq-muhabbatga qarashi, taqdir tadbiri, do'stlik va unga turfa xil munosabat kabi g'oyalar yuksak badiiy lavhalarda kuylangan. Dostonning didaktik ahamiyati esa, mana shu voqealarga qahramonlarning munosabati, ishq-muhabbat va do'stlikni qadrlashi, farzand tarbiyalash va uni tushuna bilish, taqdirga bosh egish va hayot uchun kurash kabi umuminsoniy va ayni paytda sof milliy

⁵⁵ Yusupova, Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 74.

⁵⁶ Matchonov Safo, Sariyev Sharafjon. Adabiyot. (Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma). – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2011. – B. 77.

asosiyatlarda namoyon bo'ladi. O'qituvchi ushbu dostonni o'tish jarayonida asarning mana shu tomonlariga alohida e'tibor qaratishi, asarning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishga alohida ahamiyat berishi kerak.

- "Kuntug'mish" dostonida Gurkiboy va Mohiboylar, ya'ni egizak qahramonlar o'zlari tarbiya topgan muhit tufayli ikki xil xarakterli o'smirlar bo'lib o'sishganliklari juda hayotiy lavhalarda badiiyatning yuksak namunalari sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga dostonda bola tarbiyasida muhitning ta'siri tabiiy va ijtimoiy tasvirlanishi bilan birgalikda o'smir dunyoqarashining, tabiatining qadrlanishi ham hayotiy dalillar bilan ishonarli va go'zal chizgilarida ifodalangan.

- 8-sinf darsligida "Kuntug'mish" dostonini o'rganish uchun 4 soat ajratilgan. Ushbu darslarni o'tishdan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar ko'zda tutilgan.

- ta'limiy maqsadda asarning badiiy jihatdan to'laqonli mukammal voqea tasvirlashiga xizmat qilgan badiiy unsurlar haqida ma'lumot berish;

- tarbiyaviy maqsadda doston mohiyatini idrok qilish, qahramon ruhiyatini qadrlash, o'zaro hurmat, do'stona muhabbat ruhida tarbiyalash ko'zda tutilgan bo'lsa;

- rivojlantiruvchi maqsadda esa o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish kabilar nazarda tutilgan. Bundan tashqari dars jarayonida "Asar qahramonlariga tavsif", "Topqirlar bellashuvi", "Guruhlarda ishlash" kabi interfaol metod va uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1. BOB. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ravshan" dostonini o'rganish uslubi

"Ravshan" dostoni "Qo'rg'on" dostonchilik maktabining epik reportuarini hisoblab beruvchi badiiy jihatdan g'oyatda ko'rkam dostonidir. Xalq baxshilari bu dostonni "Ergash shoirning uch haydalgan shudgori" deb nomlashadi, sababi bu dostonni "Qo'rg'on" dostonchilik maktabining uch avlodi xalq orasida keng tarqamda kuylab kelganligidir. "Ergash shoir "Ravshan" dostonini otasi Jamnambuldan, u esa ustози Kichik Bo'rondan o'rgangan⁵⁷". Dostonning ijtimoiy-badiiy jihatdan barkamol bo'lishiga uch avlod ham o'zlarining qatnashishini singdirishgan. Shuning uchun bu dostonning umumiy o'rta ta'lim maktablariga, aniqrog'i, 7-sinf adabiyot darsligiga kiritilishidan maqsad, o'quvchilarni ajdodlarimizdan qolgan badiiy merosni o'rganishga chorlashdir. Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida dostonni o'rganishga 4 soat vaqt ajratilgan. Dissertatsiyamizda bu soatlardan unumli foydalanish maqsadida uslubiy tavsiyalarga asoslanib uch faslga ajratdik.

3.1. "Ravshan" dostonining "Go'ro'g'li" turkumida tutgan o'rni

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari o'zbek xalq dostonchiligida alohida o'ringa ega. Folklorshunos olimlar, jumladan, professor To'ra Mirzayev "Go'ro'g'li" dostonlarini qirq mustaqil doston deb belgilaydi va ularning ro'yxatini tuzib chiqadi. Bu dostonlar Go'ro'g'lining tug'ilishidan tortib to o'limiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Boshqa biror xalqda bunchalik ulkan qamrovdagi epik doston uchramaydi.

Go'ro'g'li turkumiga kiradigan dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lmog'i lozim. Eng avvalo, bu turkum dostonlarida uch epik shartlilik alohida ahamiyatga ega. Bu epik quyidagi birlikdan iborat.



⁵⁷ Yo'ldoshev Qozoqboy, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshibekov. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: "Sharq", 2013. – B. 156..

Bu uchlikdan birontasi ishtirok etmasa ularni “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlariga mansub emas deb hisoblanadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari nasliylikka ham asoslangan, ya‘ni ota – avaz – nevara. Bu turkum dostonlarida oilaviy shajarani shunday ko‘rsatishimiz mumkin.



Uch avlodning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan “Ravshan” dostoni ishqiy-sarguzasht turdagi dostonlarning badiiy jihatdan eng go‘zali hisoblanadi. Dostonda Ravshanning bobosi Go‘ro‘g‘lining otasi Hasanxonning ko‘rsatgan qirramonliklari, sarguzashtlari takrorlanmay, balki ularning davomchisi sifatida yangicha hayot tarzi, sevgi qissalari juda ko‘tarinki ruhda badiiy jozibador xalqlarda hikoya qilinadi⁵⁸.

Doston Go‘ro‘g‘lining tashabbusi bilan aka-uka Hasan va Avazlarni quda olish harakati bilan boshlanadi. Avazxonning manmanligi Go‘ro‘g‘lining bu yaxshi tashabbusini yo‘qqa chiqaradi. Dostonda Ravshan Og‘a Yunus pari bergan zukning ko‘zida Zulxumorning suratini ko‘rib unga oshiq-u beqaror bo‘lib, Zangar shahriga yo‘l olishi bilan uning sarguzashtlari boshlanadi. Shu o‘rinda g‘oyatda e‘tiborli bo‘lgan bir lavhaga, ya‘ni Hasanxon bilan safarga otlangan Ravshanning suhbatiga e‘tiborni qaratish lozim. Hasanxon o‘g‘lidan yo‘l bo‘lsin deb so‘raganda Ravshanning javobi nafaqat ushbu dostonning, balki butun o‘zbek xalqi dostonchiligining mohiyatini belgilab beradi.

Jonim ota, aytolmayman uyali,

Bolang ketar endi boshini olib.

⁵⁸ Yo‘ldoshev Qozoqboy, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshibekov. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 155-156.

Jon ota, alamim ko'pdir so'rmagin,
Bek Ravshan jo'nadi safarga tolib⁵⁹.

Javob ber, otajon, yorga boraman,
Yor deymanku, nomus-orga boraman.
Ota, sendan oq fотиha tilayman,
Shirvon elda Zulxumorga boraman⁶⁰.

Ravshanning "Yor deymanku, nomus-orga boraman", - deb bergan javobi qalqimizning or-nomusli ekanligidan, yor esa bir vosita bo'lganligidan dalolat beradi.

Dostonda Ravshanning yosh o'smirlar kabi Zulxumorni izlab borib "Juringlar, Chambil ketamiz", - deb aytgan so'zlari biroz kinoya bilan so'zlansa ham, lekin unga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Bu hol dostonda shunday ifodalangan:

"Ravshanbek masti beixtiyor bo'lib, ikki qo'lini ko'tarib, bulg'ab, oyoqni uzangiga tirab, balandga qarab baqirib, qizlarni chaqirib bir so'z aytadi:

Zulfin toblab o'rgan qizlar,
Elda davron surgan qizlar,
Kaptarday bo'b yurgan qizlar,
Qalpoq sotib turgan qizlar,
Turinglar, Chambil ketamiz,
Juringlar, Chambil ketamiz!⁶¹"

Dostonni o'qigan o'quvchi Ravshanning holatini his qiladi, unga hamdard bo'ladi va beixtiyor uning hovliqmaligidan kinoya bilan kuylaydi. Biz bunday holni Ravshanning qalpoq bozorini axtarishi va bir nashavandni cho'chitib quborishida ham ko'ramiz:

...Past-pastgina past ko'chalar,
Holing bilmas bir nechalar,

⁵⁹ Эргаш Жуманбулдул ўғли. Равшан. — Т. 1941. — Б. 70.

⁶⁰ Уша китоб. Б. 71.

⁶¹ Уша китоб. Б. 107.

Bedov migan boyvachchalar,
 Boyvachchalar, bekvachchalar,
 Qalpoq bozori qaysidi(r)?⁶²

Anovi qovun bozori,
 Baqqollik, sovun bozori,
 Salloh sotib kalla-pocha,
 Qassobga tovun bozori,
 Qalpoq bozori qaysidi(r)?⁶³

Echki ham uloq bozori,
 Telpak ham tumoq bozori
 Kavob, qovurdoq bozori
 Nasya emas, naq bozori,
 Qalpoq bozori qaysidi(r)?
 Qalpoq bozori qaysidi(r)?⁶⁴

Dostonda bunday beg'uborlik bilan aytilgan yarim hazil, yarim chin qabilidagi misralar ko'plab uchraydi. Shoir Ravshan xarakterini ochib berishda badiiy tasvirning turli usullarini qo'llaydi. Bir o'rinda: "Kaptarday bo'p yurgan qizlar" ifodasi ishlatiladi. Bu ifoda tashiydigan badiiy ma'noga o'quvchilarning diqqatini tortish lozim. Kabutar parrandalar suluvligi, beozorligi bilan nom qozongan. Binobarin, qahramon qizlarning ana shu xususiyatlariga egaligini ko'zda tutgandir. Shoir Ravshan tilidan qizlarni kabutarga o'xshatishining tarixiy ildizlari ham mavjud. Qadimda, ayniqsa, xalq dostonlarida go'zal parilarning kabutar qiyofasida olis yo'llarni bir zumda bosib o'tishlari turli badiiy lavhalarda ko'rsatilgan. Jumladan, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlariga kiruvchi "Qunduz bilan Yulduz" dostonida Avazxonning oldiga Yulduz pari qirq kanizagi bilan kabutar

⁶² Эргаш Жуманбулбул ўғли. Равшан. – Т. 1941. – Б. 100.

⁶³ Уша китоб. Б. 101-102.

⁶⁴ Уша китоб. Б. 105.

asida ko'l bo'yiga keladi va unga o'z yurti haqida ma'lumot berib, yana kutar qiyofasiga kirib uchib ketadi⁶⁵. Shu bois o'quvchilarga go'zal qizlarni kutarlarga qiyoslash tarixiy asosga egaligini aytib o'tish lozim.

Ergash shoir Ravshanning sarguzashtlarini bayon etar ekan, uning oldiga kelishi qiyin bo'lgan bir-biridan murakkab vazifalarni, to'siqlarni qo'yadi. Lekin Ravshan bu to'siqlarni bartaraf etishda hali yosh bo'lganligi sababli o'zgalar hammagiga muhtojligini yashirmaydi. Zulxumorning kanizi Oqqizning "xizmati" bilan bandi bo'lganda, unga otasi va aka-uka to'rt kallar yordamga keladi. Rasining-ku yordamini tushunish mumkin, lekin aka-uka to'rt kalning beg'araz yordami, dostonga oliyjanob, mard, tanti insonlar obrazining kirib kelishiga sabab bo'lgan. Shoir bu aka-uka kallarning o'ziga xos xislatlarini shunday ta'riflaydi: "Kattasi Aynoq kal zo'r edi. Aynoq kal shunday edi: ot, tuyu, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi... Uklarining otlarini Aynoq kal, Ersak kal, Tersak kal deb yuritishar edi. Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo'la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi. Ersak kal shunday edi: oqshomlari qo'liga hamonni olsa, qushni ko'zidan urar edi. Juda mergan edi... Tersak kal sinchi edi: Yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi⁶⁶".

Dostonning yana bir xususiyati uning didaktik ahamiyatga egaligidir. Shoir Ravshan obrazini muhabbat bilan yaratarkan, u hali yosh bo'lsa ham, hayotning hechchiq-chuchuklarini totib ulgurmagan bo'lsa ham o'z sha'ni, ota-bobolari g'ururi, sig'inadigan dini, millatidan hech qachon voz kechmasligini, bu yo'lda, hatto, o'linga ham tayyorligini juda ham ta'sirli lavhalarda beradi. Ravshan dor magiga olib borilganda ham o'z dinidan voz kechmasligini aytib shunday deydi:

"Eshitib ol vazirlarning so'zini,
Shirvon elda podsho deydi o'zini,
Agar kirsang Qoraxonning diniga,

⁶⁵ 1. www.uzapi.gov.uz 2. <http://majmua.tdpu.uz>

⁶⁶ Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshibekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: "Sharq", 2013. – B. 144.

Olib beray suluv Xumor qizini⁶⁷.

Shunda Ravshanxon polvon vazirlarning bu gapini eshitib qahri kelib, ay zahri kelib: "Sen aytgan odaming men emasman,.. o'limdan qo'rqadigan qadir", - deb Shirvonning amaldorlariga qarab so'z aytib turibdi:

Bir nechalar o'z holini chengnamas,
Sen aytgan odaming, zolim, men emas,
Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog'imga teng emas...⁶⁸

Ravshanbek aytdi: "...Sizlar mening ko'zimni boylab, ...haydab keldinglar. Endi mening ko'zimni ochsanglar... men ham yorug' dunyoni bir ko'rsam... Sizlardan mening tilagim shu, boshqa so'zni demayman".

Xulosa qilib aytganda. "Ravshan" dostoni "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar orasida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslik Ravshan dostonining o'spirinlarcha dali-g'uliligi va ayni paytda ushbu obrazdagi o'zbek qizlariga xos qat'iyatida namoyon bo'ladi. Bu dali-g'ulilik bozordagi qizlarni o'z eliga taklif etishida, do'st-u dushmani ajrata olmasligida, o'z boshiga balo kiritishida namoyon bo'lsa, qat'iyat o'z eliga va diniga bo'lgan sadoqatida, yorni nomus o'rnida ko'rib, uni izlab jondan kechib safarga otlanishi kabi fazilatlarda raqqol ko'rinadi.

3. 2. O'quvchilarda doston matni ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish

O'zbek xalq dostonlari sinkretik (aralash) san'at namunasi hisoblanadi. Unda doston matni, kuyi va birona cholg'u asbobi ishtirok etishi shart. Bularsiz tinglovchi xalq dostonlarini to'liq qabul qila olmaydi. Lekin bugungi o'quvchi uchun dostonning matni asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Maktab darsligida berilgan dostonlardan parcha ham doston haqida to'liq ma'lumot bermasa-da uning badiiy go'zalligini, estetik jozibadorligini o'quvchi qalbiga singdiruvchi asosiy

⁶⁷ Эргаш Жуманбулбул ўғли. Равшан. – Т. 1941. – Б. 205.

⁶⁸ Ўша китоб. Б. 205.

vositalidir. O'qituvchi maqsadga erishish uchun texnik vositalardan, jumladan, kompyuter yoki boshqa vositalardan foydalangan holda dostonning jonli ijrosi bilan o'quvchini tanishtirishi mumkin. Shunga qaramasdan ikkinchi bir mas'uliyatli vazifa yuklanadiki, doston matnini o'quvchiga to'la holda yetkazish uchun dostonning to'liq nashridan parchalarni o'qib berish va tahlil etish ham zarur. "Ravshan" dostoni ana shunday mas'ul vazifani bajarish uchun asosiy manba bo'la oladi. O'qituvchi doston haqida umumiy tushuncha berar ekan, eng avvalo, sa'j san'ati haqida ma'lumot berishi zarur. Sa'j xalq dostonlarida muhim epik komponent bo'lib, nasriy bayonni qo'fiyalangan holda, ma'lum vaznlarga solingan tarzda aytilishidir⁶⁹. Bu san'at dostonning nasriy kirish qismida, qahramonlar portreti, tabiat tasviri va xotimada keng qo'llaniladi. O'qituvchi nazariy fikrlarni aytgach sa'j san'ati bilan bog'liq dostonlar boshlanmasida qo'llaniladigan an'anaviy zachinni o'qib bergani ma'qul. Jumladan, "Ravshan" dostoni shunday boshlanadi:

"Burungi o'tgan zamonda, el-yurti omonda, o'zi qibla tomonda, Buxorodan qubanda, Taka-Yovmit deganda, Yomit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib o'tdi, dushmanning dodini berib o'tdi. Qirq yigitni yig'ib, dovulni quyib, oltin piyolaga maylar quyib, araqqa bolni qotib, bolga araqni qotib, qirq yigitni yig'dirib, silovsin to'n kiydirib, kuniga kechkisin sergo'sht qilib, sermayli palovga to'ydirib, seniz qo'ydan so'ydirib, ko'pkarisin choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-xalqning ko'nglin toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko'hi Qofdan, Eram bog'idan keltirib, pari bilan o'ynab-kulib, davrini surib, umr o'tkazar edi⁷⁰".

Dostonda qofiya bilan kelgan so'zlar ajratib ko'rsatiladi va o'quvchilarga nasriy qofiyaning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha beriladi. Bunday hol doston qahramonlarining portretini chizishda ham qo'llaniladi. "Ravshan" dostonida qahramonlarning tashqi va ichki portretlari shoirning badiiy mahorati bilan shunday tasvirlanadiki, uni o'qigan o'quvchining ko'z o'ngida qahramon

⁶⁹ Yusupova. Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 23.

⁷⁰ Эргаш Жумангулбула ўғли. Равшан. – Т. 1941. – Б. 53.

bo'y basti bilan namoyon bo'ladi. Shoir tomonidan Zulxumor obrazi shunday tasvirlanadi: "Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o'tirgan. Ana Zulxumorning ko'zi *javdirab*, zulfi *shovdirab*, zulfining shu'lasi yuziga ursa, yarq-etib, betining shu'lasi zulfiga ursa, yashin tushganday bo'lib o'tiribdi. Ravshanbek qarasa, musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, simcha qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga, kiptiga tegib, uchib borayotibti"⁷¹".

Yoki Gulnora ta'rifi: "Gulnora ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin *so'zli*, g'azalay *ko'zli*, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush ayol, zehni *tez*, serfahm *qiz* edi"⁷²".

Oqqiz portreti ham shoir tomonidan mohirlik bilan tasvirlangan: "Oqqiz shunday qiz edi: oti *Oqqiz*, Zulxumorga *naq qiz*. Oqqiz o'zi *oq qiz*, o'zi to'lgan *og' qiz*, o'rta bo'yli *chog' qiz*, o'ynagani *bog' qiz*, uyquchi emas, *sog' qiz*, eri to'q o'zi — *toq qiz*, ko'p *kalondimog' qiz*, yaxshi — tekis bo'z bolani ko'rsa, esi to'q — *ahmoq qiz*, qora ko'z, *bodomqovoq qiz*, sinli-siyov *qiz*, o'zi semiz — *arishi yog' qiz*, o'yinga *qulayroq qiz*, to'g'ri ishga *bo'layroq qiz*, o'zi anqov *qayroq qiz*, tanasi to'sh qo'ygan *keng qiz*, sag'risi *do'ng qiz*, urushqov emas — *qo'n qiz*, a'zosi bari *teng qiz*..."⁷³".

Yuzaki qaraganda shoir tomonidan tasvirlanayotgan badiiy portretlar bir-birini takrorlagandek tuyuladi, biroq aslida bunday emas. Gulnora va Oqqiz chiroyli bo'lgani bilan odatdagi qizlardek, yana ham aniqrog'i realroq tasvirlangan. Zulxumorning go'zalligi esa ancha baland — ideal tasvirga yaqin: "... zulfining shu'lasi yuziga ursa, yarq-yurq etib, betining shu'lasi zulfiga ursa, yashin tushganday bo'lib o'tiribdi. Ravshanbek qarasa, musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, simcha qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga, kiptiga tegib-tegib, uchib borayotibti"⁷⁴".

⁷¹ Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. — T.: "Sharq", 2013. — B. 137-138.

⁷² Эргаш Жуланбулбул ўғли. Равшан. — Т. 1941. — Б. 54.

⁷³ Madayev Omonilla, Sobitova Tojixon. Xalq og'zaki poetik ijodi: Akad.liseylar uchun darslik. — T.: "Sharq", 2010. — B. 111.

⁷⁴ Yo'ldoshev Qozoqboy. Adabiy saboqlar: Umumta'lim maktablarining 7-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo'llanma. — T.: «Bilim» nashriyoti, 2003. — B. 12.

O'qituvchining vazifasi, o'quvchilarda matn ustida ishlash ko'nikmasini qilish maqsadida har uchala badiiy portretni qiyosiy tahlil qilib, har birining xos belgilarini aniqlash va o'quvchilarga aniq misollar bilan ko'rsatib berishdan iborat. Bu hol shoirning badiiy mahorati bilan bog'liqligini ta'kidlab, har bir qahramonning dostonida tutgan o'rni, mavqeyi, bajarayotgan badiiy yuki, vazifasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab ko'rsatish lozim.

O'zbek xalq dostonlariga xos bo'lgan an'anaviy motivlar haqida ham o'quvchilarga tushuncha berishda ularning deyarli barcha dostonlarga xos bo'lgan umumiy va o'ziga xos tomonlarini aytib o'tmoq lozim. Romantik dostonlarga xos xususiyatlardan biri qahramonning uzoq safarga otlanish motividir. Ota o'z o'g'lini uzoq safarga jo'natar ekan unga .oq yo'l tilashda ham barqaror an'analarga e'tiborsunadi. Xoh Go'ro'g'li, xoh Avazxon, xoh Hasanxon bo'lsin o'z farzadini tashlab uzoq va sernashaqqat yo'lga yuborishni xohlamaydi. Ularni yo'ldan qaytarishga harakat qiladi. Bu odatiy hol. Ota o'z farzandini bag'rida bo'lishini, xavf-xatardan himoya qilishini hamma vaqt istaydi, lekin hayot ham, doston sujeti ham otaning istagiga bo'sunmay real mantiqiy rivojlanishda davom etadi. Ota xavf-xatordan farzandini olis va xatarli yo'lga jo'natar ekan, faqat yaxshilik va ezgulik bilan nasihatlarini ayamaydi. Bu nasihatlar xalqimizning farzandlarini to'g'ri va oqillik bilan tarbiyalash yo'lida aytadigan ezgu niyatlarining badiiy ifodasidir. Dostonda Hasanxon o'g'liga shunday nasihat qiladi: " – E Ravshanjon! Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansan-da, - deb turib, asli mard emasmi, "Kel tavakkal-da", - deb ...o'zi dildorlik berib ...o'g'liga qarab necha yerdan timsol keltirib, nasihat qilib so'z aytayotir:

Eshitib ol, otang sho'rning arzi,

Elida sarg'aytding gulday tarzini.

Bir qiz uchun unutmagin bizlarni,

Unutma otang ham onang qarzini!⁷⁵

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

⁷⁵ Эргаш Жуманбулбул ўғли. Равшан. – Т. 1941. – Б. 72.

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
 Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,
 Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot⁷⁶.

Hasanxon polvon mard emasmi, bolasiga qarab, oq fotihani betiga tortib: -
 Bolam, manglayingni xudo ochsin! - deb qolaveradi. Ravshanbek otasidan
 olib, otining boshini solib, yo'lga ravona bo'lib ketaverdi⁷⁷ ". Demak,
 qahramon safarga otlar ekan, otaning nasihati butun xalqning farzandlariga
 tarqadigan dono o'giti sifatida namoyon bo'ladi.

Dostonda ota-bola o'rtasidagi uzoq safar oldidan berilgan dialog
 qahramonlarning ruhiy holatiga moslab aytiladi. Aynan shu o'rinda qahramonlarni
 shu dunyosi, ruhiy olami yuzaga chiqadi. Har bir qahramon dostonda shoir
 omonidan qanday ta'rif-tavsif etilsa, o'quvchining ko'z o'ngida ham shunday
 namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, o'zbek tili omonim so'zlarga boy til. Bu ayni paytda tajnis
 san'atining ko'plab namunalarini yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi.
 She'riyatimizda bu san'atni qofiya qilish asnosida maxsus tuyuq janri ham
 yaratilganki, bu janr faqat turkiy she'riyatdagina mavjud. Bunday namunalarini biz
 tahlil qilayotgan dostonda ham ko'plab uchratish mumkin. Jumladan,
 Hasanxonning Ravshanga hayrlashib qilayotgan nasihatidan:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
 Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
 Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,
 Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

misralarida tajnis san'ati qo'llanilgan. Buni tushuntirishdan oldin o'qituvchi tajnis
 san'ati faqat turkiy she'riyatda qo'llaniladigan tuyuq janri ekanligi haqida
 o'quvchilarga ma'lumot berishi lozim: "Bevosita turkiy adabiyotda shakllangan,
 qat'iy ramali musaddasi maqsur (foilotun, foilotun, foilun) vaznida yoziladigan,
 to'rt misradan iborat bo'lgan, misra oxirida radiflar omonim so'zlardan iborat

⁷⁶ Эргаш Жуманбулбул ўғли. Равшан. – Т. 1941. – Б. 73.

⁷⁷ Уша китоб, Б. 74.

etilgan she'r tuyuq deyiladi.⁷⁸ She'r baytida ma'no jihatdan har xil, ammo shakli har xil yoki shakllan bir-biriga yaqin bir necha so'zni keltirib, ular vositasida xayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'ati tajnis (ar. "xshash", "jinsdosh", "shakldosh") deyiladi⁷⁹.

Shirvonda bandi etilgan o'g'li haqidagi xabarni eshitgan Hasanxonning xalqatini o'quvchining ko'z o'ngida namoyon bo'lar ekan, uning Shirvon eli qaydasan o'g'li yo'lga chiqishi shoir tomonidan shunday bayon etiladiki, biz bandi o'g'lini qaytda qilish uchun jonini ham fido qilishdan qaytmaydigan mard va jasur otaning xalqatini, jasoratini anglaymiz, his etamiz. O'qituvchi o'quvchilarga doston tomonidan aynan shu o'rinlarni o'qib, qahramonning ruhiy olamini o'quvchiga tushirib berishga harakat qilish bilishi lozim:

"Sovutini bo'ktarib,
Qalqonini do'ngtarib,
Yo'lga tushdi mard Hasan
Shirvon elin axtarib...

Polvon Hasan dovushin
Sozlab ketib boradi.
Bek Ravshanni tinmasdan
Izlab ketib boradi..."⁸⁰

Qahramonning yo'l taassurotlari shoir tomonidan bayon etishda she'r baytining o'ynoqi va yengil bo'lishiga ahamiyat beradi. Xuddi ot yo'rtib yoki topib ketayotganidek, qahramonning ruhiyati ham shu kayfiyatda bo'ladi. She'rda bo'g'inlar va turoqlar soni shunga qarab o'zgarib boradi. Biz bunday dostonni barcha xalq dostonlari uchun tipologik hodisa hisoblagan qahramonning mardligi, jasurligi, botirligini namoyon qiluvchi jang lavhalarida ham ko'rishimiz

⁷⁸ Matchonov Safo, Sariyev Sharafjon. Adabiyot (Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma). – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2011. – B. 44.

⁷⁹ Уша киртоб. Б. 81.

⁸⁰ Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshibekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: «Sharq», 2013. – B. 142-143.

kin. Doston qahramonlari hamma vaqt faqat adolat uchun, yurtning ozodligi
ning farovonligi uchun, or-nomus, imon va din uchun jangga kiradilar. Shu
dostonlarda ro'y beradigan qonli janglar ham adabiyotning boshqa
laridagi janglardan farq qilib o'quvchida og'ir taassurot qoldirmaydi. Tushkun
fiyat uyg'otmaydi. Aksincha, o'quvchi dostonidagi kurash va jang lavhalarini
shavq bilan, qahramonga havas qilib tinglaydi yoki o'qiydi. Shuning uchun
dostonidagi ana shunday lavhalarni o'qituvchining ohang bilan o'qib bermog'i
asosadga muvofiqdir.

Yuqoridagi lavhada Hasanxonning yo'lda ketib borishi qulon quvishga,
yoqday qalqishga, bo'riday bo'zlashga (farzandini izlab), yo'lbarsday yo'rtishga
shatilmoqda. Birgina shu lavhadagi tasvirning o'ziyoq xalq dostonlarining
rang-barang va bo'yoqdorligiga misol bo'la oladi. Ushbu so'zlarni darsda keltirgan
o'qituvchi, boshqa dostonlardan, jumladan, "Alpomish"dagi Alpomishni Barchinni
Qalmoqqa borishi tasvirini o'qib, qiyoslashi mumkin.

"Ravshan" dostonida Hasanxon va aka-uka to'rt kal Ravshanni dor tagidan
qilish uchun Qoraxonga va uning lashkarlariga qarshi olib borgan kurashi
o'quvchilarda shunday kayfiyat uyg'otadi:

Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo'lsa maydondan,
Siz bir yondan, men bir yondan,
O't qo'y g'animning ustiga.

Oq badandan qizil qonlar
To'kildi maydon ichinda.
Nayzaga tegib kirovkalar
So'tildi maydon ichinda⁸¹.

Ushbu tasvir ham rang-baranligi bilan birga juda jonli chizilganligi sababli
hamiyatli hisoblanadi.

⁸¹ Эргаш Жуманбулбул ўғли. Равшан. – Т. 1941. – Б. 208.

“Ravshan” dostoni matn ustida ishlashda o‘qituvchi doston yaratilgan davr va bugungi adabiy til o‘rtasidagi farq borligini o‘quvchilarga tushuntirmog‘i lozim. Shuning uchun o‘qituvchi maktab darsligida berilgan “Ravshan” dostonining matnini o‘quvchilarga o‘qish uchun vazifa qilib berar ekan, o‘zlari uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning ro‘yxatini tuzib kelishni topshiriq qilib beradi. Badiiy ravishda o‘qituvchining o‘zi ham doston matni uchun alohida lug‘at tuzib o‘tishi maqsadga muvofiqdir. Bu lug‘at “So‘zlarning izohli lug‘ati” prinsipi asosida tuziladi. Lug‘at alifbo bilan tartibga solingani ma’qul. Bizningcha 7-sinf adabiyot darsligida berilgan dostonidagi so‘zlarning izohli lug‘ati quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiqdir: 4-ilova⁸².

Ilovada berilgan so‘zlarning izohli lug‘ati to‘rt soatlik dars jarayonida o‘qituvchiga asosiy dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

“Ravshan” dostonining matni ustida ishlash o‘qituvchidan g‘oyatda yuksak mas’uliyatni talab qiladi. Chunki o‘qituvchi birgina shu doston misolida butun tojik xalq dostonchiligi, uning mazmun-mohiyati badiiy adabiyotda tutgan o‘rni, taqdim etilgan ma’naviyatiga ta’siri, o‘quvchining komil inson bo‘lib yetishishidagi aksak vazifasi, xullas, dostonchilikka xos bo‘lgan badiiy estetik funksiya haqida ta’limot bermog‘i lozim.

“Ravshan” dostoni “Go‘ro‘g‘li” nasriy turkumining uchinchi bo‘g‘inidir. U o‘rinda birinchi va ikkinchi bo‘g‘in, ya’ni Go‘ro‘g‘li, Hasanxon haqidagi dostonlar to‘g‘risida ham umumiy tushunchalar berib o‘tish, maqsadga muvofiqdir.

Go‘ro‘g‘li o‘sinirlik davridayoq hali qahramon sifatida el-yurtda dovrug‘ ko‘rmagan, muqim bir yurtga podshohlik qilmagan davrida Hazrat Xizrga qo‘lliqqan edi. Hazrati Xizr undan tila-tilagingni deganda to‘rt tilak so‘radi. Ham bil yurtini, G‘irko‘k otini, go‘zal yorlarni va uzoq umr. Lekin Go‘ro‘g‘li tojik xalq uchun eng muhim bo‘lgan, hayotning mazmunini belgilab beradigan, davlatni davom ettiradigan farzand so‘ramadi. Buning uchun bir umr afsus nadomat ko‘rdi, umrini o‘tkazdi. Xalq o‘z qahramonini farzandsizligini yashirish uchun unga

⁸² Idoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo‘ldoshibekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablaringin uchun darslik-majmua. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 126-151.

asranda farzand qilib Hasanxon va Avazxonni o'zga mamlakatlardan olib keltirib beradi. Shu o'rinda o'qituvchi "Go'ro'g'li" va "Ravshan" dostoni o'rtasidagi bog'liqlikni o'quvchiga tushuntirmog'i lozim. Ya'ni xalq o'zi sevgan qahramonini faqat farzandligina qilib qo'ymay "Ravshan" dostoni orqali uning naslini ham davom etayotganligiga ishora qiladi. "Go'ro'g'li" turkum dostonlarning barchasida uning farzandsizligi haqidagi motivlar eslatib turilsa-da "Ravshan" dostonida uning farzandsizligi eslatilmaydi. Shu o'rinda o'qituvchi "Go'ro'g'li" turkum dostonlarining barchasida uchraydigan Go'ro'g'lining farzandsizligi haqidagi misralar:

"Chambilbelda ot qochirdim izi yo'q,

Go'ro'g'lining o'g'il tugul qizi yo'q".

"Ravshan" dostonida uchramasligini aytish lozim. Aslida "Ravshan" dostoni "Go'ro'g'li" turkum dostonlarining so'nggisi emas. Ayrim baxshilarda to'rtinchi qat'od. Ravshanning o'g'li haqidagi "Nurali" dostonining yozib olinganligini va tasvir etilganligini aytib o'tish lozim. Bu fikrlar doston matni ustida ishlashda o'qituvchiga yordamchi material sifatida xizmat qiladi.

Xullas, doston matni ustida ishlash doston badiiyatini, uning g'oyaviy xususiyatini, sujet va kompozitsiyasini, badiiy uslub va tasvir vositalarini, dostonning badiiy mahoratini ochib berishga yo'nalmog'i lozim.

3. 3. "Ravshan" dostonidagi badiiy obraz va mubolag'ali tasvir vositalarini o'rganish

I. Darsning maqsadi:

a) *ta'limiy maqsad* – o'quvchilarga badiiy obraz va mubolag'ali tasvir haqida nazariy ma'lumot berish;

b) *tarbiyaviy maqsad* – o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida, yuksak qadriyat ruhida tarbiyalash;

d) *rivojlantiruvchi maqsad* – o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

II. Asosiy tushuncha va atamalar: Ravshan, Zulxumor, Hasanxon, qonlik kampir ena, aka-uka kallar, Oqqiz, badiiy obraz, mubolagʻa.

III. Darsni tashkil etish texnologiyasi:

Turi: Aralash

Metod: “Rangli kartochkalar bilan ishlash”, “Yumaloqlangan qor o’yini”

Shakl: Guruhlarda va yakka tartibda ishlash

Usul: Ogʻzaki bayon, savol-javob

Vosita: Adabiyot darsligi, tarqatma materiallar, test, jadval, kompyuter, diaproyektor, fleshka

IV. Darsning rejasi:	3. Oʻtilgan mavzuni takrorlash (7 daqiqa)	6. Oʻzlik bilan ishlash (7 daqiqa)
1. Tashkiliy qism (3 daqiqa)	4. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)	7. Oʻquvchilar bilim- ni baholash (2 aqiqa)
2. Uy vazifasining nazorati (7 daqiqa)	5. Mustaqil ishlash (5 daqiqa)	8. Yakuniy fikrni ay- tib, uyga vazifa berish (2 daqiqa)

V. Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Bunda oʻquvchilar diqqatini dars jarayoniga qaratish uchun oldindan tayyorgarlik koʻrilgan kichik sahna koʻrinishini bir nechta oʻquvchilar yordamida koʻrsatib beramiz. *Sahna koʻrinish ssenariysiga namuna:*

Oʻquvchi (Baxshi):

...Ravshanbek bozorning ustidan kelib qolib, “Yorim Zulxumorjonni koʻrdim”, - deb, dimogʻi chogʻ boʻlib, vaqti xush boʻlib, bozordagi odamlarga qiziqib, bir soʻz aytib turibdi⁸³:

Oʻquvchi (Ravshan):

“Uzoqdan kelayotibman,

Gʻamning loyiga botibman,

⁸³ Yoʻldosh Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yoʻldoshbekov Jaloibek. Adabiyot: Umumiy oʻrta taʼlimning 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 134.

E yoronlar, birodarlar, birodarlar!
 Men yorimni yo'qotibman.
 E yoronlar, birodarlar, xaloyiq!
 Men yorimdan adashibman...

Bozor kelgan bozorchilar,
 Yo'lni kezgan guzarchilar,
 Tinmay elni kezarchilar,
 Jo'n savdoni buzarchilar,
 Qalpoq bozori qaysidi(r)?
 Changib yotgan un bozori,
 Bo'z bilan alak bozori,
 Attorda elak bozori,
 Rang, bo'yov, lok bozori,
 Paranj, jelak bozori,
 Qalpoq bozori qaysidi(r)?⁸⁴

O'quvchi (Baxshi):

Ravshanbek mast bo'lib, "qalpoq bozori qayerda", - deb baqirib borayotir
 Shu yerda bir nashavand turib edi, kayfi uchib ketdi. Ravshanbekka qarab

O'quvchi (Nashavand):

"Ey o'zbek! Muncha baqirasan, kayf degan narsadan qolmadi-ku! Sen
 burun ham hech bozorga boribmiding, ilgari bozorni ko'ribmiding? Anov
 qib yotgan un bozori, narigi qo'qib yotgan jun bozori, hu anav, katta do'kon -
 bozori bilan qin bozori, undan o'tding - qalpoq bozori-da, yurtini buzding-

⁸⁴ Qoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshbekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim
 7-sinf uchun darslik-majmua. - T.: "Sharq", 2013. - B. 134-136.
 85 Qoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshbekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim
 7-sinf uchun darslik-majmua. - T.: "Sharq", 2013. - B. 137.

Bu sahna ko'rinish orqali sershovqin, to'kis bozorlarimiz haqida to'xtalib
tamiz.

2. Uy vazifasining nazorati.

“Rangli kartochkalar bilan ishlash” metodidan foydalanamiz. Bunda ko'k
rangdagi kartochka savolining javobi, xuddi shu rangdagi kartochka berilgan
o'quvchida bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilar bevosita bir-birlarini kuzatib,
javoblarini nazorat qilib boradilar⁸⁷.

Amuna: Old tomoni

Orqa tomoni



1

Ushbu gaplarni qaysi qahramon aytgan:
“Men o'lmasam o'z elimdan
kechmayman! Aziz boshim oyog'ingga
teng emas”. J: Hasanxon Ravshanga



2

Ushbu nasihatni kim aytgan:
“Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot,
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi
ot”. J: Ravshanxon



1

Avazxonni kim tarbiya qiladi?
J: Bu yog'ida to'qson besh, u yog'ida
to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili
bor edi



2


Zulxunorning nechta kokili bor edi?
J: Og'a Yunus pari

3. O'tilgan mavzuni takrorlash.

“Yumaloqlangan qor o'yini” metodi (Ushbu metod o'quvchilarda guruh
shaklida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi⁸⁸.)

⁸⁷ K. Tazipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarining tadbirkor asoslari (Uquv qullanma). –
Tashkent: Mashriqi, 2006. – B. 165.
⁸⁸ K. Tazipov, B. 167.

O'quvchilar *uch guruhga* bo'linadi. Har bir guruhga quyidagi savol va topshiriqlar yozilgan qor parchalari shaklidagi qog'ozlar tarqatiladi.



4. Yangi mavzu bayoni:

Badiiy adabiyot hayotni, undagi insonlarning ruhiy holati, o'y-fikrlarini aks ettiradi. Hayot hamisha insonlarning tirikchiligi, mehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg'ulari, kechinmalaridan iborat. Adabiyotning tasvir mavzusi, avvalambor, insondir. Inson tasviri yo'q, u ko'zda tutilmagan joyda badiiy adabiyot ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra adabiyotshunoslik ilmida markaziy o'rinni egallovchi tushuncha ham obraz, qahramon yoki personaj tushunchasidir.


"Obraz – timsol tushunchalarining keng va tor ma'nolari mavjud. *Keng ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot*

manzarasini anglatga, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini qodalaydi. Biz bu o'rinda timsol tushunchasining ko'p qo'llaniladigan tor ma'nosi haqida fikr yuritamiz⁸⁹”.

Yozuvchi hayotni badiiy timsollar orqali tasvirlaydi. Shuning uchun ham biror badiiy asar o'qiganimizda unda aks ettirilgan voqelik ongimizda shu asarda tasvirlangan kishilarning obrazlari orqali muhrlanib qoladi. Mana, siz “Ravshan” dostonini o'qib chiqdingiz. Buning natijasi o'laroq, Ravshan, Hasanxon, Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersaklarning mahorat bilan chizilgan timsollari, Shirvon bozori, Zulxumorga qarashli bog'ning ajoyib-g'aroyib manzaralari xotirangizda mahkam qatnashib qoladi.

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi. Obrazlar bosh va epizodik turlarga bo'linadi. Asarning boshidan oxirigacha qatnashib, tasvirda muhim o'rin tutuvchi ishtirokchi bosh qahramon deyilsa, asarning bir-ikki o'rnidagina qatnashib, keyin tushib qoladigan ishtirokchilar epizodik qahramonlar deyiladi⁹⁰.

“Ravshan” dostonidagi



⁸⁹ Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshebekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim makrablarning 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 159.

⁹⁰ O'sha kitob. B. 160.

Badiiy asarlarning ta'sir darajasini oshirish, tasvirlanayotgan narsa, shaxs va voqea-hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli mubolag'a (ar. "lof urish, bo'rttirish") deyiladi. Sharq klassik adabiyatida mubolog'a san'atiga she'r ziynati sifatida qarab, "Ahsanahu kuzabahu" (*Eng yaxshi she'r – eng yolg'on she'rdir*) degan naqlga amal qilganlar⁹¹. Mubolag'a obrazni bo'rttirish orqali uning ta'sir kuchini oshirishga qaratilgan bo'ladi. "Ravshan" dostonida Hasanxonning g'azabi, Jaynoqning qahramoniy qudrati juda oshirib tasvirlangan o'rinlar ko'p uchraydi. Mubolag'a xalq dostonlarida juda ko'p qo'llaniladigan tasvir vositasidir.

Mumtoz adabiyotda behad orttirilgan mubolag'a



Aqlga sig'maydigan darajadagi mubolag'a⁹²

5. Mustahkamlash: Test

1. Timsol tushunchasi nima?

- keng ma'noda – hayot manzaralari, tor ma'noda inson siymosi
- keng ma'noda – butun mavjudot, tor ma'noda ijobiy qahramonlar
- shakl va mazmun uyg'unligi asosida badiiy siymo
- badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan

surat

2. Badiiy obraz deb nimaga aytiladi?

- keng ma'noda – hayot manzaralari, tor ma'noda inson siymosi
- keng ma'noda – butun mavjudot, tor ma'noda ijobiy qahramonlar
- shakl va mazmun uyg'unligi asosida badiiy siymo
- badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan

surat

⁹¹ Matchonov Safo, Sariyev Sharafjon. Adabiyot (Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma). – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2011. – B. 76.

⁹² Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshebekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: "Sharq", 2013. – B. 160.

3. "Ravshan" dostonidagi bosh timsollar kimlar?

a) Ravshan, Zulxumor, Go'ro'g'li

b) Ravshan, Zulxumor, Hasanxon

c) Ravshan, Zulxumor, Hasanxon, Avazxon

d) Ravshan, Zulxumor, Hasanxon, Go'ro'g'li

4. Badiiy asarlarning ta'sir darajasini oshirish, tasvirlanayotgan narsa, maxs va voqea-hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli nima deyiladi?

a) jonlantirish

b) mubolag'a

c) sifatlash

d) tashxis

5. Mumtoz adabiyotda aqlga sig'maydigan darajadagi mubolag'a qanday nomlanadi?

a) bulug'

b) ifrot

c) e'uluv

d) tablig'

6. Darslik bilan ishlash.

Guruhlar darslikdagi doston matnidan mubolag'ali tasvir vositalari so'zlanilgan o'rinlarni topib izohlaydilar.

Guruhlar javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin.

► "Aynog kal shunday edi: ot, tuya, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi"⁹³.

► "Jaynog juda masxaraboz edi, har tusli bo'la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi"⁹⁴.

► "Ersak kal shunday edi: Oqshomlari qo'lga kamonnini olsa, qushni ko'zidan urar edi. Juda mergan edi..."⁹⁵

► "Tersak kal sinchi edi: Yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi"⁹⁶.

⁹³ Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshibekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: "Sharq", 2013. – B. 144.

⁹⁴ O'sha kitob. B. 144.

⁹⁵ O'sha kitob. B. 144.

⁹⁶ O'sha kitob. B. 144.

► “Hasan polvon o‘zi olovday yonib, dudday tutanib turgan edi. Endi mardning g‘ayrati kelib, jazavasi qo‘zg‘alib, o‘g‘lining bu so‘zlarini eshitib, bir ne‘ra tortib yubordi, shu yerda turganlarning ko‘pi et-petidan tushib, aqli shoshib esdan adashib, ne botirman deganlari turolmay emaklashib, bari birday chuvlashib qoldi...”⁹⁷”

7. O‘quvchilar bilimini baholash.

O‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirganliklari, qo‘yilgan muammoli savollarga o‘z nuqtayi nazarlarini asoslay bilishlari, guruhlarda ishlash jarayonida bittaro bir-birlari bilan munosabatlari kuzatilib, baholanadi.

8. Yakuniy fikrni aytib, uyga vazifa berish.

158-sahifani o‘qib o‘rganish va doston matnidan mubolag‘ali tasvir hositalariga yana boshqa misollar topib, adabiyot daftarga yozib kelish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishimizning III bobi yuzasidan quyidagicha xulosalar chiqardik:

- “Ravshan” dostoni “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar orasida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o‘ziga xoslik Ravshan obrazining o‘spirinlarcha dala-g‘uliligi va ayni paytda ushbu-obrazdagi o‘zbek yigitlariga xos qat‘iyatida namoyon bo‘ladi. Bu dala-g‘ulilik bozordagi qizlarni o‘z eliga taklif etishida, do‘st-dushmani ajrata olmasligida, o‘z boshiga balo orttirishida namoyon bo‘lsa, qat‘iyat o‘z eliga va diniga bo‘lgan sadoqatida, yorni nomus o‘rnida ko‘rib, uni izlab jondan kechib safarga otlanishi kabi fazilatlarda yaqqol ko‘rinadi.

- o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida har uchala badiiy portretni qiyosiy tahlil qilib, har birining o‘ziga xos belgilarini aniqlash va o‘quvchilarga aniq misollar bilan ko‘rsatib berishdan iborat. Bu hol shoirning badiiy mahorati bilan bog‘liqligini ta’kidlab, har bir qahramonning dostonida tutgan o‘rni, mavqeyi, bajarayotgan badiiy yuki, vazifasi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlab ko‘rsatish lozim.

⁹⁷ Yo‘ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo‘ldoshekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 149.

- dars jarayonida o'qituvchi dostonda turli badiiy vositalardan, jumladan, mis, talmeh kabi badiiy san'atlardan qay tarzda foydalanganligini, doston asosiy qismlari rivoji va sur'atiga qarab, uning she'riy qismidagi turoqlar soni o'zgarib borishiga e'tiborni qaratishi va buning sabablarini o'quvchilarga tushuntirib berishi mumkin.

- ushbu doston o'tilayotgan paytda o'qituvchi doston matni ustida ishlash doston badiiyatini, uning g'oyaviy xususiyatini, syujet va kompozitsiyasini, badiiy uslub va tasvir vositalarini, shoirning badiiy mahoratini ochib berishga imkon beradi.

- dars o'tish jarayonida interfaol uslublarga murojaat etish, adabiyot darsligi, qo'llanma materiallar, test, jadval, kompyuter, videoproektor, fleshka kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, mavzuni qiziqarli yoritish o'quvchilar ongida mustahkam saqlanishi uchun "Rangli kartochkalar bilan ishlash", "Yumaloqlangan qor o'yini" kabi interfaol uslublarga murojaat etish mumkin.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishimiz yuzasidagi quyidagicha xulosalarga ega bo'ldik:

- xalq dostonchiligi o'zbek xalq og'zaki ijodida ahamiyatli, keng qamrovli, mazmunan va hajman yirikligi bilan o'ziga xoslikka ega bo'lgan badiiy-adabiy jarayondir. "Alpomish", "Bulung'ur" dostonchilik maktabining faxr-u iftixori bo'lgan doston hisoblanib, uni yodlash va dostonchilik yig'inlarida kuylash uchun yaxshi-shoirdan dostondagi voqealarni o'rganish va she'riy qismlarni yod olish bilan birgalikda maromiga yetkazib ijro etish talab qilingan;

- o'zbek xalq dostonlari orasida "Alpomish" xalqimizning ko'pgina xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu xususiyatlarni o'qituvchi yaxshi bilishi va mavzuni o'qitish jarayonida o'quvchilar e'tiboriga singdira olishi kerak;

- "Alpomish" dostonida o'zbek xalqining bir qator milliy xususiyatlari: Vatanga muhabbat, do'st va yorga sadoqat, jo'mardlik va halollik kabilar tarannum etiladiki, dostonni o'quvchilarga o'rgatayotgan o'qituvchi mavzuning mana shu xususiyatlariga alohida e'tibor berishi, jumladan, o'zbeklarda keksalar, hatto, ular qul bo'lsa ham doimo ardoqlanganligini misollar orqali tushuntirib, misol tariqasida "O'tkan kunlar" romanidagi Hasanali va Otabek o'rtasidagi suhbatni doston bilan qiyoslashi mumkin;

- Dostonda inson ruhiyatining go'zal badiiy lavhalarda aks etishini Alpomish bilan Barchin orasidagi munosabatda, ularning so'zlashuvida, Alpomish va Qorajon o'rtasidagi qiyomatli do'stlik tasvirida, Alpomishning qalmoq elidagi yetti yillik asirlikdan qaytib, o'z yurtiga kelgandan so'ng o'zini aynan Qultoyga tanitishi kabi lavhalarda ko'rish mumkin. Ushbu lavhalarda Vatanparvarlik, yor va do'stga sadoqat, vaf o kabi tuyg'ular tarannum etiladiki, bu mavzuni o'tishda o'qituvchi aynan shu lavhalarga alohida e'tibor berishi orqali yosh avlod qalbiga milliy tuyg'ularni joylashi mumkin bo'ladi;

- Ko'pgina xalq dostonlari kabi "Kuntug'mish"da ham milliy va umuminsoniy qadriyatlar, jumladan, ota-bola munosabati, farzand tarbiyasi,

larning ishq-muhabbatga qarashi, taqdir tadbiri, do'stlik va unga turfa xil munosabat kabi g'oyalar yuksak badiiy lavhalarda kuylangan. Dostonning didaktik ahamiyati esa mana shu voqealarga qahramonlarning munosabati, ishq-muhabbat do'stlikni qadrlashi, farzand tarbiyalash va uni tushuna bilish, taqdirga boshqarish, hayot uchun kurash kabi umuminsoniy va ayni paytda sof milliy xususiyatlarda namoyon bo'ladi. O'qituvchi ushbu dostonni o'tish jarayonida asarning mana shu tomonlariga alohida e'tibor qaratishi, asarning tarbiyaviy ta'atini ochib berishga ayrima ahamiyat berishi kerak;

- "Kuntug'mish" dostonida Gurkiboy va Mohiboylar, ya'ni egizak mahzodalar o'zlari tarbiya topgan muhit tufayli ikki xil xarakterli o'smirlar bo'lib yetishganliklari juda hayotiy lavhalarda badiiyatning yuksak namunalari sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga dostonda bola tarbiyasida muhitning ta'siri tabiiy va ta'sirchan tasvirlanishi bilan birgalikda o'smir dunyoqarashining, tabiatining o'zgarishi ham hayotiy dalillar bilan ishonarli va go'zal chizgilarda ifodalangan. O'qituvchi mavzu bayonida dostonning mana shu tomonlariga alohida ahamiyat bersa, darsdan ko'zlangan maqsad yanada yuksakroq bo'lishi mumkin;

- 8-sinf darsligida "Kuntug'mish" dostonini o'rganish uchun 4 soat ajratilgan. Ushbu darslarni o'tishda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar ko'zda tutilgan. Jumladan, ta'limiy maqsadda asarning badiiy jihatdan to'laqonli mukammal voqe bo'lishiga xizmat qilgan badiiy unsurlar haqida ma'lumot berish, tarbiyaviy maqsadda doston mohiyatini idrok qilish, qahramon ruhiyatini his etish, o'zaro hurmat, do'stona muhabbat ruhida tarbiyalash ko'zda tutilgan bo'lsa, rivojlantiruvchi maqsadda esa o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish kabilar nazarda tutilgan. Bundan tashqari dars jarayonida "Asar qahramonlariga tavsif" "Guruhlarda ishlash", "Topqirlar bellashuvi" kabi interfaol metod va uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi;

- "Ravshan" dostoni "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar orasida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslik Ravshan obrazining o'spirinlarcha dali-g'uliligi va ayni paytda ushbu obrazdagi o'zbek yigitlariga xos qat'iyatida

namoyon bo'ladi. Bu dali-g'ulilik bozordagi qizlarni o'z eliga taklif etishida, do'st-dushmani ajrata olmasligida, o'z boshiga balo orttirishida namoyon bo'lsa, qat'iyat o'z eliga va diniga bo'lgan sadoqatida, yorni nomus o'rnida ko'rib, uni qizlab jondan kechib safarga o'tlanishi kabi fazilatlarida yaqqol ko'rinadi;

- o'quvchilarda matn ustida ishlash ko'nikmasini hosil qilish maqsadida Gulonor, Oqqiz va Zulxumorning badiiy portretini qiyosiy tahlil qilib, har birining o'ziga xos belgilarini aniqlash va o'quvchilarga aniq misollar bilan ko'rsatib berishdan iborat. Bu hol shoirning badiiy mahorati bilan bog'liqligini ta'kidlab, har bir qahramonning dostonida tutgan o'rnini, mavqeyi, bajarayotgan badiiy yuki, vazifasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab ko'rsatish lozim;

- dars jarayonida o'qituvchi dostonida turli badiiy vositalardan, jumladan, tajnis, talmeh kabi badiiy san'atlardan qay tarzda foydalanganligini, doston voqealari rivoji va sur'atiga qarab, uning she'riy qismidagi turoqlar soni o'zgarib borishiga e'tiborni qaratishi va buning sabablarini o'quvchilarga tushuntirib berishi kerak bo'ladi;

- ushbu dostonlar o'tilayotgan paytda o'qituvchi dostonlar matni ustida ishlash jarayonida doston badiiyatini, uning g'oyaviy xususiyatini, sujet va kompozitsiyasini, badiiy uslub va tasvir vositalarini, shoirning badiiy mahoratini ochib berishga yo'nalmog'i darkor;

- dars o'tish jarayonida interfaol uslublarga murojaat etish, adabiyot darsligi, tarqatma materiallar, test, jadval, kompyuter, videoprojektor, fleshka kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, mavzuni qiziqarli yoritish va o'quvchilar ongida mustahkam saqlanishi uchun "Muloqot", "Fikriy hujum", "Klaster", "Aqliy hujum", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash", "Qarama-qarshi munosabat", "Test", "Insert" kabi interfaol metodlarga murojaat etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (1999-yil, 6-avgust) //Xalq ta'limi j. № 5.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimini darslik bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori (1998-yil, 5-yanvar № 4) //Ta'lim taraqqiyoti j. 1998. № 1
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa konserni. 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi qonuni (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan) / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa konserni. 1997.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

5. Каримов, Ислон Абдуғаниевич. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор / И.А.Каримов. – Тошкент. – Ўзбекистон, 2009. 40 б.
6. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 432 b.
7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: «Ma'naviyat», 2008 – 176 b.
8. Karimov I.A. Vatan va xalq mangu qoladi: (Hikmatli so'zlar va iboralar to'plami) – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 136 b.
9. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – Toshkent: O'zbekiston. 1995.

III. Asosiy adabiyotlar

10. Abduraimova M. va boshqalar. Ona tili. 6-sinf: O'qituvchilar uchun

metodik qo'llanma. – T.: “Sharq”, 2012. – 240 b.

11. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent. Fan va texnologiya. 2009-yil. 642 bet.

12. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, Sharq. 2001-yil.

13. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. va boshqalar. Adabiyot: 9-sinf: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: “Ma'naviyat”, 2002. – 160 b.

14. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. va boshqalar. Adabiyot: 9-sinf: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: “Ma'naviyat”, 2002. – 160 b.

15. Madayev Omonilla, Sobitova Tojixon. Xalq og'zaki poetik ijodi: Akad.litseylar uchun darslik. — T.: “Sharq”, 2010. — 208 b.

16. Mahmudova N. va boshqalar. Ona tili: 7-sinf: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: Tafakkur, 2011. – 160 b.

17. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi. Respublika ta'lim markazi. Uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9-sinflar). – T.: «Yangiyo'l poligraph service», 2010. – 196 b.

18. Olim Sultonmurod, Ahmedov Sunnat, Qo'chqorov Rahmon. Adabiyot 8-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanama /S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 160 b

19. Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot 8: darslik-majmua (I qism). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. –192 b

20. To'xliyev Boqijon. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010-yil. – 168 b.

21. Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshbekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: “Sharq”, 2013. – 368 b.

22. Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshbekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik.

Qayta ishlangan 3-nashri. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. – 200-b.

23. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Adabiy saboqlar: Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo‘llanma. – T.: “Bilim” nashriyoti, 2003. – 144 bet.

24. Алпомиш; Рустамхон / [Сўзбоши муаллифи М. Муродов]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 448 б.

25. Журабой ўғли Бекмурод. Холбека. (Достон). (Айтувчи: Бекмурод Журабой ўғли. Ёзиб олувчи ва нашрга тайёрловчи З. Хусанова. Масъул муҳаррир М. Саидов), Т., “Фан”, 1967. 144 бет.

26. Зуннунов Аскар. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар: Ўқитувчилар учун қўлланма. Қайта ишланган 2-нашри. – Т.: “Ўқитувчи”, 1980. – 196 б.

27. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик инжоди. Т., “Ўқитувчи”, 1990

28. Ишмухамедов Р., Абдукодилов А., Пардаев А. Тарбияда инноватсион технологиялар. – Т.: Истеъдод, 2010. – 141 б.

29. Йўлдошев, Қозокбой. “Алпомиш” талкинлари ёки достон бадийати ҳамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикрлар. – Т.: “Маънавият, 2002. – 168 б.

30. Ниязметова Туйғунбой. Адабий таълим муаммолари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 120 б.

31. Нурмонов Абдуназар, Икромов Исомиддин, Бойназаров Файзулла. Янги педагогик технология асослари. (Интерфаол дарслар) Инновация қараёни. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007. – 56 б.

32. Олимжон Ҳамид. Уч томлик танланган асарлар. (Учинчи том. Ёшлар, очерк, танқид, публицистика). – Т.: Ўз ССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1960. – 430 б.

33. Толипов Ҳ. К., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг таъликий асослари (Ўқув қўлланма). – Т.: “Фан” нашриёти, 2006. – 261 б.

34. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2006. – 182 б.
35. Тўхлиев Боқижон. Адабиёт ўқитиш методикаси: амалий ва лаборатория машғулоти. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 144 б.
36. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим вазирлигининг ахборотномаси. 1-махсус сон. Умумий ўрта таълимнинг ДТС ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили (таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактаблар учун). – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 1999. – 304 б.
37. Фозил Йўлдош ўғли. Алпомиш. (Достон). (Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи Маҳмуд Зарифов. Қисқартириб, биринчи марта нашрга тайёрловчи Ҳамид Олимжон. Қайта нашрга тайёрловчи: Ҳоди Зариф ва Тўра Мирзаев), Т., “Ўзбекистон” нашриёти, 1992.
38. Хусанбоева Қундузой. Таҳлил – адабиётни англаш йўли: - Тошкент. “Мухаррир” нашриёти, 2013. 432 бет.
39. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Кунтуғмиш. (Достон) (Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. Ёзиб олувчи: Муҳаммад Исо Ерназар ўғли, нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф) Т., “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1975. – 264 б.
40. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Равшан. (Достон) (Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. Ёзиб олувчи ва нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф) Т., 1941. – 222 б.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

41. Umarov S., Qudratova I., Mahmudov J. Adabiyot fanidan test savollari to'plami: umumta'lim maktablarining 5-9-sinflari va kollejlar uchun darsliklar hamda akademik litsey majmualari Asosida. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2014. 444 b.
42. Andaniyozova Dilrabo, Andaniyozova Gavhar, Muqimova Zohida.

Hozirgi o'zbek adabiy tili (oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar ona tilimizni mustaqil o'rganuvchilar uchun qo'llanma) to'ldirilgan nashr. – T., "Adabiyot uchqunlari", 2014. – 584 b.

43. Asallavev A. va boshqalar Badiiy san'atlar. – T.: TAFAKKUR, 2015–24 b.

44. Bolalar ensiklopediyasi, 5-nashri. – T.: "O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2012. – 664 b.

45. Erkaboyeva Nargiza. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. (5000 savolga 5000 javob) – T.: Akademnashr, 2012. – 448 b.

46. Matchonov Safo, Sariyev Sharafjon va boshqalar. Adabiyot (Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma). – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2011. – 384 b.

47. O'zbek tilining imlo lug'ati / tuzuvchilar: Rahmatullayev Sh., Xojiyev A. 3-nashri. – T.: "O'qituvchi", 2011. – 240 b.

48. Qodirov V. Adabiyot. 9-sinf o'quvchilari uchun qo'llanma. – Andijon: 2015. – 60 b.

49. Quronov Dilmurod va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. Akademnashr. 2010-yil. 380 b.

50. Xudoyberdiyev Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Sharq. 2008-yil. 368 b.

51. Yusupova, Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 592b.

52. Матчонов Сафо. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар (Ўқитувчилар учун методик қўлланма). – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

53. Hakimov Munisjon. Adabiyot – tarbiya vositasi. Til va adabiyot ta'limi j. // 2013-yil. № 5. 3-5-betlar.

54. Muhamedova Feruza. Darslarda zamonaviy metodlardan foylanish. Til va adabiyot ta'limi j. // 2013-yil. № 12. 17-19-betlar.

55. Quvvatova Dilrabo. Poema janridagi izlanishlar. Til va adabiyot ta'limi j.

// 2013-yil. № 6. 34-36-betlar.

56. Давр ва ижод муаммолари: илмий-назарий конференция материаллари / жамoa. – Т.: “Tamaddun”, 2015. – 240 б.

57. Ёрматов И. Алпомиш достонининг жанр ва бадий хусусиятлари. Фил. фан. докт. ...дисс. – Тошкент: 1994. – 295 б.

58. Музаффарова Соҳибжамол. Ўзбек халқ йиғи-йиғловларининг поэтикаси. Фил. фан. ном. ...дисс. Автореферат. – Тошкент: 2004. – 26 б.

59. Файзиева Холида. “Алпомиш”, “Гуруғли”дан атайинми, ёронлар! Hurriyat g. № 19 (926). 2015-yil 29-aprel.

VI. Internet saytlar

60. <http://majmua.tdpu.uz>

61. www.kino.uz

62. www.kitob.uz

63. www.pedagog.uz.

64. www.referatlar.uz

65. www.uzapi.gov.uz.p....pdf

66. www.uzedu.uz

67. www.zivonet.uz



DUNYO XARITASI

Asar qahramonlari	Tavsif
Kuntug'mish	No'g'ay podshohlaridan Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podshohning yolg'iz o'g'li. O'z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson.
Xolbeka	Zangar podshohlaridan Buvraxonning Shoir ismli vazirining qizi. Hamiyatli, g'ururi baland qiz. O'z so'zida turadigan, barcha hunarlarga mohir. O'zi qanchalik bir ishga mohir bo'lsa, bo'lajak jufti halolidan ham shuni talab qiladi. Shu ma'noda Xolbeka o'z xulqi va fazilatları bilan har jihatdan Kuntug'mishga teng va munosib.
Gurkiboy	Kuntug'mishning bo'ri – olib qochgan o'g'lining ismi. Bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan yigit.
Mohiboy	Kuntug'mishning baliq – yutgan o'g'lining ismi. Biroz shaddot, biroz quv yigit.
Azbarxo'ja	Zangarlik bir savdogar. Dastlab Kuntug'mish bilan do'stlashib, so'ng o'z manfaatini deb unga xiyonat qilgan qahramon.
Qosim	Azbarxo'janing karvonidagi insofli, diyonatli yigit. "U, agar Kuntug'mish zora o'ziga kelsa, bir kunlik-yarim kunlik yo'lga bir ko'za suv, ozroq ovqat qoldirib ketaveradi".

Ajalli – ajali yetgan.

Alak – bozorning turi, olacha.

Alqim – shiddat, epkin.

Bachalar – bolalar, bolachalar.

Bandi – duoli yozuv, tilsim.

Bandiga olgan – asirga olgan.

Barak – chuchvara.

Bo'ktarmoq – egar orqasiga bog'lamoq.

Bohunar – hunarli.

Bol Avaz – Avazning "asalday shirin" ma'nosini bildiruvchi laqabi.

Botamiz – tamizli, mazali.

Bulg'ab – silkitmoq, imlamoq, undamoq.

Bulon – yovvoyi ot.

Buyir – biqin.

Buzarchi – buzuvchi.

Dim – also, hech.

Do'ngtarmoq – yelkasiga do'ng tomonini sirtiga qilib, to'ntarib osib olmoq.

Quzarchilar – o'tkinchilar.

Hudaychi – arzo'g'y bilan hukmdor o'rtasida turadigan mansabdor.

Isfihon – isfihon shahrida yasalgan keskir qilich.

Ishqib – ishqilib.

Iskamoq – hidlamoq.

Jaynadi – yashnadi.

Jazoyil – nayza.

Jelak – ayollarning yenglari bir-birlariga chatilgan yoping'ichi.

Jiziq – kuydirilgan quyruq, jizza.

Jo'n – to'g'ri, jo'n.

Kechkisin – kechqurun, kechki ovqat.

Kipt – kift, yelka.

Kirovka – sovut ichidan kiyiladigan metall nimcha.

Ko'tar qo'lingni – "Duo qil" ma'nosida

Kuni kechar – kuni o'tar.

Masxaraboz kal – qiyofasini o'zgartira oladigan Jaynoq ko'zda tutiladi.

Mehr-u moh – quyosh-u oy.

Mursak – yengsiz paxta kamzul.

Murt – mo'lovi.

Navdaraxt – novdaday, yosh daraxtday tik qomatli.

Nigin – uzuk.

O'dag'a – "yetakchi", "sardor" ma'nosidagi "o't og'a" so'zining buzilgani.

O'mgan – ko'krak, tosh.

O'mirovli – ko'krakdor.

Pilla – palla, vaqt.

Po'pakli – popukli.

Qadama og'och – og'och butoqlaridan tayyorlangan qoziqlar yerga qadab o'ynaladigan bolalar o'yini.

Qala – shahar.

Qalachi – shaharlik.

Qalpoq – do'ppi.

Qarsoq – tulkidan kichikroq yirtqich.

Qo'qimoq – ifloslanmoq, tartibsizlik.

Qoralab – mo'ljallab, chamalab, yashirinib.

Qotmoq – qorishtirmoq.

Qulon – yovvoyi eshak.

Salloli – qassob.

Salom og'asi – sarovdagi qabul tartibini nazorat qiluvchi amaldor.

Sinlamoq – chamalamoq, tanimoq.

So'na – o'rda.

Sovuq shamol yemagan – "shashu qaytmagan". "og'ir gap eshitmagan" ma'nosida

Talab ayladi – xohladi, ixtiyor etdi, bormoqchi bo'di.

Taraq qos bo'ylamoq – uchadigan qushday bo'lmoq.

Tingjiramoq – yaltiramoq, ko'zni olmoq.

Tishladi – joyiga tushdi.

Tolib – talabgor.

Tovun – tegishli, qarashli, tobe.

Tumanda – tubanda, quyida.

Tumoq – bo'yinni ham berkitadigan telpak. Ko'proq tulki terisidan tikiladi.

Turpa – turfa, har xil.

Uchcha – tos suyagi bilan son suyagining birlashgan joyi. Bu yerda "jin urgur" ma'nosida

Uzamay – uzoqlashmasdan.

Uzik – yetuk, kamchiliksiz.

Vallamat – bu yerda Go'ro'g'li ko'zda tutilmoqda.

Xossaki – maxsus, alohida, xos.

Yo'rtib – lo'killab.

Yobi – cho'bir, qirchang'i⁹⁹.

Chengnamoq – aniqlamoq, bilmoq. Bu yerda "O'z holini bilmas" ma'nosida

⁹⁹ Yo'ldoshev Qozqoboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshibekov Jalolbek. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: "Sharq", 2013. – B. 126-151.

**A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti O'zbek tili va
adabiyoti fakulteti 5A111201 -"O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi
magistranti Qahramon Sindarovning 2013-2015 yillardagi
ilmiy ishlar ro'yxati**

№	Ishning mavzusi	Nashr etilgan yoki qo'lyozma	Nashr etilgan manba, yili, joyi	Ham muallif	Hajmi
1	Tohir Malik asarlarining sintaktik xususiyatlariga doir	Nashr etilgan	"O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari № 7. 2013-yil 17-oktabr	A.U.s monov	3-bet
2	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni yuzasidan hamkorlikda o'qitish texnologiyasi	Nashr etilgan	"Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish: Tarix, tajriba va texnologiya" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2014 yil 11-mart	A.U.s monov	5-bet
4	Xalq dostonlarining o'rta ta'lim tizimida tutgan o'rni	Nashr etilgan	"Davr va ijod muammolari" ilmiy - nazariy konferensiya materiallari		3-bet
5	"Alpomish" dostonida Barchin obrazi	Nashr etilgan	"Ayol – ma'naviyat gulshani" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2015 yil 15-16-may		3-bet
6	"Alpomish" dostonini o'rganish usullari	Nashrda	"Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2015-yil 12-iyul		5-bet
7	"Kuntug'mish" dostonida bola tarbiyasining badiiy-estetik ifodalanishi	Nashrda	"Sharq yulduzi" jurnali 2015-yil 4-sonida		4-bet

Magistrant:



Q. T. Sindarov

**Sindarov Qahramon Tolliboyevichning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida
xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi (Xalq dostonlari misolida)"
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

XULOSASI

Sindarov Qahramon Tolliboyevichning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi (Xalq dostonlar misolida)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi 5A111101-O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi doirasida magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan.

Yoshlarni xalq og'zaki ijodimizning boy va bebaho ilmiy madaniy meroslarisiz tarbiyalab bo'lmaydi. Shu asnoda tariximizni, milliy o'zbek adabiyotini o'rganmasdan turib, kelajakni yaratib bo'lmaydi. Magistrant o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan xalq og'zaki ijodini (xalq dostonlari misolida) o'rganar ekan, u maktablarda xalq og'zaki ijodini o'qitish va ularni o'rganish borasidagi ishlar samarasi kundan-kunga ortib, ularning ma'naviy ta'siri, tasavvurlar xazinasini tobora kengayib borayotganligini va bu sohada biror bir ilmiy yangilik joriy qilish bugungi kun metodikasining dolzarb masalalaridanligini muhim deb biladi va ilmiy muammo sifatida kun tartibiga qo'yadi. Tadqiqotning dolzarbligini xuddi ana shu narsa belgilaydi.

Qahramon Sindarovning magistrlik dissertatsiyasida o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish borasida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatish va undan kerakli xulosalarni chiqarib, ularning milliy qadriyatlarga asoslangan ongini, ma'naviy dunyosini shakllantirish borasidagi muhim tomonlar o'rganiladi. Mana shu o'rganish jarayonida tadqiqotda xalq og'zaki ijodini yangicha pedagogik tafakkur tamoyillariga tayanib o'rgatish masalasi tadqiqot obyekti sifatida ochib berilgan. Dars jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarning ijodkorligini, faolligini oshirish, mashg'ulot samaradorligini kuchaytirish, o'quvchilarda mavzu uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni internet tarmog'idan izlash va topish borasida malaka va ko'nikmalarni hosil qilishga erishiladi. Olingan ma'lumotlarni darslikdagi ma'lumotlar bilan solishtirib, xulosa chiqarish, o'quvchilarda mustaqil

fikrlash voqea va hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirib olishni shakllantiradi, bu ishning ilmiy yangiligini ham belgilaydi.

Talaba umumiy o'rta ta'lim maktab o'quv dasturiga kiritilgan "Alpomish", "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlarini o'rganishda ta'lim tizimining noan'anaviy shakllaridan foydalangan holda yangi pedagogik texnologiyaning turli vositalarini ijodkorlik bilan qo'llab, xalq dostonlarining ijtimoiy-tarbiyaviy vositaligini, muhimi, o'quvchilarda estetik didni shakllantirishda muhim badiiy ahamiyatga egaligini ochib berishga harakat qiladi.

Dissertatsiyada adabiyotshunoslik fanida bugungi kunda keng qo'llanilayotgan qiyosiy tipologik uslubni asos qilib olgan. Dissertantning fikricha, xalq dostonlarini xalq tarixi, qadimgi turkiy xalqlar urf-odatini bilan qiyosiy o'rganish muhim amaliy natijalar beradi. Folklorshunoslikdagi mifologik tadqiq usuli xalqimizning totemistik va anemistik qarashlariga borib taqaladigan qadimiy miflarni dostonlar bilan bog'lab o'rganish, bu dostonlarimizning ildizi xalqimizning davlat sifatida shakllanishiga borib taqaladi, deydi dissertant.

Tadqiqot bilan tanishish jarayonida uning muallifidagi ilmiy izlanishga chanqoqlik, qalam mehnatidan cho'chimaslik, mustaqil fikr va mushohadaga moyillik seziladi. Aytish mumkinki, dissertant tadqiqotda ko'tarilgan muammo yechimiga doir materiallarni, faktlarni to'plash, saralash muhimini nomuhimdan ajratish, umumiy xulosalarga kelish, asosiy mohiyatni yuzaga chiqara olish, asosli, dalilli fikrlash va bayon qilishning yo'llarini o'zlashtirib olgan.

Dissertant har bir bobning uchinchi fasli sof amaliy xarakterga egaligini dars ishlanmalari orqali ochib bergan. Va albatta, Xalq og'zaki ijodining ta'lim tizimida o'rganilishi, o'tiladigan mavzuning samarali bo'lishi uchun yangi pedagogik texnologiyaning qanday usullaridan foydalanish zarurligi, texnik vositalar, jumladan, kompyuterdan foydalanish yo'llari haqida uslubiy tavsiyalar beriladi. Ilmiy obyektivlik va xolislik bilan tadqiqot oxirida chiqarilgan xulosalar, to'xtamlar o'zbek xalq og'zaki ijodi, adabiyot o'qitish metodikasi sohasidagi mutaxassis va amaliyotchi o'qituvchilar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'z faoliyatlari davomida bimalol foydalanishlari mumkin.

Sindarov Qahramon Tolliboyevichning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi (Xalq dostonlar misolida)" mavzusidagi dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining magistrlik dissertatsiyasiga qo'yilgan talablar darajasida bajarilgan. Uni tugallangan ilmiy tadqiqot sifatida ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:



dots. A. Tangirov

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi bitiruvchi kurs magistranti Sindarov Qahramonning
"Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi
(Xalq dostonlari misolida)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga
f.f.n. A. Tursunqulov tomonidan**

TAQRIZ

"Alpomish" dostonining yaratilganligi rasmiy doiralarda 1000 yil deb belgilangan bo'lsa ham, folklorshunos olimlar dostonidagi an'anaviy motivlarning yuzaga kelishini 3000 yillikka borib taqamoqda. Bu holat dostonning dastlab mif, afsona, ertak shaklida ham bo'lganligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda "Alpomish" dostoni turkiy xalqlarning chinakamiga qadimiy va qomusiy eposi ekanligi jahon miqyosida tan olindi.

Turkiy xalqlar (turk, ozarbayjon, qozoq, qoraqolpoq va boshqalar) va o'zbek folklorshunos olimlar tomonidan "Alpomish" dostoni keng ko'lamda tadqiq qilingan. Lekin uning ta'lim tizimida o'qitilishi, yosh avlodni milliy g'oya mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash masalalari ayrim monografiyalarda va o'quv darsliklarida yo'l-yo'lakay xrestomatik tarzda bayon etilgan, xolos. Shu sababli Sindarov Qahramon "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi (Xalq dostonlari misolida)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida "Alpomish", "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlarining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilishiga bag'ishlanishi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Bu ishni kelajakda o'rta ta'lim doirasidagina emas, umuman, oliy ta'lim yo'nalishlarida ham monografik tadqiq qilish qiziqarli ilmiy yechimlarni olib kelishi shubhasiz.

Dissertatsiyaning tuzilishi tashqi ko'rinishdan an'anaviydek tuyilsa-da, har bir dostonni alohida-alohida bob sifatida fasllarga bo'lib tahlil qilishi va boblarning uchinchi faslini bevosita bir soatlik dars ishlanmasiga bag'ishlashi, ishning uslubiy jihatdan amaliy ahamiyatini ta'minlagan.

“Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan” dostonlari o‘zbek xalq dostonlarining gultojidir. Ularsiz dostonchiligimiz qadimiyligi va badiiyligi jihatidan xira bo‘lib qoladi. Shu sababli ularning umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quv rejasiga kiritilishi ham bejizga emas. O‘qituvchi bu mavzularni yuzaki emas, balki chinakam badiiyatining daho asarlari sifatida tahlil qilishi uchun bu asarlarning g‘oyasi, yaratilish tarixi, didaktik ahamiyati, obraz va personajlarning qadimiyligi kabi masalalarni o‘zi ham yaxshi bilmog‘i lozim. Dissertantning xizmati ham aynan ana shu masalalar bilan bog‘liqligi ishning qimmatini oshirgan.

Dissertatsiyada ilgari surilgan asosiy fikrlar, chiqarilgan ilmiy xulosalar kelajakda uslubiy tavsifanoma sifatida nashr etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Dissertatsiya mavzusi folklorshunoslikda uslubiy jihatdan ishlangan ilk mavzulardan bo‘lganligi sababli unda ayrim kamchiliklarning uchrashi ham tabiiydir. Bu kamchiliklar juz‘iy xarakterda bo‘lib, dissertantning kelgusi ishlarida hisobga olinishiga ishonaman.

Aytish mumkinki, dissertant tadqiqotda ko‘tarilgan muammo yechimiga doir materiallarni, faktlarni to‘plash, umumiy xulosalarga kelish, asosiy mohiyatni yuzaga chiqara olish, mustaqil fikrlash va bayon qilishning yo‘llarini o‘zlashtirib olgan.

Xullas, Sindarov Qahramonning “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida xalq og‘zaki ijodini o‘qitish metodikasi (Xalq dostonlari misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan magistrlik dissertatsiyasi uchun qo‘yilgan talablarga to‘liq javob berganligi sababli tadqiqotni a‘lo baholayman.

Taqrizechi:



f. f. n. Abbos Tursunqulov

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bitiruvchi kurs magistranti Sindarov Qahramonning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi (Xalq dostonlari misolida)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ

O'zbek adabiyot tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan adabiy merosimizning asosiy qismi xalq og'zaki ijodi asarlaridir. Bu og'zaki ijodning hajman yirigi va go'zali o'zbek xalq dostonlari hisoblanadi. Dostonlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish bir tomondan o'zbek adabiyotshunosligida xalq dostonlarining yetakchi unsurlarini o'rganishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanishga da'vat etadi. Xalq dostonlarini o'qitish va bu sohada biror ilmiy yangilik joriy qilish bugungi kun adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan sanaladi.

Dissertatsiya "Kirish", "Xulosa" va "Foydalanilgan adabiyotlar" ro'yxatidan tashqari uch bobdan iborat.

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, ish tarkibining qisqacha tavsifi haqida fikr yuritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Alpomish" dostonini o'qitish uslubi" deb nomlanib, uch faslni o'z ichiga oladi. Birinchi faslda xalq dostonlari, ularning turlari, dostonchilik kechalari, xalq baxshilari haqida so'z boradi. Ikkinchi faslda o'quvchilarga o'zlari tug'ilib o'sgan va yashayotgan yurtga muhabbat uyg'otish, ota-onaga, keksalarga hurmat kabi umuminsoniy fazilatlarini oshirish to'g'risida fikrlar bildirilgan. Uchinchi faslda "Alpomish" dostonini o'rganishga ajratilgan besh soatlik darsning birinchi soati uchun mo'ljallangan dars ishlanmasi tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Kuntug'mish" dostonini o'rganishda innovatsion-pedagogik texnologiyalaridan foydalanish" deb nomlanib, uch fasldan iborat. Birinchi faslda "Qo'rg'on" dostonchilik maktabida "Kuntug'mish" dostonining tutgan o'rni, dostonning syujet va kompozitsiyasi obrazlar tizimi, til xususiyatlari 8-sinf o'quvchilari dunyoqarashiga va bilim malakasiga bog'liq holda tahlil qilingan. Ikkinchi faslda bola tarbiyasida oilaviy muhitning qanchalik ahamiyati kattaligi haqidagi qarashlari tahlil qilinib, dissertantning unga munosabati aks etgan. Uchinchi faslda DTSning o'quv dasturida ajratilgan to'rt soatlik darsning uchinchi soati asosiy manba sifatida olinib, 45 daqiqalik dars ishlanmasi to'liq bayon etilgan.

Uchinchi bob "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Rayshan" dostonini o'rganish uslubi" deb nomlanib, uch fasldan iborat. Birinchi faslda 40 dan ortiq

dostonlarni o'zida mujassamlashtirgan "Go'ro'g'li" turkumining o'zbek xalq dostonchiligida tutgan o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Ikkinchi faslda "Ravshan" dostonining "Go'ro'g'li" nasriy turkumidagi dostonlarning so'nggisi ekanligi Go'ro'g'li – Hasanxon – Ravshan, ota – o'g'il – nevara, munosabatlari o'zbekona urf-odatlarining mohiyati bilan bog'liq holda o'quvchilarga tushuntirilgan. Uchinchi faslda DTSning o'quv dasturida ajratilgan to'rt soatlik darsning to'rtinchi soati olinib, bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlangan.

Har bir bobning uchinchi fasli sof amaliy xarakterga ega. Xalq og'zaki ijodining ta'lim tizimida o'rganilishi, o'tiladigan mavzuning samarali bo'lishi uchun yangi pedagogik texnologiyaning qanday usullaridan foydalanish zarurligi, texnik vositalar, jumladan, kompyuterdan foydalanish yo'llari haqida uslubiy tavsiyalar beriladi. Ularning amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyanoma sifatida taqdim qilinishi bilan belgilanadi.

Xullas, Sindarov Qahramonning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi (Xalq dostonlar misolida)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan magistrlik dissertatsiyasi uchun qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi deb hisoblayman va tadqiqotni ijobiy ishlar qatorida baholayman.

Taqrizchi:



Dilnavoz Yusupova,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
dotsent v.b., filologiya fanlari nomzodi

